1/2023

ORIENTAL UNIVERSITETI
TOSHKENT
2021

AL-BUXORIY

Ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy-ommabop xalqaro jurnal



Toshkent - 2023

Bosh muharrir:

Muzaffar Axmedov, *tarix fanlari nomzodi*

Bosh muharrir o‘rinbosari:

Murodjon Axmedov, *pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

Mas’ul muharrir:

Gavxar Raxmatova, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

“Al-Buxoriy” ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy ommabop

xalqaro jurnalining tahrir hay’ati:

1. A.Sagdullayev	t.f.d., akademik – tahrir kengashi a’zosi;
2. D.Yusupova	t.f.d., akademik – tahrir kengashi a’zosi;
3. S.G‘ulomov	i.f.d., akademik – tahrir kengashi a’zosi;
4. M. Kurbanova	fil.f.d. professor – tahrir kengashi a’zosi;
5. I.Saifnazarov	fal.f.d., professor – tahrir kengashi a’zosi;
6. A.Muxtarov	fal.f.d., professor – tahrir kengashi a’zosi;
7. A.Vaxobov	i.f.d., professor – tahrir kengashi a’zosi;
8. F.Egamberdiyev	i.f.d., professor – tahrir kengashi a’zosi;
9. Sh.Xalilova	p.f.d., professor – tahrir kengashi a’zosi;
10. O‘.Mavlonov	t.f.d., professor – tahrir kengashi a’zosi;
11. B.Aliyev	fal.f.d., professor – tahrir kengashi a’zosi;
12. H.Hamidov	t.f.d., professor – tahrir kengashi a’zosi;
13. A.Salixov	t.f.d., professor (Rossiya) – tahrir kengashi a’zosi;
14. M.Muhammadsiddiqov	s.f.d., professor – tahrir kengashi a’zosi;
15. D.Axmedova	fil.f.d. dotsent – tahrir kengashi a’zosi;
16. Sh.Ziyotov	t.f.d., dotsent – tahrir kengashi a’zosi;
17. A.Baltabayeva	t.f.d., dotsent (Qirg‘iziston) – tahrir kengashi a’zosi;
18. M.Raximshikova	f.f.n., dotsent (Qozog‘iston) – tahrir kengashi a’zosi;
19. S.Boltabayev	f.d. (PhD), (Turkiya) – tahrir kengashi a’zosi;

MUNDARIJA

SHARQ TILLARI

Qosimjon Sodiqov
Eski lug‘atlardagi fonetik izohlar va Alisher Navoiy asarlarida qo‘llangan so‘zlarni to‘g‘ri o‘qish masalasi 3

Shafoat Hasanova
Alisher Navoiy va Rizoiy Payvandiy hikoyalari 18

Oysara Madaliyeva
Alisher Navoiyning XVI asrga oid “Terma devon”lari tarkibi: g‘azaldan boshqa janrlarning matniy tadqiqi 28

Umida Tadjiyeva
Arab va o‘zbek xalq maqollari lingvokulturologiyaning obyekti sifatida 46

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA

Muhiddin Toshov
Xorijiy davlatlarda shaxsni tarbiyalashdagi muhim omillar 52

Nargiza Mirsagatova
Tarbiyaviy texnologiyalardan foydalanishning ta’lim jarayonidagi ahamiyati 61

Barno Rustamova
Talabalarda insonparvarlik tuyg‘usini shakllantirish 69

Сайёра Султонова, Ирина Чернобровкина
Дидактическая игра на уроках русского языка 76

TURIZM VA IQTISODIYOT

Nelyufar Dadabayeva
Investitsion faoliyatni moliyaviy tartibga solishning asoslari 88

ESKI LUG‘ATLARDAGI FONETIK IZOHLAR VA ALISHER NAVOIY ASARLARIDA QO‘LLANGAN SO‘ZLARNI TO‘G‘RI O‘QISH MASALASI

Qosimjon SODIQOV,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Mumtoz filologiya va adabiy manbashunoslik
kafedrasi professori, filologiya fanlari doktori

Annotatsiya. Alisher Navoiy yashagan chog‘lardan to o‘tgan yuz yillik boshlariga qadar bo‘lgan oraliqda klassik o‘zbek tili («chig‘atoy tili») asarlari bo‘yicha lug‘atlar yaratilgan. Lug‘atlarda klassik asarlarda ishlatilgan so‘zlarning ma’nolari bilan bir qatorda, ularning fonetik xususiyati, yozilishi va talaffuzi, polifonik harflarning ushbu o‘rindagi vazifasi, so‘zlarning fonetik variantlari keng qamrovda yoritilgan. Lug‘atchilar tanlagan prinsiplar turk leksikografiyasi va tilshunosligining tarixiy metod hamda an’analari, qolaversa, klassik o‘zbek yozma adabiy tili matnlarida qo‘llangan so‘zlarni to‘g‘ri o‘qib, mazmunini to‘g‘ri talqin etish imkonini beradi.

Ushbu maqola eski lug‘atlarda keltirilgan fonetik izohlar va ularning talqiniga bag‘ishlangan.

Tayanch so‘zlar: *leksikografiya, tarixiy leksikografiya, «chig‘atoy tili», so‘z, semantika, lug‘atlar, fonetika, fonetik izohlar, arabcha harflarning o‘qilishi, harflarning fonetik vazifasi, tarixiy tilshunoslik.*

Аннотация. Со времен Алишера Навои до начало прошлого столетия созданы многочисленные словари по произведениям классического узбекского («чагатайского») языка. В них наряду с пояснениях значений слов классического языка, также широко масштабном форме розяснены их фонетические особенности, орфоепия и правописания слов, фонетические функсии букв и вариантов данных единис. Принципы в данных словарях дают не толко изучениям исторических методов и традитсий тюркской лекцикографии и языкознаний, но и дают возможност правилного чтения и достоверного толкования значений слов в классических писменно-литературных текстах.

Данная статя посвящена фонетическим толкованиям в данных словарях и их розяснениям.

Ключевые слова: *лекцикография, историческая лекцикография, «чагатайский язык», слово, семантика, словари, фонетика, фонетические пояснения, чтение арабских букв, фонетические функсии букв, историческое языкознание.*

Annotation. From the time when Alisher Navoi lived to the beginning of the last century, numerous dictionaries were created based on the works of the classical Uzbek («Chagatai») language. In dictionaries, along with definitions of words which were used in classical works, their phonetic features, writing and spelling of them, functions of polyphonic letters in this position, phonetic options of words were highly explained. The principles were chosen by lexicographers provide an opportunity to study the historical methods and traditions of Turkic lexicography and linguistic as well as for the correct reading and the reliable interpretation of the meaning of the words used in the classical Uzbek written literary texts.

This article is about phonetic explanations and their interpretations used in old dictionaries.

Key words: *lexicography, historical lexicography, «Chagatai language», word, semantics, dictionaries, phonetics, contrasting explanations, reading Arabic letters, background functions of letters, historical linguistic knowledge.*

O‘zbek tilshunosligi tarixida Nizomiddin Mir Alisher Navoiy asarlarida qo‘llangan so‘zlarni jamlab, izohli lug‘atlar tuzish, «chig‘atoy tili» bo‘yicha ilmiy grammatik kitoblar yaratishga e’tibor kuchli edi. Bunday lug‘atlar va grammatikalar forscha va turkiy tillarda bo‘lib, Navoiy yashagan chog‘lardan to o‘tgan yuz yil boshlariga qadar bo‘lgan oraliqda yaratilgan. Ularda Mavlono Lutfiy, Mir Haydar, Alisher Navoiy, Husayn Boyqaro, Zahiriddin Muhammad Bobur singari ijodkorlarning asarlaridan olingan so‘zlarning ma’nolari ochiqlangan. Ushbu lug‘atlar ayni chog‘da o‘z davrining grammatik asarlari ham sanaladi. Lug‘at egalari klassik manbalarda, birinchi galda, Navoiy asarlarida ishlatilgan so‘zlarning ma’nolarini izohlar ekan, ularning talaffuzi, o‘ziga xos fonetik xususiyatiga ham to‘xtalib o‘tganlar. Ayrim lug‘atlarda «chig‘atoy tili»ning fonetika va morfologiya bo‘limlari yoritilib, so‘ngra lug‘at qismiga ko‘chiladi.

Lug‘atlarda so‘zlar ma’nosi va uning tovush xususiyatini izohlashning o‘ziga yarasha prinsiplari amal qilgan. Lug‘atchilar tanlagan prinsiplar turkiy leksikografiya va tilshunosligining tarixiy metod hamda an’analari, qolaversa,

klassik o‘zbek yozma adabiy tili matnlarida qo‘llangan so‘zlarni to‘g‘ri o‘qib, mazmunini to‘g‘ri talqin etish imkonini beradi.

Lug‘atlardagi fonetik izohlar Navoiy ishlatgan so‘zlarni to‘g‘ri o‘qish ochqichidir.

Lug‘atlarda klassik asarlarda ishlatilgan so‘zlarning ma’nolari bilan bir qatorda, ularning fonetik xususiyati, yozilishi va talaffuzi, polifonik harflarning ushbu o‘rindagi vazifasi, so‘zlarning fonetik variantlari keng qamrovda yoritilgan. Bu narsa boshqa til egalari, qolaversa, qipchoqlarga yoki o‘g‘uz turklariga, ayniqsa, usmonli turkchasida so‘zlovchilarga «chig‘atoycha» matnlarni o‘qish va ularning ma’nosini talqin etishda qo‘l kelgan.

Lug‘at tuzuvchilar so‘zlarning o‘qilishi va anglamini izohlar ekan, ayni shakl va ma’noda qay bir ijodkorning asarida, hatto qanday vaziyatda qo‘llanganini aytib, o‘sha bayt yoki jumlani misol keltiradilar.

Klassik asarlarda ishlatilgan so‘zlar ma’nosi, ularning fonetik jihati, harflarning o‘qilishi borasida lug‘atchilarning o‘ziga xos yondashuvlari, talqin usullari bor.

Yozilishi bir xil, talaffuzi turlicha bo‘lgan so‘zlarning har biri mustaqil so‘z maqola sifatida beriladi.

Masalan:

ot (اوت) – «ātaš» ma’nāsïnadur (DDT[1].76);

ot (اوت) – «yerdä bitän ot» ma’nāsïnadur (DDT.76);

öt- (اوت) – imāla ilä; «amr edüp geč-» demäkdür (DDT.78).

Yozilishi va o‘qilishi bir xil, lekin bir necha ma’noni anglatgan so‘zlarning misoli:

ötmäk (اوتماک) – kāf ’arabîdur; «getmäk» va «gečmäk» va daxï «etmäk» demäkdür, «nān» ma’nāsïna (DDT.90).

Demak, *ötmäk* so‘zi *öt-* ning masdari bo‘lib, «ketmak», «kechmak» ma’nolarini anglatadi. Shuningdek, eski turkiy bitiglardagi «non» ma’nosini anglatgan *etmäk* so‘zi Navoiy asarlarida *ötmäk* shaklida ishlatilgan. «Qutadg‘u bilig»da bu so‘z *etmäk* shaklidadir: *tuz-etmäk* – juft. «tuz-non» (QBS[2],276). Navoiy asarlaridagi *ötmäk* so‘zi öt- fe’lidan yasalgan emas, u qadimgi *etmäk* ning fonetik jihatdan o‘zgargan (e>ö) variantidir: *etmäk>ötmäk*. Ko‘rinishi va aytilishi bir xil bo‘lgani uchun «Abushqa»ning muallifi uni shu erda eslab o‘tgan, xolos. Bunday fonetik hodisa boshqa so‘zlarda ham bor: «Qutadg‘u bilig»da – *ew*

[1] DDT – Dictionnnaire Djaghatai-turc. V. de Viliaminof-Zernof. – SPb., 1869.
[2] QBS – «Qutadg‘u bilig» so‘zligi. Tuzuvchi Q. Sodiqov. – Toshkent, 2020.

(QBS,100); hozirgi o‘zbek adabiy tilida – *üy* (adab.orf.: uy); uyg‘urchada va Toshkent shevasida – *öy*.

Chog‘ishtiring, XVIII yuz yilda yashab ijod etgan yozuvchi, tarixchi va olim Mirzo Mehdixon Asrtabodiyning (uning Mo‘nshiy, Mozandaroniy, Kavkab laqablari ham bor) Navoiy asarlari bo‘yicha tuzgan turkcha-foscha «Sanglox» lug‘atida: *ötmäk* (اوتماک) hamda *etmäk* (اتماک) – «non» (Sang[3].120a.11); *ötmäkči* (اوتماکچی) – «nonvoy» (Sang.120a.13).

Lug‘atda «non» anglamidagi *etmäk* va *ötmäk* so‘zlarining izohlanishi shunday:

etmäk (اتماک) – «sukunli tā va fatḥa li mīm bilan» (besukūn-e tā va fatḥ-e mīm) aytilgan;

ötmäk (اوتماک) esa «*ḍamma* li alif bilan» (beḍamm-e alif) aytilgan (Sang.85a).

Yoki yana «Abushqa»da:

ötük (اتوک) – kāf-e ’arabîla; «gečmiš» demäkdür va «ayaγa giyilän edük» ma’nāsïnadur-ki, «Ḥayratu-l-abrār»da edinji maqālada gelür, bayt:

Altun ïsïrγa-ki, qulaγ aγrïtur,
Zarčïl ötükdür-ki, ayaγ aγrïtur (DDT.90).

Bundan anglashiladiki, *ötük* so‘zi jarangsiz [k] bilan aytilgan; bu so‘z «kechmish» degani, shuningdek, hozirgi o‘zbek tilidagi «etik» ham Navoiy asarlarida *ötük* deb talaffuz qilingan.

Bolaligimdan yaxshi eslayman, ilgari o‘zbek og‘izlarida ham bu so‘z *ötük* deyilardi.

Unlilar talaffuzini anglatuvchi atamalar. Tole Imoniy o‘zining «Badoeu-l-lug‘at»ida *mamdūda* atamasini «cho‘ziq» degan ma’noda qo‘llagan. Jumladan, *madda* li *alif* ni *alif-e mamdūda*, ya’ni «cho‘ziq alif» deb ataydi u:

atlïγ (آتلیغ) – baalif-e mamdūda; nāmdār. – cho‘ziq *alif* bilan; «nomdor» (BL[4].6b,10).

asïγ (آسیغ) – baalif-e mamdūda va ‘ayn-e mo’jama; fāyda va asarrā gōyand. – cho‘ziq *alif* va nuqtali *‘ayn* bilan; «foyda» va «natija»ni aytadilar (BL.9a,12–9b,1).

arïγ (آریغ) – baalif-e mamdūda va ‘ayn-e mo’jama; pāk va nahr-e ābrā gōyand. – cho‘ziq *alif* va nuqtali *‘ayn* bilan; «pok, toza» va «suv arig‘i»ni aytadilar (BL.9b,6).

aldaγ (آلداغ) – baalif-e mamdūda; firīb. – cho‘ziq *alif* bilan; «firib, aldov» (BL.14b,7).

[3] Sang. – Mirzo Mehdixonning «Sangloh» asari qo‘lyozmasi: Fransiya Milliy kutubxonasi: Suppl.Turc.1000.
[4] BL – Tole Hiraviy. Badoe’u-l-lug‘at. Vengriya Fanlar akademiyasi kutubxonasida saqlanayotgan Ms. Perzsa Qu 4 ko‘rsatkichli qo‘lyozma.

Lug‘atchi qo‘llagan *alif-e maftūḥa* atamasi ochiq *alif* ni anglatadi. Buning misollari shunday:

ata (اتا) – baalif-e maftūḥa; padaro. – *fatḥa* li, ya’ni ochiq *alif* bilan «ota»; ana (انا) – shu harakat bilan, bir nuqtani tushirib qoldirib, «ona»ni aytadilar (BL.9a,4).

aqa (آقا) – baalif-e mamdūda; barādar va xvāharča-e bozorgist. – cho‘ziq *alif* bilan; «og‘a» va «egachi»dir (BL.9a,7).

Lug‘atda ishlatilgan *bafatḥ-e alif* atamasining ma’nosi *fatḥa* li *alif* dir:

ayaγ (اياغ) – bafatḥ-e alif va ‘ayn-e mo’jama; pā va piyāla va sāγarrā gōyand. – fatḥa li alif va ‘ayn-e mo’jama bilan; «oyoq» hamda «piyola» va «sog‘ar»ni aytadilar (BL.10a,5).

Bu so‘zning «piyola» va «sog‘ar» ma’nosiga misol qilib keltirgan bayti shunday:

Ey Navāyî, čūn köŋül berdim ačïlmas bādadïn,
İstäsäŋ ul otnï ravšan, dam-badam tutqïl ayaγ (BL.10a,8–9).

baḍam-u alif atamasi *ḍamma* li *alif*, ya’ni [*u*] tovushiga ishora qiladi:

učmaq (اوچماق) – baḍam-u alif va jīm-e fārsî. – ḍamma li alif va forscha jīm bilan; haqiqatan, «behisht, jannat»ni aytadilar; majozan «sham’» va «chiroqning o‘chishi»ni aytadilar; «uchmoq» ma’nosida ham kelgan (BL.21b,8).

alifu-l-maksūra atamasi «siniq alif», ya’ni [*e*] tovushini anglatadi. Masalan:

egri (ايكرى) – baalifu-l-maksūra; kaj. – alifu-l-maksūra [siniq alif] bilan; «egri» (BL.39b,10).

Lug‘atchi qo‘llagan *išba’* atamasi «to‘yintirilgan», ya’ni cho‘ziq unlini anglatadi. Misollarga e’tibor qiling:

ilig (ايليک) – balkasr val-išba’; dastrā gōyand. – *kasra* li išba’ bilan; «qo‘l»ni aytadilar (BL.40a,9).

uruš (اوروش) – baalḍamma va-l-išba’; jaŋ. – *ḍamma* li va cho‘ziq (unli bilan); «jang» (BL.31a,2).

orun (اورون) – bališba’; ‘ibārat az jā va maqām-ast. – to‘yintirilgan, ya’ni cho‘ziq (unli bilan); «joy» va «o‘rin, daraja» ma’nosidadir (BL.25a, 2–3).

«Abushqa» lug‘atining muallifi cho‘ziq unlilarga nisbatan *imāla* atamasini ham ishlatgan. Masalan:

uy (اوى) – imāla ilä; «ṣïγïr» ma’nāsïna gelür (DDT.122).

öl (اول) – imāla ilä; muṭlaq yašdur «nam» ma’nāsïna va «daryā» ma’nāsïna daxï gelür (DDT.113).

kāf harfining o‘qilishi. Turkiy matnlarda *kāf* harfi ham ikki xil vazifani bajargan: u jarangsiz [*k*] va jarangli [*g*] tovushlarini anglatadi. Navoiy asarlari

bo‘yicha tuzilgan eski lug‘atlarda [*k*] uchun *kāf-e ’arabî*, ya’ni «arabcha kāf»; jarangli [g] uchun esa *kāf-ye ’ajamî*, ya’ni «ajamcha kāf» atamalari ishlatilgan.

Turkiy xalqlar o‘tmishda qo‘llagan yozuvlar ichida faqat ko‘k turk alifbosidagina jarangsiz [*k*] va jarangli [*g*] uchun ayri-ayri harflar bor edi. Qolgan yozuvlarda (uyg‘ur, arab yozuvlarida) esa [*g*] va [*k*] tovushlari yozuvda farq qilmaydi, ikkovi ham kāf harfi bilan berilgan. Shunga qaramay, kotiblar, lug‘at tuzuvchilar tarafidan ularni farqlashga urinishlar bo‘lgan. Jumladan, ayrim o‘rinlarda jarangsiz [*g*] ni farqlash uchun *kāf* ning ustiga uch nuqta ham qo‘yib ketilgan.

«Devonu lug‘ati-t-turk» qo‘lyozmasida: أڭا *ögä*, ya’ni «dono» so‘zida (MK[5].5a). Yoki asarda *γunna* li *ŋ* tovushi ham ana shunday harf bilan berilgan: انڭْ *aŋ* – «yanoq»;قزلْ انڭْ *qïzïl aŋ* – «qizilmag‘iz» (MK.16b); انڭْ *aŋ* – qush nomi (MK.16b); أُنڭْ*öŋ* – «o‘ng, old» (MK.16b); أُنڭْ*öŋ* – «rang» (MK.16b); ايشْ أُنڭْ*oŋ iš* – «o‘ng ish» (MK.16b); أُنڭْ *oŋ* – «o‘ng» («so‘l» ning teskarisi) (MK.16b).

Bundan tashqari, Mahmud Koshg‘ariy [*g*] va [*k*] larning talaffuzini aks ettirish maqsadida turli grammatik atamalar(terminlar)dan ham foydalangan.

U turkiy so‘zlardagi jarangli [*g*] tovushini kāfun rakīkatun atamasi bilan izohlagan. Arabcha *rakīka* aslida «ingichka» degani, lekin u *kāf* ga nisbatan qo‘llanganda «jarangli» ma’nosini bildiradi. Lug‘atda berilishiga misol: كُوكْ *küg* – jarangli *kāf* (ya’ni, [*g*] bilan) (bikāfin rakīkatin), «she’r o‘lchovi, vazni»; masalan: *bu yïr ne küg üzä-ol* – «bu she’r qanday vaznda?» (MK.250b).

Jarangsiz [*k*] ga kelsak, uni avvalgisi bilan qorishtirib yubormaslik uchun, kāfun ṣulbatun atamasi bilan berilgan; ṣuluba asli «yo‘g‘on» degani, lekin bu o‘rinda «jarangsiz»ni bildiradi. Masalan: كُوكْ *kök* – jarangsiz kāf (ya’ni [k]) bilan (bi-l-kāfi-ṣ-ṣulbati), «ko‘k, osmon». Bu so‘z quyidagi maqolda ham kelgan: Kökkä süδsä, yüzkä tüšür. – «Ko‘kka tupursa, yuzga tushadi» (MK.251a).

«Abushqa» lug‘atining muallifi esa [g] va [k] lar uchun boshqa atamalardan foydalangan: jarangli [g] uchun *kāf-e ’ajamî* («ajamcha kāf»), jarangsiz [k] uchun esa *kāf-e ’arabî* («arabcha kāf») atamasini qo‘llaydi.

Misollarga e’tibor bering:

itik (ايتيک) – kāf kāf-e ’arabîdur; bu daxï «keskin» va «tez» ma’nāsïnadur (DDT.42).

öksük (اوکسوک) – kāf kāf-e ’arabîdur; «eksik» demäkdür (DDT.111);

kökümtül (کوکومتول) – kāflar kāfe ’arabîdur; «köm-kök» demäkdür (DDT,370).

berk (بيرک) – kāf-ye ’arabî ilä; «berk-u maḥkam» ma’nāsïnadur (DDT.137).

[5] MK – Kaşgarlı Mahmud. Dīvānü Lūgati’t-Türk. Tıpkıbasım / Facsimile. – Ankara, 1990.

bičäk (بیجک) – kāf ’arabîdur; «ignä» demäkdür, «sozan» manāsïna-ki, «Ğarāyibu-ṣ-ṣiγar»da gelür (DDT.136).

üsrük (اوسروک) – kāf-e ’arabîyla; «mast» ma’nāsïna gelür (DDT.108).

ölük (اولوک) – kāf kāf-e ’arabîdur; «murda» ma’nāsïnadur (DDT.116).

čüčük (چوچوک) – kāf-e ’arabîla; «ṭatlu» demäkdür (DDT.248).

öksük (اوکسوک) – kāf kāf-e ’arabîdür; «eksük» demäkdür-ki, «Badāye’u-l-vasaṭ»da gelür, bayt:

Meni-ki muγbača der ičrä äylädi üsrük,
Ne taŋ közümgä quyaš bolsa δarradïn öksük (DDT.111).

«Lug‘at-i Navoiy»da: امکاک emgäk – kāf-e avval ’ajamî va sānî ’arabîdur; «emik» va «zaḥmat-u mašaqqat» ma’nāsïnadur; «emik mulk» ma’nāsïna daxï kelür (LN[6].3b,3).

ertäk (ایرتاک) – kāf ’arabîdur (LN.5a,2).

ešik (ایشیک) – kāf ’arabîdur; «qapu»ya derlär (LN.5b,2).

Endi «ajamcha kāf» ning misoli, «Abushqa»dan:

berürgä (بیرورکا) – kāf kāf-e ’ajamîdur; «vermäk ičün» demäkdür (DDT.137).

bergäli (بیرکالی) – yana kāf kāf-e ’ajamîdur; «veräli» va «vermäk ičün» demäkdür (DDT.137).

tegrä (تیکرا) – kāf-e ’ajamîdur; «dāira» va «aṭrāf» ma’nāsïnadur (DDT.191).

özgä (اوزکا) – kāf kāf-e ’ajamîdur; «kendüyä» demäkdür (DDT.105).

Chog‘ishtiring, Mirzo Mehdixonning «Sanglox» lug‘atida:

egä (ایکا) – befatḥe, kāf-e ’ajamî; bama’nī «mālek» va «ṣāḥib». – «fatha bilan, ajamcha kāf bilan; «malik» va «sohib» ma’nosida» (Sang.172b.3).

Bir so‘zda ikkita kāf kelib, biri [*k*], ikkinchisi [*g*] deb o‘qilishi ham mumkin yoki aksincha. Bunday o‘rinlarda har ikkisiga ta’rif beriladi. Masalan:

keŋäš (کینکاش) – kāf avval ’arabî va kāf sānî ’ajamîdur; «mašvarat» manāsïnadur (DDT.361).

kölägä (کولاکا) – kāf avval ’arabî va kāf sānî ’ajamîdur; «köläga» demäkdür (DDT,371). Chog‘ishtiring, hozirgi o‘zb. ko‘lanka; maqolda shunday kelgan: O‘zi – xon, ko‘lankasi – maydon.

čüčürgänmäk (چوچورکانماک) – kāf-e avval ’ajamî va kāf-e sānî ’arabîdur (DDT.248).

Shu o‘rinda yana bir dalilga e’tibor qiling.

Ko‘k turk alifbosida [*k*] va [*g*] uchun ayri-ayri harf ishlatilgani uchun qadimgi turkiy bitiglar tilida beg, bitig, bilig so‘zlari [*g*] bilan talaffuz qilinganini

[6] LN – «Lug‘at-i Navoiy»ning Eronda saqlanayotgan nusxasi: Kitābxānā-i majlis-i shā’rā-yi ’ilmî; 7981-ko‘rsatkichli qo‘lyozma

bilish mumkin. Masalan, To‘nyuquq bitigida: *beg* – «bek», *bilig* – «bilim»; Kul tigin bitigida: *bitig* – «yozuv; kitob» va boshqalar.

Muhimi shundaki, ko‘k turk yodgorliklaridagi bitig so‘zi «Abushqa»da jarangsiz [k], ya’ni «arabcha kāf» bilan (kāf-e ’arabîla) bitik deb o‘qilishi ta’kidlangan. Mana o‘sha misoli:

bitik (بيتيک) – kāf ’arabîla; «maktūb»a derlär (DDT.125).

Qizig‘i shundaki, Mirzo Mehdixon ham bu so‘zni [k] bilan keltirgan. Mana uning yozgani:

bitik (بتيک) – bekasre, tā va sukūn kāf; maktūb. – «kasra, tā va sukūn bilan; maktub» (Sang.221b,6).

Yoki yana «Abushqa» lug‘atida:

bitiklik (بيتيک ليک) – kāflarï kāf ’arabîdur; «yazïlmïš» demäkdür (DDT.126).

Vaholanki, lug‘atchi bilig so‘zining ma’nosini ochiqlar ekan, u jarangli [g], ya’ni «ajamcha kāf» bilan o‘qilishini ta’kidlagan. Mana o‘sha yozgani:

bilig (بيليک) – kāf kāf-ye ’ajamîdur; «bilmäk» va «idrāk» ma’nāsïnadur-ki, «Sab’ai sayyāra»da ikinji ḥikāyatda Zayd ðahhāb čāhïdan qačduγï maḥalda gelür, bayt:

Anča makr-u firīb va nav’ bilig,
Tišlätip laḥża laḥża šahqa ilig.

Va yana «Farhād-u Šīrīn» xātimasïnda šahzāda naṣihatïda gelür-ki, bayt:

Bilig šāh äyläsä hayvānnïŋ atïn
Ne taŋ-ki, kimsä tapsa šāh ðātïn (DDT.142).

Yoki *beg* so‘zining ma’nosini ochiqlar ekan, uning ham [*g*] tovushi, ya’ni «ajamcha *kāf*» bilan talaffuz qilinganini ta’kidlaydi:

beg (بيک) – kāf kāf-e ’ajamîdur; «beg» demäkdür, «mīr» ma’nāsïna (DDT.140).

Harqalay, Navoiy asarlari tilida بتيک so‘zi *beg, bilig* singari jarangli [*g*] bilan *bitig* deb aytilgan. Lug‘atlardagi izohlarga kelsak, keyingi davrlarda bu so‘zdagi *kāf* ning talaffuzida jarangsizlashish yuz bergan. «Abushqa» lug‘atining tuzuvchisi ham, Mirzo Mehdixon ham ana shu talaffuziga tayangan holda uni *bitik* deb keltirganlar chog‘i.

Lug‘at o‘g‘uzlar davrasida tuzilgan. Bu narsa klassik so‘zlarning ochiqlamasidagi o‘g‘uzcha lug‘at qatlami, so‘zlar va qo‘shimchalarning yozilishida ham yaqqol ko‘zga tashlanib turadi: *köprü* («ko‘prik»), *ördäkiŋ dišisi* («o‘rdakning modasi»), *ayaγa giyilän edük* («oyoqqa kiyiladigan etik»), *yedinji* («ettinchi»), *qačduγï* («qochgani») singari.

Lug‘atda o‘g‘uzlar davrasida tuzilganligining ta’siri bor: unda hatto «chig‘atoy tili»dagi, xususan, Navoiy asarlarida ishlatilgan ayrim so‘zlar ham o‘g‘uzchalashtirib yuborilgan.

Jumladan, lug‘atchi *ögürmäk* so‘zini izohlar ekan, undagi *kāf* harflarining talaffuzi va so‘z ma’nosiga to‘xtalib, shunday yozadi:

ögürmäk (اوکورماک) – kāf-e avval ’ajamî va kāf-e s̲ānî ’arabîdur. «Muḥākamatu-l-luγatayn»da Navāyî ḥaḍratlarï bu luγatï šuyla taṣjīḥ etmišlär-ki, «yana biyik ün bilä-kim, e’tidālsïz āšub bilä yïγlaγaylar», anï «ökürmäk» derlär (DDT.111).

Aslida lug‘atning bu so‘z maqolasi *ökürmäk* (اوکورماک) – kāflar kāf-e ’arabîdur deb boshlanganida to‘g‘ri bo‘lardi. Sababi, «Muhokamatu-l-lug‘atayn»dagi اوکورماک so‘zi jarangsiz [*k*], ya’ni «arabcha *kāf*» bilan aytilgan. Chog‘ishtiring, hozirgi o‘zbek tilida ham *o‘kirmak* – «o‘kirib yig‘lamoq»dir; *ögürmäk* esa boshqa bir so‘z.

Yoki yana bir misol:

güjlük (کوجلوک) – kāf-ye avval kāf-ye ’ajamî va kāf-ye s̲ānî kāf-ye ’arabîdur va jīm-ye ’arabîla, «quvvatlu» ma’nāsïnadur (DDT.363).

Aslida bu so‘z maqola: *kučlüg* (کوجلوک) – kāf-ye avval kāf-e ’arabî va kāf-ye s̲ānî kāf-e ’ajamîdur va jīm-ye ’ajamîla, «quvvatlu» ma’nāsïnadur shaklida berilmagi kerak edi. Chunki, «chig‘atoy tili»da کوجلوک so‘zidagi birinchi *kāf* harfi jarangsiz [*k*], ikkinchi *kāf* esa jarangli[*g*]; *jīm* harfi esa [*j*] emas, balki [*č*] deb o‘qilgan; *kučlüg* – bu sifatdir.

Lug‘atchi buning singari misollarni Navoiyning o‘g‘uzlar davrasida ko‘chirilgan asaridan olgan bo‘lishi ham mumkin; ulardagi grafik ishoratlarga tayanib, misollarni ham ana shunday izohlab ketgan ko‘rinadi. Bunday deyotganimning sababi, o‘g‘uz kotiblari «chig‘atoycha» matnlarni ko‘chirganda ulardagi ayrim so‘zlarni o‘g‘uzchalashtirib yuborgan o‘rinlar ham bor. Masalan, oqqo‘yunlilar tarafidan tuzilgan Navoiy devonida ham shunday.

***jīm* harfining o‘qilishi.** Turkiy matnlarda *jīm* (ج) harfining vazifasi ham ikki xil, u [*j*] va [*č*] tovushlarini bildiradi. Ayrim o‘rinlarda jarangsiz [*č*] ni farqlash uchun *čīm* (چ) harfidan ham foydalanilgan: *tapuqčï* (تاپوقچی) – «xidmatkār» ma’nāsïnadur (DDT.160) singari.

«Abushqa» muallifi ularning ikkalasini bir-biridan ayirib ko‘rsatish uchun grammatik atamalardan foydalangan: [*j*] uchun *jīm-e ’arabî* («arabcha *jīm*»), jarangsiz [*č*] uchun esa *jīm-e ajamî* («ajamcha *jīm*») atamasini ishlatadi.

Masalan, *ajïγ* va *ajïq* (اجیغ و اجیق) so‘zini izohlar ekan, undagi *jīm* harfining talaffuziga va so‘zning ma’nosiga to‘xtalib, «jīm-e ’arabî-la; «ajï» demäkdür, «talx» ma’nāsïna gelür» deya urg‘ulaydi (DDT.10).

borčïn (بورچين) – jīm-e ’ajamî ilä; «ördäkiŋ dišisi»nä derlär (DDT.151).

Yoki yana:

ajun (اجون) – jīm-e ’arabîla; «dunyā» ma’nāsïnadur (DDT.6).

Chog‘ishtiring, Mirzo Mahdixonning «Sanglox»ida:

čerik (چيريک) – bā čīm-e ’ajamî va kasra va sukūn kāf. – «ajamcha *čīm* va *kasra* va *sukūn* li *kāf*» (Sang.291b.8).

čerikči (چيريکچی) – bā čīm-e ’ajamî s̲ānî; «laškar bāšad». – «ikkinchisi ajamcha *čīm*; lashkarboshi» (Sang.291b.9).

Endi «Abushqa»da berilgan quyidagi so‘zga e’tibor qiling:

bozjïn (بوزجين) – jīm-e ’arabîla; «qarača āhunïŋ dišisi»nä derlär-ki, Navāyî «Muḥākamatu-l-luγatayn»da bu luγatï šuyla taṣḥīḥ edürlär-ki: «türk kiyikniŋ erkägin «hūna» va tišisin «bozjïn» derlär» (DDT.151).

Qizig‘i shundaki, «Muhokamatu-l-lug‘atayn»ning turli qo‘lyozmalarida bu o‘rinda ikki xil so‘z: *qïlčaqčï* yoki *bozjïn* keladi. Masalan: Va awda ’umda-ki, kiyikdür. Türk anïŋ erkägin – *hūna* va tišisin *qïlčaqčï* der (ML[7].38).

«Muhokamatu-l-lug‘atayn»ning turkcha ilmiy nashrida tayanch nusxadagi matnga ko‘ra *qïlčaqčï* deb berilgan (ML[8].176); bu – to‘g‘ri. Biroq matn boshqa nusxalar bilan qiyoslanganda u yerda (F25,B8 da) *borčïn* ekanligi ta’kidlangan (ML.195). Aslida bu so‘zni *borčïn* deb emas, «Abushqa» lug‘atidagi izohlarga tayanib, *za* va «arabcha *jīm*» (*jīm-e ’arabî*) bilan *bozjïn* o‘qilgani ma’qul (*qarang:* DDT.151). Chunki, *borčïn* o‘qilsa, «o‘rdakning modasi» (*ördäkiŋ dišisi*) bo‘lib qoladi (*qarang:* ML.38: türk ördäkniŋ erkägin *sona* va tišisin *borčïn* der). Kiyikka nisbatan to‘g‘risi – *bozjïn* dir, u «kiyikning erkagi»dir. Ilmiy tadqiqotlarda ham bu so‘zlarning farqiga borilmayotir[9].

Mirzo Mehdixon ham jarangsiz [*č*] ni «ajamcha *jīm*» (jīm-e ’ajamî), jarangli [*j*] ni esa «arabcha *jīm*» (jīm-e ’arabî) atagan.

«Sanglox»da izohlanuvicha, «vaqt, zamon» anglamidagi *čaγ* (چاغ) so‘zi «ajamcha *jīm* bilan» (jīm-e ’ajamî) aytilgan (Sang.277b).

ačmaq (آچماق) so‘zi «ajamcha *jīm* bilan» (bā jīm-e ’ajamî) aytilgan (Sang.85b).

Yoki: «ichimlik; sharob» anglamidagi *čaγïr* (چاغير) so‘zi «ajamcha *jīm* va kasrali *γayn* va sukunli *rā* bilan» (bā jīm-e ’ajamî va kasra-e γayn va sukūn-e rāy-e) o‘qiladi (Sang.277b).

[7] ML – Alisher Navoiy. Muhokamatu-l-lug‘atayn. Qosimjon Sodiqov tahlili, tabdili va talqini ostida. – Toshkent, 2017.

[8] ML – ‘Ali Şir Nevayi. Muhakemetü’l-luğateyn (İki Dilin Muhakemesi). Hazırlayan F. Sema Barutçu Özönder. – Ankara, 1996

[9] Qarang: Muhokamatu-l-lug‘atayn. Ilmiy-tanqidiy matn. Tuzuvchi va nashrga tayyorlovchi Y.Tursunov. – Toshkent, 2021

Shuningdek, bir so‘zda *kāf, jīm* harflari aralash ishlatiluvi mumkin. Bunday o‘rinlarda ham har biri alohida izohlanadi.

Masalan, *kečti* (كيچتى) so‘zining izohida *kāf* va *jīm* harflarining talaffuziga to‘xtalib, «*kāf* kāf-e ’arabîdur va *jīm* jīm-e ajamîdur; «gečdi» demäkdür» deya ta’kidlaydi lug‘atchi (DDT.356).

«Badoeu-l-lug‘at»ning tuzuvchisi Tole Hiraviy ham *jīm* harfining vazifasini ikki xil atagan: *jīm-e ‘arabî* – «arabcha *jīm*», bu [*j*] dir; lekin ikkinchisini avvalgi lug‘atdan farqli o‘laroq, *jīm-e fārsî* – «forscha *jīm*» deydi, bu [*č*] dir. Misollarga e’tibor qiling:

aj~ač (اَچ) – bajīm-e ‘arabî «gorosna» va bajīm-e fārsî bama’nî «kešvar»ist – arabcha *jīm* bilan – «och»; forscha *jīm* bilan «nuqsonlar» ma’nosidadir (BL[10].7b,10).

So‘zning «och» ma’nosiga quyidagi bayt misol qilib keltirilgan:

Qoy-ki, ul yüz xānïqa naẓẓāra äyläy toyγuča
Kim, közüm bolmïš bu qaḥaṭčïn ayyāmïda ač (BL.7b,11–12).

ajïγ (اَجيغ) – baalif-e mamdūda va jīm-e ‘arabî; talx. – cho‘ziq *alif* va arabcha *jīm* bilan; «achchiq» (BL.8a,1–2).

Bu so‘zga quyidagi bayt misol qilib keltirilgan:

Etmä rām na’lïqa qïlγay-men čüčük jānïm fidā,
Ey Navāyî, aŋa der-sen-ki, kelmägäy nāgāh ajïγ (BL.8a,4–5).

Yana:

ačun (اَچون) – baalif-e mamdūda va jīm-e fārsî; jihānrā nāmand. – cho‘ziq *alif* va forscha *jīm* bilan; «jahon»ni ataydilar (BL.10a,11–12).

Lug‘atchi bu so‘z Lutfiy she’rlarida kelganini ta’kidlaydi. Bunga Navoiydan misol berilgan emas, chunki Navoiyda *ačun* so‘zi uchramaydi, o‘rnida *jihān* so‘zi ishlatilgan.

***bā* harfining o‘qilishi.** Turkiy matnlarda *bā* harfining fonetik vazifasi ham ikki xil: u [*b*] va [*p*] tovushlarini anglatgan. Ayrim o‘rinlardagina, [*p*] ni farqlash uchun *bā* ning ostiga uch nuqta qo‘yib ketilgan. Bu narsa «Abushqa»da ham bor: unda ko‘p o‘rinda پ dan foydalanilgan: *tapmaq* (تاپماق) – «bulmaq» demäkdür (DDT.161) singari.

Shunga qaramay, lug‘atchilar [*b*] va [*p*] lar uchun maxsus atamalardan ham foydalangan: jarangli [*b*] uchun *bā-ye ’arabî* («arabcha *bā*»), jarangsiz [*p*] uchun esa *bā-ye ’ajamî* («ajamcha *bā*») atamasini qo‘llaydi. Masalan, «Abushqa»da: *köprük* (كوپروک) – kāflar kāf-e ’arabîdur va bā-ye ’ajamîla; «köprü»yä derlär (DDT.362).

[10] BL – Tole Hiraviy. Badoe’u-l-lug‘at. Vengriya Fanlar akademiyasi kutubxonasida saqlanayotgan Ms. Perzsa Qu 4 ko‘rsatkichli qo‘lyozma.

Yoki «Sangloh»da izohlanuvicha, «qariya» anglamidagi *apaγ* (آپاغ) va *apaq* (آپاق) so‘zlari «ajamcha *pā* bilan» (bā pāy-e ’ajamî) aytilgan (Sang.82b).

So‘zlarning fonetik variantlari. Lug‘atlarda ikki xil fonetik variantda ishlatiladigan so‘zlar ham keltirilgan. Bundan Navoiy asarlarida ayrim so‘zlar ikki xil shaklda ishlatilavergani anglashiladi.

Turli fonetik variantda ishlatiladigan so‘zlar ko‘pincha bir so‘z shaklida keltiriladi; masalan, so‘zning *qāf* bilan tugovchi shakli berilib, ketidan *γayn* harfi ham ulab qo‘yiladi:

Masalan, «Abushqa» lug‘atida:

uluγ va uluq (اولوغ و اولوق) – «ulu va bozurg» ma’nāsïnadur (DDT.116).

otluq va otluγ (اوتلوق و اوتلوغ) – «ātašīn» demäkdür (DDT.91).

baγlïγ va baγlïq (باغليغ و باغليق) – «baγlu va baγčalu» demäkdür va bir daxï «bandla baγlu» demäkdür (DDT.130).

bitküči va bitikküči (بيتكوجى و بيتيكوجى) – kāflar kāf-e ’arabîdur; «yazïjï» ma’nāsïnadur (DDT.135).

tamuγ va tamuq (تاموغ و تاموق) – «ṭamu» demäkdür, «jahannam» manāsïna (DDT.185).

Mirzo Mehdixon lug‘atida:

atamaq / *atamaγ* (اتاماق غ) – «atamoq» (Sang.83b);

atalmaq / *atalmaγ* (تالماق غ) – «atalmoq» (Sang.83b) singari.

Lug‘atda ikki xil variantda ishlatiladigan so‘zlarning ikkala shakli ham keltirilgan. Jumladan, turkiy tilda «chalg‘uchi, sozanda»ni *čalïčï* (چاليچى) yoki *čalγučï* (جالغوچى) atalgan (Sang.280b).

Turli fonetik variantlarga ega so‘zlarning ayrimlari ko‘pma’nolidir; lug‘atchi ularning har ikkisini keltiradi. Masalan: *ayaγ* va *ayaq* (اياغ و اياق) – «qadaḥ» va «pāy» ma’nāsïndadur (DDT.29).

Eski o‘zbek tilida «qadah; piyola» ma’nosidagi *ayaq* so‘zidan «soqiy» so‘zi ham yasalgan. «Abushqa»da bu so‘z ham bor: *ayaqčï* (اياقچى) – «sāqî» ma’nāsïnadur (DDT.39).

Lug‘atlarda sinonim qo‘shimchalar bilan yasalgan so‘zlar ham berilgan. Masalan, «Abushqa» lug‘atida *köklä-* so‘zining ta’rifida o‘qiymiz:

köklä- (كوكلا) – kāflar kāf-e ’arabîdur, «amr edüp sāz čal-» ma’nāsïnadur-ki, «Maḥzan» Mīr Ḥaydarda maqāla-i avvalda gelür-ki, bayt:

Türk surūdïnï tüzük birlä tüz,
Yaxšï ayalγu bilä köklä qobuz.

Va yana «Ğarāyibu-ṣ-ṣiγar»da gelür-ki, bayt:

Dedim tarāna-e jān yaxšï muṭribā sen xūd,
Firāq sāzï tüzüp öltürür kökin čaldïŋ.

Kök öldürmäk vaznïnda va āhaŋïda čaldük demäkdür (DDT.369).

Yoki shu ma’nodagi boshqa bir so‘z:

köktä- (كوكتە) – bu daxï «amr edüp (sāz) čal-» demäkdür-ki, «Ğarāyibu-ṣ-ṣiγar»da gelür (DDT,369).

Lug‘at va grammatik asarlarda turkiy so‘z o‘zaklarining yo‘g‘on-ingichkaligi haqidagi qarashlar. O‘tmishdagi tilshunoslar o‘z asarlarida turkiy tilda mavjud bo‘lgan uyg‘un tartib-qoidalarga katta e’tibor qaratganlar. Jumladan, Mirzo Mehdixon o‘zining «Maboniu-l-lug‘at» asarida turkiy tildagi tovushlar uyg‘unligi hodisasini nihoyatda to‘g‘ri baholagan edi. Chunonchi, u turkiy fe’l shakllari to‘g‘risida bilim bera turib, shunday yozadi: Fe’l shakllari ishlatilishiga ko‘ra ikki turdan iborat: *γayn, qāf* li shakllar va *kāf* li shakllar. Bu har ikki tur grammatik qoida va ixtiyoriylik yuzasidan bo‘lmay, eshitilish va e’tibor yuzasidandir. Farog‘iy o‘z asarida *qāf* va *kāf* ning ishlatilishi ixtiyoriy deb yozgan. Tole Hiraviy ham *alγučï* ma’nosini tushuntirganda, ixtiyoriy ravishda hozirgi zamon sifatdoshiga *γayn* yoki *kāf* orttiriladi, deb yozadi: *qïlγučï, bilgüči* kabi. Lekin har ikkisining so‘zi haqiqatdan xoli hamda nuqson va kamchilikka ega. Chunki *qïl-* so‘zi buyruq fe’li bo‘lib, qattiq [ya’ni yo‘g‘on deyilmoqchi – Q.S.] o‘zaklidir va shuning uchun uning barcha fe’l shakllari *qāf* yoki *γayn* bilan yasaladi: *qïlmaq, qïlγay, qïlγučï* kabi va hokazo. *Bil-* yumshoq [ya’ni ingichka deyilmoqchi – Q.S.] o‘zakli bo‘lib, uning fe’l shakllari [*k*] yoki [*g*] bilan keladi: *bilmäk, bilgäy, bilgüči* kabi va hokazo (MBL[11],11–12).

Yoki olim boshqa bir yerda ana shu hodisa bilan bog‘liq muhim bir qoidani keltiradi. U yozadi: Bilki, masdarlarning qattiq va yumshoq o‘zakli bo‘lishi va masdar ismlari samoiydir, ammo ularning fe’l shakllarining yasalishi qiyosiydir, ya’ni masdarlar qattiq o‘zakli bo‘lsa, albatta, uning (yasama) fe’l shakllari *qāf* va *γayn*, yumshoq o‘zakli bo‘lsa, *kāf* bilan yasaladi (MBL,20).

Shu o‘rinda o‘quvchida savol tug‘diradigan masala bo‘yicha ham javob beradi:

Savol: Nima uchun *ilmäk*, ya’ni «band, dom» yumshoq o‘zakli-ku, *ïlmaq*, ya’ni «ushlamoq, tutmoq, olmoq»; *ïlïnmaq*, ya’ni «giriftor bo‘lmoq» kabi yasama fe’l shakllari esa qattiq o‘zaklidir?

Javob: *ilišmäk*, ya’ni «band bo‘lmoq» *ilmäk* ning masdari bo‘lib, yumshoq o‘zaklidir. *Ïlmaq* va *ïlïnmaq* esa qattiq o‘zakli bo‘lib, boshqa masdarlardir, lekin ma’nolari bir-biriga yaqindir (MBL,20).

[11] MBL – Mirzo Mehdixon. Maboni ul-lug‘at. Forsiydan Z. Umarov tarjimasi. Nashrga tayyorlovchi X.Alimova. – Toshkent, 2008.

Qizig‘i shundaki, Tole Imoniy «Badoeu-l-lug‘at»da «ixtiyoriy ravishda hozirgi zamon sifatdoshiga [*γ*] yoki [*g*] orttiriladi» deb yozgani bilan, o‘z lug‘atida turkiy so‘zlarning o‘qilishini va yozilishini to‘g‘ri bergan.

Eski lug‘atlar «chig‘atoy tili» matnlarida ishlatilgan so‘zlarning ma’nolarini ochiqlashga bag‘ishlangan bo‘lib, misollar Mavlono Lutfiy, Mir Haydar, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur singari ulug‘ adiblarning asarlaridan saylab olingan. Bular ma’nosi har kimsaga, ayniqsa, boshqa til egalari, turkiyning boshqa lahjalarida so‘zlovchi kishilariga, xususan, o‘g‘uzlarga tushunarli bo‘lavermagan, o‘ziga xos ma’noli yoki «chig‘atoy tili»da muayyan anglamda ishlatilib, keyinchalik unutilgan so‘zlardir.

Yana bir qirrasi, klassik o‘zbek tili, xususan, Navoiy asarlari uchun tuzilgan o‘tmishdagi lug‘atlarning aytarli bari arabcha yo forschadan o‘zlashgan so‘zlar asosida emas, balki sof turkiy so‘zlar bo‘yicha tuzilgan bo‘lib, ularda ma’nosini anglab olish qiyin so‘zlar, ularning o‘qilishi, ma’nolari yaxshi ochib berilgan. Shu tariqa klassik asarlarning lug‘at tarkibi o‘ta bay, badiiy mazmunga ega ekanligi, semantik imkoniyatlarining kengligi ko‘rsatib berilgan. Klassik asarlar bo‘yicha lug‘at tuzishni o‘shalardan o‘rganmak kerak.

Eski lug‘atlar ilmiy asarlar sifatida o‘z davri tilshunosligining bilim darajasi va mavqeini belgilab turgan. Lug‘atlarda so‘zning ma’nosi, shakli va uning talaffuzi, harflarning vazifalari bilan bog‘liq tilshunoslikka tegishli butun boshli atamalar tizimi ishlab chiqilgan edi.

Arab yozuvli turkiy matnlarda [k]–[g], [č]–[j], [b]–[p] tovushlari yozuvda bir xil harflar bilan ifodalangan. Lekin matnda bularni farqlashga ehtiyoj bo‘lgan. Kotiblar, lug‘at tuzuvchilar doimo buning yechimini izlashga uringan; ular o‘z lug‘atlarida bu tovushlarni farqlashda turli grammatik atamalardan foydalanganlar. Klassik asarlar bo‘yicha tuzilgan lug‘atlarda jarangsiz [k] uchun «arabcha kāf» (kāf-e ’arabî), jarangli [g] uchun esa «ajamcha kāf» (kāf-e ’ajamî); [j] uchun «arabcha jīm» (jīm-e ’arabî), jarangsiz [č] uchun esa «ajamcha jīm» (jīm-e ajamî) yoki «forscha jīm» (jīm-e fārsî); jarangli [b] uchun «arabcha bā» (bā-ye ’arabî), jarangsiz [p] uchun esa «ajamcha bā» (bā-ye ’ajamî) atamalari ishlatilgan va b.

«Chig‘atoy tili» bo‘yicha tuzilgan lug‘atlar temuriylar davri yozma adabiy tilida, xususan, Alisher Navoiy asarlari tilida qo‘llangan so‘zlarning ma’nosini aniqlashda, klassik matnlarni tushunish va ularni talqin qilish, shular bilan bir qatorda, ularni to‘g‘ri talaffuz qilishda muhim ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. ‘Ali Şir Nevayi. Muhakemetü’l-luğateyn (İki Dilin Muhakemesi). Hazırlayan F. Sema Barutçu Özönder. – Ankara, 1996.
2. «Lug‘at-i Navoiy»ning Eronda saqlanayotgan nusxasi: Kitābxānā-i majlis-i shā’rā-yi ’ilmî; 7981-ko‘rsatkichli qo‘lyozma.
3. «Qutadg‘u bilig» so‘zligi. Tuzuvchi Q. Sodiqov. – Toshkent, 2020.
4. Alisher Navoiy. Muhokamatu-l-lug‘atayn. Qosimjon Sodiqov tahlili, tabdili va talqini ostida. – Toshkent, 2017.
5. Dictionnnaire Djaghatai-turc. V. de Viliaminof-Zernof. – SPb., 1869.
6. Kaşgarlı Mahmud. Dīvānü Lūgati’t-Türk. Tıpkıbasım / Facsimile. – Ankara, 1990.
7. Mirzo Mehdixon. Maboni ul-lug‘at. Forsiydan Z.Umarov tarjimasi. Nashrga tayyorlovchi X.Alimova. – Toshkent, 2008.
8. Mirzo Mehdixonning «Sangloh» asari qo‘lyozmasi: Fransiya Milliy kutubxonasi: Suppl.Turc.1000.
9. Muhokamatu-l-lug‘atayn. Ilmiy-tanqidiy matn. Tuzuvchi va nashrga tayyorlovchi Y.Tursunov. – Toshkent, 2021.
10. Sodiqov Q. Eski o‘zbek yozma adabiy tili. – Toshkent, 2020.
11. Tole Hiraviy. Badoe’u-l-lug‘at. Vengriya Fanlar akademiyasi kutubxonasida saqlanayotgan Ms. Perzsa Qu 4 ko‘rsatkichli qo‘lyozma.

ALISHER NAVOIY VA RIZOIY PAYVANDIY HIKOYALARI

Shafoat HASANOVA,
Oriental universiteti "Sharq tillari" kafedrasi
prof. v.b., filologiya fanlari doktori

Annotatsiya. O‘zbek adabiyotshunosligida «Mantiq ut-tayr» turidagi dostonlarni o‘rganish Alisher Navoiyning «Lison ut-tayr» dostonini tadqiq qilish masalasi bilan bog‘liq bo‘lib, har doim mutaxassislarning diqqat markazida turgan. «Mantiq ut-tayr» mavzusida turkiy tilda qalam tebratgan ijodkorlardan yana biri Mavlono Xoja Qozi Payvandiy Rizoiy (XVIII asr) bo‘lib, u yaratgan «Qush tili» dostonining hozircha yagona deb hisoblanib keluvchi qo‘lyozmasi 127-inventar raqami ostida Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi fondida saqlanib kelmoqda.

Rizoiy Payvandiy bu dostonni yaratishda Jaloliddin Rumiy, Fariduddin Attor, Abdurahmon Jomiy asarlaridan foydalanish bilan birga, Alisher Navoiyning «Lison ut-tayr» dostonini ham sinchiklab o‘rganib chiqqan. Chunki Rizoiy dostoni bilan Alisher Navoiy mazkur asarining qiyosi shuni ko‘rsatadiki, har ikki dostondagi qator hikoyalar syujetida bir-birlariga yaqinlik va aksar o‘rinlarda aynan bir hikoyaning har ikkala ijodkorga xos bo‘lgan badiiy talqinning guvohi bo‘lamiz.

Kalit so‘zlar: *Alisher Navoiy, Rizoiy Payvandiy, «Lisonu-t-tayr», «Qush tili», doston, hikoya, g‘oya, mazmun, shakl, ijodiy talqin.*

Аннотация. Изучение произведений типа «Мантику-т-тайр» в узбекской литературе связано с изучением произведения Алишера Навои «Лисон ут-тайр» и всегда находилось в центре внимания специалистов. Мавлоно Ходжа Кази Пайванди Ризой (XVIII век) – один из авторов, писавших на тюркском языке на тему «Мантику-т-тайр». Единственная рукопись созданного им произведения «Птичий язык» хранится в фонде Государственного музея литературы имени Алишера Навои под инвентарным номером 127.

При создании этого произведения Ризаи Пайванди использовал произведения Джалалиддина Руми, Фаридуддина Аттора, Абдурахмана Джами, а также внимательно изучил «Лисону-т-тайр» Алишера Навои. Потому что сравнение произведения Ризаи с творчеством Алишера Навои показывает, что в сюжете серии рассказов в обоих произведениях мы видим

близость друг к другу и в большинстве мест художественную интерпретatsiю одного и того же сюжета, характерную для обоих художников.

Ключовые словая: *Алишер Навои, Ризои Пайванди, «Лисон ут-тайр», «Птичий язык», эпос, рассказ, идея, содержание, форма, творческая интерпретация.*

Abstract. In Uzbek literature, the study of epics of the type «Mantiq ut-tayr» is associated with the study of Alisher Navoi's epic «Lison ut-tayr» and has always been in the spotlight of experts. Mavlono Khoja Qozi Payvandi Rizoi (XVIII acp) was one of the authors who wrote in Turkish on the theme of «Mantiq ut-tayr». The only manuscript of the epic «Language of the Bird's» created by him is kept in the fund of the State Museum of Literature named after Alisher Navoi under inventory number 127.

In creating this epic, Rizai Payvandi used the works of Jalaliddin Rumi, Fariduddin Attor, Abdurahmon Jami, as well as carefully studied Alisher Navoi's epic «Lison ut-tayr». Because the comparison of this work of Alisher Navoi with the epic of Rizoi shows that in the plot of a number of stories in both epics we see the closeness to each other and in most places the artistic interpretation of the same story, which is characteristic of both artists.

Keywords: *Alisher Navoi, Rizoi Payvandi,* «Lison ut-tayr», *«Language of the Bird's», epic, story, idea, content, form, creative interpretation.*

Mavlono Rizoiyning «Qush tili» dostoni Alisher Navoiyning «Lison ut-tayr» asari kabi g‘oyaviy-tematik yo‘nalish jihatidan sermazmun bo‘lib, unda inson ma’naviy kamolotiga asosiy urg‘u berilgan. Bu vazifa ayniqsa asarning o‘ziga xos badiiy mazmun va shaklga ega bo‘lgan jihatlarida yaqqol ko‘zga tashlanib turadi.

Rizoiyning «Qush tili» dostonining yaratilishida «Mantiq ut-tayr» turkumidagi dostonlar va ularning paydo bo‘lishida Sanoiy, Ibn Sino, Shahobiddin Suhravardiy, Ahmad G‘azzoliy kabilarning asarlari bevosita ilk manba vazifasini o‘tagan bo‘lsa, Islom dini tarixi, Qur’oni Karim va hadislar asarning o‘ziga xosligi, syujet va kompozitsion tuzilishining betakrorligini ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qilgan. Qolaversa, dostonning o‘ziga xos ijodiy talqini, hikoyalar va ularda ilgari surilgan g‘oyalarning yangicha badiiy ifodasi – bularning hammasi Rizoiy badiiy tafakkurining ijod mahsuli, deyishimizga asos bor. Dostonning g‘oyaviy yo‘nalishi va unga kirgan hikoyalarning aksariyati Sharq xalqlarining qadimiy afsona va rivoyatlarining

(«Tojir va uning to‘tisi», «Shukasaptati» (hind), Rustam, Zol, Zahhok, «Shohnoma», «Qazosi yetgan kishi», «Fil va to‘rt ko‘r», «Masnaviyi ma’naviy» (eron), «Qays va Layli» (arab), «Nil daryosining o‘zani haqidagi hikoya» (arab), «Abraham» (yahudiy), «Jinlar haqidagi hikoya» (xitoy) va hokazo) shoir ijodxonasida o‘zining qayta sayqalini topib, o‘zgacha talqin va g‘oyalar bilan dunyoga kelgan ijod mahsuli ekanligidan dalolat beradi. Shu nuqtai nazardan Rizoiy «Qush tili» dostonining yaratilishida o‘zidan oldingi salaflarining adabiy an’analarini davom ettirish bilan birga, o‘z davridagi hayotiy voqealar jarayonida vujudga kelgan kuzatishlaridan unumli istifoda etib, ularni doston mavzusi bilan mohirona bog‘laganligini ham qayd etib o‘tish lozim.

Tariqat yo‘liga kirgan har bir solikning piri bo‘lmog‘i asosiy shartlardan biridir. Pir va murid o‘rtasidagi o‘zaro so‘fiyona aloqalar va pirning muridlarning axloqiy tarbiyasiga alohida e’tibor berganligi to‘g‘risida juda ko‘p ajoyib hikoyalar va rivoyatlar mavjud. Shu mavzuni yoritishga Alisher Navoiyning «Lison ut-tayr» dostonida ham alohida ahamiyat berilgan. Shunday hikoyalardan biri Shayx Turob Naxshabiy va uning bir muridi haqidagi tamsil diqqatga sazovordir[12]. Hikoyada solik uchun illatli hisoblangan tashqi go‘zallik, zebu ziynat va go‘zal liboslarga haddan tashqari ko‘ngil qo‘ygan murid bu nomaqbul yo‘ldan qaytarilib, hidoyat yo‘liga kirgiziladi. Shu mazmunga yaqin hikoya Mavlono Rizoiy asarida ham keltiriladi. Unda Sulton Boyazid Bistomiyning muridi pirga «Sizdek ulug‘ zotning shogirdi bo‘la turib, menga hech g‘ayb eshigi ochilmadi» mazmunidagi so‘zlar bilan shikoyat qiladi. Sulton Boyazid Bistomiy muridiga: «Bas, senga to‘g‘ri yo‘l shuki, zohiringni devonavor qilib, botinan nafs g‘uli bilan jang qil!» – deb unga hidoyat yo‘lini ko‘rsatadi.

Ko‘rinib turibdiki, har ikki hikoyada ham asosiy g‘oya zohiran devonavor, ruhan musaffo bo‘lmoqqa undalmoqda. Ular orasidagi farq shuki, Navoiy hikoyasida bu maqsad o‘git-nasihatlarni qulog‘iga olmagan muridni keskin choralar, ya’ni, so‘yilgan qo‘yning ichak-chavoqlarini boshiga ko‘tartirib, bozorda aylantirish orqali tavbasiga tayantirilsa, Rizoiyda Sulton Boyazid Bistomiyning muridiga qilgan o‘git-nasihatlari orqali erishiladi. Alisher Navoiy bu hikoyani bir qushning uning mijozida turli-tumanlikka moyillik kuchliligi va bu mijozni bir xil to‘g‘ri ohangga solish uchun yo‘l-yo‘riqlar so‘rab, bergan savoliga Hudhud javobi va uning tamsili sifatida keltiradi. Mavlono Rizoiy esa mazkur hikoyani talab iqlimi bobida keltirganligi ham bejiz emas.

Shu o‘rinda Rizoiy Payvandiyning Qur’oni karimdagi «As’hobi kahf»[13] voqeasini bayon etib, uni talab iqlimi hikoyasiga xulosa sifatida keltirganligini

[12] Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. 12-том. – Тошкент.: Фан, 1996. – Б. 152.

[13] As’hobi kahf – G‘or sohiblari. Ular yetti birodar bo‘lishib, Haq ta’ologa kuchli e’tiqod qo‘yishgan va zolim kofir podshohi Daqyonus zulm jazosidan qo‘rqib g‘orga berkinib olishgan. Ularga bir it ham sadoqat bildirib (13-

alohida ta’kidlab o‘tmoq zarurdir. Unda iymon yo‘lidagi fidoiylik haqida so‘z boradi. As’hobi kahf Alloh ta’olo irodasi bilan o‘z iymonlarida 300 yildan ortiq sobit turadilar. Rivoyatga ko‘ra, ularni yashiringan g‘orlarida Qitmir nomli it birga qo‘riqlab turgan ekan.

Rizoiy bu keltirilgan iqtibosdagi it – Qitmir obraziga o‘zining alohida e’tiborini qaratib, Kahf surasining 22 oyatidan[14] yana bir misol keltirib, itning tavsifi orqali talab iqlimiga keltirilgan hikoyaga ibratomuz yakun yasaydi. Unda it hidoyat ahliga xizmat qilganligidan odam o‘rnida ko‘riladi. Bu g‘oya quyidagi misralar orqali o‘zining yorqin ifodasini topgan:

Kimki tajrid ahliga hamdam bo‘lur,
Garchi it bo‘lsakim, ul odam bo‘lur.
Itki Kahf as’hobig‘a hamdam edi,
Haq alardin oni oltinchi dedi[15].

Rizoiy Payvandiy fikriga ko‘ra, Talab iqlimini bosib o‘tgan solik qalbida ishq uchqunlari paydo bo‘ladi. Rizoiy Parvardigorning iroda sifati haqida so‘z yuritib, Hazrati Muhammad (s.a.v.)ning hadislarini keltiradi. Bu hadisni Alisher Navoiy “Lison ut-tayr” asarining na’t qismida bayon qilgan. Qiyoslang:

Alisher Navoiy:

Chun xaloyiqdin oni mumtoz etib,
«Kuntu kanzan» sirrig‘a hamroz etib.
Boshig‘a qo‘yub hidoyat tojini,
Qismati aylab sharaf me’rojini[16].

Rizoiy:

Ya’ni olam kavnig‘a uldur sabab,
Kuntu kanzandur munga nassi ajab.
O‘z zuhurin sevdi ul ganjin xafiy,
Istadi izhor etarga sabr fiy.
Bas yaratdi barcha mavjudotni,
Toki bilgay har biri ul Zotni[17].

Mazkur har ikki asarda keltirilgan «Kuntu kanzan maxfiyan fahbabtu an u’rafa» hadisning mazmuni «Yashiringan xazina edim, o‘z zuhurimni namoyon qilmoqni iroda qildim» mazmunini anglatadi. Shu o‘rinda shuni ham ta’kidlab o‘tish kerakki, Rizoiy «Qush tili» dostonida Qur’oni karim va hadislardan juda

---

qo‘shilgan. Ular 309 yil Xudoning qudrati bilan uxlashgan. It esa, mijja qoqmay, ularni qo‘riqlagan ekan. (Боситхон бин Зоҳидҳон. Жавоҳир ул-ҳикоя. – Тошкент., 2004. – Б. 214).

[14] Kahf surasi 22 oyat. Mazmuni: «(Boshqalari) beshta bo‘lib oltinchilari itlaridir» deb g‘aybga tosh oturlar (taxminan gap soturlar)».

[15] Мавлоно Хожа Қози Пайвандий Ризоий. Қуш тили. –Тошкент, 2009. – Б. 277-278.

[16] Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. 12 том. – Тошкент: Фан, 1996. – Б. 9.

[17] Мавлоно Хожа Қози Пайвандий Ризоий. Қуш тили. –Тошкент, 2009. – Б. 280.

ko‘p misollar keltiradi va muhimi o‘quvchiga tushunarli bo‘lishi uchun iqtiboslarning o‘zbek tilidagi mazmunini ham bayon etadi.

Rizoiy ishq iqlimi bobiga Tommat ul-kubro laqabli Murshid haqidagi hikoyani keltiradi. Alisher Navoiy esa Asma’iy ismli kishining Hajga qilgan safari haqidagi hikoyani ishq vodiysi bobiga misol tariqasida bayon qiladi. Lekin bu hikoyalarda bir-biriga yaqin jihatlar va hech bir o‘xshashlik yo‘q bo‘lishiga qaramay, ulardagi g‘oya bir mazmunga xizmat qilganligi bilan diqqatga sazovordir.

Alisher Navoiy dostonining na’t qismida dunyodagi hamma narsalarni yaratishdan maqsad inson ekanligini quyidagi misralar orqali bayon qilgan bo‘lsa:

Ofarinishdin qilib inson g‘araz,
Oni aylab xalq ichinda be avaz.
Ko‘nglin oning maxzani irfon qilib,
Ul tilism ichra o‘zin pinhon qilib,
Rozi maxfiy ganj o‘lub bu turfa jism,
Sun’idin ul ganj hifzig‘a tilism[18].

Rizoiy buni quyidagicha ifodalaydi:

Kim avvalda maqsudi umur,
To tamom o‘lmas umur, etmas zuhur.
Chun g‘araz Odamdin avval uldurur,
Lojaram, oxirda zohir-o‘qdurur.
Uylakim, Odam jahondindur g‘araz,
Ul guzini olam ondindur g‘araz.
Bas, nechuk Odam jahondin so‘ngradur,
Ul guzida xilqat ondin so‘ngradur.
Bordurur aql ollida beishtiboh,
So‘ngra kelmaklik kamolig‘a guvoh.[19]

Har ikkala shoir Fariduddin Attorning badiiy ijodkorligiga yuqori baho beradi. Har ikki san’atkor dostonlarida inson va vahdati vujud konsepsiyasini majoziy uslubda yoritib berish masalasini hal qilish muammosi yotadi. Har ikkala dostonning kompozitsion tuzilishi va g‘oyaviy mazmuni va qahramonlar tizimi mazkur maqsadni amalga oshirishga qaratilganligi bilan bir-biriga yaqindir. Lekin buni har ikkala ijodkor o‘ziga xos falsafiy qarashlar va badiiy-estetik prinsiplar asosida hal qiladilar.

Rizoiyning «Qush tili» asarida ko‘proq diniy-falsafiy yo‘nalish ustunlik qilsa, Navoiyda ijtimoiy-falsafiy qarashlar uning o‘ziga xosligini belgilab turadi.

[18] Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. 12 том. – Тошкент: Фан, 1996. – Б. 9.
[19] Мавлоно Хожа Қози Пайвандий Ризоий. Қуш тили. –Тошкент, 2009. – Б. 44-45.

Rizoiyning «Ul kishikim kelturur iymon ba g‘ayb, bu anga hodiy erur beshaku rayb» deyishidan «Qush tili» dostonining solik uchun rahnamo-dastur vazifasini o‘tashi uchun yaratilganligi fikrimizning yana bir isboti bo‘la oladi. Buning yana bir isboti Rizoiy o‘z oldiga qo‘ygan maqsadni amalga oshirishda Qur’oni karim va hadislardan juda ko‘p iqtiboslar keltirib, ularning sharhiga katta e’tibor qaratadi. Hikoyalarning aksar qismi ham diniy-falsafiy ruhda yozilganligi bu dostonning diniy-falsafiy masalalarni hal qilishga qaratilganligiga dalolatdir. Shu bois bo‘lsa kerak, Alisher Navoiy dostonida keltirilgan hikoyalar, Rizoiy dostonidagi hikoyalardan o‘z mohiyati bilan farq qilib turadi. Rizoiy Payvandiyning mazkur Tammat ul-kubro laqabli murshidning oldiga bir qariyaning kelib ishqu dardi holini bayon qilganligi haqidagi hikoyadan g‘araz qariyaning tavbasi-yu tazarrulari qabul qilinib, uning Gulgun ismli Siyiston shohi qiziga bo‘lgan majoziy ishqining haqiqiy ishqqa aylanganligi mumtoz adabiyotda keng tarqalgan Farhod bilan Shirin, Layli va Majnun dostonlariga qilingan murojaatlar, shuningdek Sulaymon alayhissalomning Bilqisga bo‘lgan muhabbati orqali o‘ziga xos qilib ochib berishdir. Rizoiy Payvandiy ishq iqlimi ta’rifini yakunlab, ma’rifat iqlimi bayoniga o‘tadi.

Rizoiy ta’kidlaganidek, Alloh taoloni bilish nafs ma’rifati bilan chambarchas bog‘liqdir. Chunonchi, hadisda shunday deyilgan: «Man arafa nafsahu faqad arafa rabbahu»[20].

Mazmuni: O‘zini bilgan Xudoni biladi. Bunda u Zotning ilohiy sifatlari ayon bo‘ladi va shundagina Mutlaq borliq Subhonahu taolo ekanligi aniq ma’lum bo‘ladi.

Rizoiy bu yo‘llarni har bir solik o‘ziga tasavvur qilishi lozimligi haqida gapirib, qadimgi hind va mumtoz adabiyotda mavjud bo‘lgan hikoyaga murojaat etadi. Unda ko‘zlari ko‘r bo‘lgan to‘rt ojiz fil a’zolarini paypaslab, uni o‘zlariga tasavvur qilganliklari haqida gap boradi. Rizoiy bu hikoyani o‘ziga xos tarzda ifodalab beradi.

Alisher Navoiyning «Lison ut-tayr» dostonida bu rivoyat Rizoiyniki singari ma’rifat vodiysi vasfiga tamsil sifatida keltiriladi va unda hind hikoyasi o‘zining yangi bir talqini namunasiga aylantirilgan. Hind hikoyasida ko‘zi ojiz yo‘lovchilar filning to‘rt a’zosini paypaslab, xartumini ilonga, oyog‘ini ustunga, qornini meshga, dumini kema arqoniga o‘xshatgan bo‘lsalar, Navoiy ham fil a’zolarini o‘ziga xos tarzda bayon etish bilan birga filning boshqa a’zolarini ham tavsiflab, uni bir butunlikda tasvirlab, ko‘rlarning tasavvurlarini jamlaganda fil obrazi hosil bo‘lishini qayd etadi va soliklarning ma’rifat maqomiga turli-tuman

[20] Фарҳанги истилоҳоти ва таъбироти урфоний. – Техрон, 1303. – Б. 814.

yo‘llar orqali bosib o‘tish imkoniyatlari mavjudligini ramziy ishoralar orqali o‘ziga xos badiiy bo‘yoqlar orqali ochib berishga erishadi.

Jaloliddin Rumiyning «Masnaviyi ma’naviy» asarida bu hikoya «Filning shakl-u shamoyili ustida ixtilof etishgani» sarlavhasi ostida keltirilgan. Unda fil bir qorong‘u uyga kiritiladi va unga kirganlar filning xartumini paypaslab tarnovga, qulog‘ini bahaybat yelpig‘ichga, oyog‘ini ustunga, ustini xontaxtaga o‘xshatishadi. Ko‘rinib turibdiki, Jaloliddin Rumiy bu hind hikoyasini asar talablaridan kelib chiqib, o‘ziga xos tarzda talqin qilgan[21].

Alisher Navoiy ham, Rizoiy ham bu hikoyadagi fil a’zolarini hind manbaidagi tavsifdan o‘zgacharoq tarzda bayon qilishga harakat qilganlar. Shu bois ham har ikkala ijodkor bu qadimiy hikoyani o‘ziga xos tarzda yoritib berganlar. Masalan, Alisher Navoiy fil xartumini hind hikoyasidagi kabi kulcha bo‘lib yotgan ilon sifatida emas, balki bo‘rttirib ko‘rsatish va o‘quvchiga ta’sirliroq tasvirlash maqsadida uni ajdarho qiyofasida, dumini kema arqoniga emas, balki zaharli bir ilonga o‘xshatishi hikoyaning o‘ziga xosligini ta’minlashga qaratilgan ijod mahsuli sifatida baholanishga loyiqdir. Rizoiy ham shunday ijodiylikka erishish maqsadida fil xartumini karnayga, oyog‘ini esa bir ajoyib oliy ustunga o‘xshatadi va hokazo.

Alisher Navoiy bilan Rizoiy dostonlaridagi bu maqom tavsifidagi yana bir muhim monandlik shundan iboratki, har ikkala dostonda ham iymon bilan kufr, faqirlar bilan mulk sohiblari qiyoslanadi. Iymon ahliga ma’rifat zarur bo‘lsa, kufr ahliga jaholat, kufr ahli «Lot» butiga e’tiqod qilsa, iymon ahlining fikru yodi Alloh bilandir. Bu g‘oya har ikki dostondagi ma’rifat maqomining ta’rifiga asos qilib olingan. Har ikkala asar o‘rtasidagi ularni farqlab turadigan jihatlar ham bor. Rizoiy bu iqlimni bayon qilishda qur’oniy tamsillarga tez-tez murojaat etadi. Rizoiy Ma’rifat iqlimi tavsifida Rasuli Akramning «Biz seni va ma’rifating haqqini bilmadik», - degan hadisiga va Al-Isro surasidagi «Kimki bu (dunyoda) ko‘r (gumroh) ekan, bas, u oxiratda ham ko‘r va butunlay yo‘ldan ozuvchidir»[22] mazmunidagi 72 oyatni keltirib, uni nazm orqali sharhlab beradi va bu iqlimga tamsil sifatida Shayx Kirmoniy (r.a.) hikoyasini keltiradi.

Rizoiy Payvandiy Tavakkul to‘shasiga misol sifatida umri qazosiga yetgan bir banda haqida hikoya keltiradi. Bu hikoya Alisher Navoiyning «Lison ut-tayr» asarida ham bor. Unda qushlarning savol-javobi oralig‘ida qushlardan birining yo‘l asnosida halok bo‘lishi mumkinligini sabab qilib safardan voz kechganidan so‘ng Hudhudning javobiga misol tariqasida keltiriladi. Navoiyning bu

[21] Мавлоно Жалолиддин Румий. Маснавийи маънавий. III жилд. Форсийдан Жамол Камол таржимаси. – Тошкент, 2003. – Б. 114.

[22] Абдулазиз Мансур. Қуръони карим маъноларининг таржимаси. – Тошкент, 2001. – Б. 289. Ал-Исро сураси, 72-оят.

hikoyasida qazo yetganda o‘lim barhaq ekanligi g‘oyasi ilgari surilgan. Rizoiy ham mazkur hikoyaning biroz o‘zgartirilgan variantini keltiradi. U Qur’oni karimning Moida surasi 23 oyatidagi Tavakkul haqidagi iqtibosni keltirib tavakkul to‘shasiga quyidagicha izoh beradi:

Chun tavakkul qilg‘on ul basturur,
Bas tavakkul qilmag‘on nokasturur,
Chun taraddud birla daf’ o‘lmas qazo,
Bas kerakdur munda taslimu rizo.

Bu xulosani yanada kuchaytirish maqsadida mazkur hikoyani keltiradi. Taqdir ishorasi bilan qazosi yetgan bir kishining jonini Azroil ertasi kun Hind elida olmog‘i lozim ekan. U esa Hindistondan ancha olisda. Bu bandaning bir kecha-kunduz ichida Hindistonda bo‘lishiga ko‘zi yetmagan Azroil unga g‘azab bilan qarab uni tahlikali holatga soladi. Banda qattiq iztirobga tushib, o‘limdan qutulmoq maqsadida Sulaymon payg‘ambardan uni Hind o‘lkasiga yeldirmog‘ini iltijo qilibdi. Payg‘ambar uning iltimosini qabul aylab, shamolga amr qilib, bir zumda Hindistonga uchirib yuboribdi. Rizoiyning hikoyasi shu joygacha Alisher Navoiy keltirgan hikoya bilan o‘xshash. Keyingi voqealar Alisher Navoiyda yo‘q. Ertasi kuni Ezidi[23] taolo Azroilni bu bandaga qazo muddati yetmasdan burun unga g‘azab bilan nazar solgani uchun unga tanbeh beribdi va uning dargohida taqdir va qadar barhaq ekanligini ta’kidlabdi. Bu voqeani shoir quyidagicha tasvirlaydi:

Ne isha qilding yo‘q ergach xayru shar,
Ul musulmong‘a g‘azab birla nazar?
Dedi oni ko‘rdimu qildim tonga,
Bas taajjubdin nazar soldim anga.
Kim manga hukm erdikim ul kun oning,
Ruhini Hind ichra qabz etgay aning,
Bas ajab qoldim oni munda ko‘rub,
Kim bu kunda Hindga yetmas yurub.

Bu hikoyaga Rizoiy quyidagicha yakun yasaydi:

Lojaram chun sa’yu jahdu iktisob,
Daf’ qilmasdur qazoni hech bob.
Bas tavakkuldur boridin xo‘broq,
Barchadin taslimdur mahbubroq.

Alisher Navoiy dostonidagi bu hikoya bilan Rizoiy keltirgan hikoyani qiyoslar ekanmiz, har ikkala asardagi mavzu, hikoyadagi qahramonlar silsilasi va

[23] Qadimgi turkiy manbalarda shu atama “tangri” ma’nosida qo‘llanilgan

ularning voqealar rivoji va yakunidagi ishtiroki va hatto qissadan hissa, ya’ni, xulosasi ham bir-biriga monand ekanligini ko‘ramiz. Har ikkala asar qazosi yetgan qahramon, uning jonini olmoq uchun kelgan farishta Azroil, uning qahr bilan bandani qo‘rqitishi, o‘lim xavfidan qo‘rqqan bu bandaning Sulaymon payg‘ambardan uni Hindistonga uchirib yuborishni iltimos qilganligi va nihoyat uning Hind eliga kelib tushib o‘z qazosini o‘zi bajo keltirganligi o‘ziga xos badiiy uslublarda ifodalangan. Navoiyda bu hikoya qushlardan birining bu safarda halok bo‘lishi mumkinligiga javoban yozilgan bo‘lib, ajali yetgan inson uchun u qayerda bo‘lmasin o‘lim barhaq ekanligiga ishora qilinsa, Rizoiyda bu hikoya uchinchi to‘sha-tavakkulga misol tariqasida keltiriladi. Shoir bu to‘shada qushlarga yo‘lning azobu uqubatlari haqida gapirib, yo‘l asnosida Ibrohim alayhis salom kabi o‘tdan kechmoq, Foruq singari zahar yutmoq-qisqasi yo‘l qiyinchiliklariga bardosh berib, maqsad sari tavakkul qilib intilmoq kerakligini bayon etadi.

Demak, bu hikoyadan o‘z yo‘lini tanlagan solik barcha azob-u uqubatlarga bardosh berishi, maqsad sari intilmog‘i, hamisha Allohga tavakkul qilib uning visoliga erishishda sa’y-harakat qilmog‘i vojib ekan, degan yakuniy xulosa chiqadi.

Shuni ham alohida ta’kidlab o‘tish joizki, inson taqdirdagi qazo hukmidan qochib qutulolmasligi haqidagi mazkur hikoya Rashid Jumaev ta’kidlaganidek[24], Jaloliddin Rumiyning «Masnaviy»sida ham mavjud. Alisher Navoiy bu hikoyani o‘z asarida o‘ziga xos badiiy uslubda bayon qilgan. Buyuk mutafakkir bu hikoya mazmunini yana kuchaytirib, uni o‘zining falsafiy-estetik qarashlariga moslagan va asosiy diqqat-e’tiborni inson o‘zidagi nafs va hirsni bog‘lamoqqa chorlashi kerak, degan xulosaga keladi.

Xulosa. Alisher Navoiyning «Lison ut-tayr» dostonida asosiy qoliplovchi hikoya ichida hikoyalar keltirish usuli qo‘llanilgan. Mavlono Rizoiyning «Qush tili» dostonida ham shu usul keng tadbiq etilgan. Lekin Mavlono Rizoiy dostonining kompozitsion tuzilishida Navoiynikidan bir oz farqli jihati shundan iboratki, ijodkor qoliplovchi hikoyalar ichidagi hikoyalarga Qur’oniy iqtiboslar va hadislarni ham kiritib, ularni o‘sha hikoyalarning ajralmas qismiga aylantirgan.

Rizoiy Payvandiy «Qush tili» dostonida jami 87 ta hikoya va iqtiboslar keltirib, ularni doston tarkibiga kirgan tamsillar orqali tasdiqlab borish yo‘lini tutadi. Bu iqtiboslarning aksariyati ma’lum bir tasavvufiy tushunchalarni yorqinroq ochib berishga bag‘ishlangan hikoya va rivoyatlarning g‘oyaviy mazmunini ifodalashda muhim o‘rin tutib, asar syujeti va kompozitsion tuzilishida o‘ziga xos vazifani bajaruvchi badiiy vosita sifatida ajralib turadi.

[24] Рашид Жумаев. Анъана ва издошлик. // Тил ва адабиёт журнали. – №1. – Тошкент, 2021. – Б. 30-33.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдулазиз Мансур. «Қуръони карим» маъноларининг таржимаси. – Тошкент, 2001.

2. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. 12 том. – Тошкент: Фан, 1996.

3. Мавлоно Жалолиддин Румий. Маснавийи маънавий. III жилд. Форсийдан Жамол Камол таржимаси. – Тошкент, 2003.

4. Мавлоно Хожа Қози Пайвандий Ризоий. Қуш тили. – Тошкент, 2009.

5. Рашид Жумаев. Анъана ва издошлик//Ўзбек тили ва адабиёти, 2002. – №1. – Б. 30-33.

6. Фарҳанги истилоҳоти ва таъбироти урфоний. – Теҳрон, 1303.

7. Khasanova Sh. Stories of Alisher Navoi and Rizoi Payvandi (On the Example of «Lison ut-tayr» and «Qush tili» (The Language of Birds)). International Journal of Early Childhood Special Education (INT-JECSE), 14 (1): 1321-1325. DOI: 10.9756/INT-JECSE/V14|1.221151. 10.03.2022.

ALISHER NAVOIYNING XVI ASRGA OID “TERMA DEVON”LARI TARKIBI: G‘AZALDAN BOSHQA JANRLARNING MATNIY TADQIQI

Oysara MADALIYEVA,
O‘zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Sharqshunoslik instituti katta ilmiy xodimi,
ToshDShU dotsenti,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Alisher Navoiy she’riyatining katta qismini o‘zida jamlagan «Xazoyin ul-ma’oniy» tuzilgach, uning tarkibidagi she’rlardan saylanma tarzida «Terma devon»lar vujudga kela boshlagan. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti asosiy fondida Navoiy «Terma devon»larining XVI asrga tegishli 9 ta qo‘lyozmasi saqlanib kelmoqda. Ushbu maqolada ulardan 4 tasining tarkibidan o‘rin olgan g‘azaldan boshqa janrdagi she’rlar qiyoslanadi. Natijalar esa «Xazoyin ul-ma’oniy» devoni bilan solishtiriladi. Shuningdek, maqolada «Terma devon»lar kitobati bilan bog‘liq ma’lum bir vaqt oralig‘ida adabiy jarayondagi she’riy janrlar bilan bog‘liq o‘zgarishlar dinamikasi ko‘rsatib borilgan. Xulosa qismida «Terma devon» nusxalarining har biri o‘ziga yarasha original tartibda ko‘chirilgani va buning qaysi sabablar oqibati bo‘lishi mumkinligi haqida muallifning qarashlari berilgan.

Kalit so‘zlar: *Alisher Navoiy, devon, g‘azal, qo‘lyozma, terma devon.*

Аннотация. После создания «Хазаъин ал-маъани», включавшего в себя болшую част поетического наследия Алишера Навои, «Избранные диваны» стали возникат как подборка из его стихов. В основном фонде Института востоковедения АН РУз находятся 9 рукописей «Избранных диванов» Навои датируемых XVI веком. В данной стате сравниваются поетические жанры, помимо газелей, которые входят в состав четырех диванов из девяти. Результаты сравниваются с диванами «Хазаъин ал-маъани». Так же показана динамика изменения литературного протсесса, связанного с поетическими жанрами за период времени, связанным с рукописями «Избранных диванов». В заключении приводятся взгляды автора: каждый из экземпляров «Избранного дивана» был создан в своем оригиналном порядке; определение причин создания подобных сборников поезии.

Ключевые слова: *Алишер Наваи, диван, газель, рукопись, ранний диван.*

Abstract. After the creation of «Khaza'in al-ma'ani, which included most of the poetic heritage of 'Alisher Nawa'i, «Selected Divans» began to appear as a selection of his poems. In the Main Fund of the Abu Rayhan Biruni Institute of Oriental Studies, Uzbekistan Academy of Sciences there are 9 manuscripts of the «Selected Divans» of Nawa'i dating back to the 16th century. This article compares poetic genres, in addition to ghazals, which are part of four out of nine divans. The results are compared with the «Khaza'in al-ma'ani» divans. It also shows the dynamics of changes in the literary process associated with poetic genres over a period of time associated with the manuscripts of the «Selected Divans». In conclusion, the views of the author are given: each of the copies of the «Selected Divans» was created in its original order; determining the reasons for the creation of such collections of poetry.

Key words: *Alisher Navai, divan, ghazal, manuscript, selected divan.*

Nizomiddin Mir Alisher Navoiy (1441–1501) devonlarining ko'pligi jihatidan nafaqat o'zbek adabiyoti tarixida, balki Sharq xalqlari adabiyoti tarixida yetakchi shoirlar qatorida turadi. Zamondoshlari va ixlosmandlari tarafidan tuzilgan «Ilk devon» va «Oqquyunli muxlislar devoni»; muallif musannafotiga oid «Badoe ul-bidoya» va «Navodir un-nihoya», deyarli barcha she'rlarini o'zida qamrab olgan «Xazoyin ul-ma'oniy» hamda forsiy «Devoni Foniy» – bu devonlarning barchasidan shoir ko'zi ochiqligida nusxalar ko'chirilgani va bu qo'lyozmalarning bugungi kungacha mavjudligi Navoiy she'riy laboratoriyasi tadrijiyligini o'rganish yo'lidagi muhim manbalar hisoblanadi. Hozirgi vaqtga qadar mazkur qo'lyozma devonlar ustida turli tadqiqotlar amalga oshirildi, kataloglar nashr etildi[25]. Shoir devonlarining qadimiy nusxalaridan bir nechtasi faksimile tarzida nashr etildi[26].

[25] Семенов А. Описание персидских, арабских и турецких рукописей. – Ташкент: Издательство среднеазиатского государственного университета, 1935. – 88 с.; Волин С. «Описание рукописей произведений Навои в ленинградских собраниях» // Алишер Наваи. Под ред. К.Боровкова. – Москва–Ленинград: Издательство АН СССР, 1946. – С. 203-235; Levend A. Türkiye kitapliklarindaki Nevai Yazmalari // Türk dili araştirmalari yilliği. Belleten. – Ankara, 1958. – S.127-209; Сулейманов Х. Текстологическое исследование лирики Алишера Навои / В трех томах / том первый. – Ташкент–Москва, 1955-1961. – 415 с.; Раҳматуллаева М. Алишер Навоий лирикасида синонимлар масаласи (XV асрда Султон Али Машҳадий томонидан кўчирилган «Наводирун-ниҳоя» девонининг уникал қўлёзмаси асосида). Филол. ф. номз. дисс. – Тошкент, 1965. – 169 б.; Муниров Қ., Носиров А. Алишер Навоий қўлёзма асарлари каталоги. – Тошкент: Фан, 1970. – 85 б.; Нагиева Ж. Бакинские рукописи Алишера Навои. – Баку: Элм, 1986. – 136 с.; . Birnbaum E. Ottoman Turkish and Chaghatay literature. An Early 16th Century Manuscript of Nava'is Divan in Ottoman Orthography // Central Asiatic Journal. 1976, XX. – P. 157-190; Eckmann J. Nevai'nin ilk divanları üzerine //

Shuningdek, Alisher Navoiy she’rlaridan saylanma tarzida tuzilgan «Terma devon» qo‘lyozmalari ham mavjud. Tabiiyki, bunday turdagi devonlar Navoiy she’riyati tadrijiyligini o‘zida aks ettira olmaydi. Sababi, mantiqan yondashilganda terma devonlar «Xazoyin ul-ma’oniy» yaratib bo‘linganidan so‘ng paydo bo‘la boshlagan, shuning uchun ularning matniy tafovutlarida shoirning o‘zi bevosita ishtirok etmaydi.

«Terma devon» – «Xazoyin ul-ma’oniy»dan tanlab olinib tuzilgan qo‘lyozma devon[27]. Navoiy «Terma devon»lari, ularning tuzilishi haqida dastlab S.Volin (1909–1943), O.Levend (1897–1978), H.Sulaymonov (1910–1979) va M.Hakimov (1935–2001) kabi olimlarning yuqorida nomlari keltirilgan tadqiqotlarida uchratamiz.

Jumladan, H.Sulaymonov «Terma devon»lar hali Navoiy tirikligi chog‘ida vujudga kelgan, deb yozadi va ularni shartli ravishda – Navoiy devon tuzishidan avval va undan keyin boshqalar tomonidan tuzilgan terma devonlar kabi ikki guruhga ajratgan[28]. Olim mazkur masaladagi fikrini davom ettirib, Navoiy

---

Türk dili araştirmalari yilliği. Belleten, 13. – Ankara. 1970. – S. 253-262; Эркинов А. «Бадоеъ ул-бидоя»нинг Навоий даврида кўчирилган ва янги аниқланган санали бешинчи қўлёзмаси (888 йил, сафар ойи/1483 йил, март-апрель) // Алишер Навоий ва XXI аср. – Тошкент: Turon iqbol, 2018. –Б. 51-57; Турдиалиев А, Эркинов А. «Бадоеъ ул-бидоя»нинг Навоий даврида кўчирилган ва янги аниқланган санали олтинчи қўлёзмаси (Султонали Машҳадий, Ҳирот, 889/1484-1485 йил) // Алишер Навоий ва XXI аср (Республика илмий-назарий анжумани материаллари). – Тошкент: Turon iqbol, 2018. – Б. 57-62; Максудов Б. Кодикологическое описание списка «Навадир ан-нихайа» Наваи, хранящегося в библиотеке Таджикского natsionального университета // Алишер Навоий ва XXI аср. – Тошкент: Mashhur-press, 2020. – Б. 9-18; Lale U. Türkmen valiler Şirazlı ustalar Osmanlı okurlar / XVI. Yüzyıl Şiraz elyazmaları. İstanbul: Türkiye İş Bankası Kültür Yayınları, 2006. – S. 531; Walmsley N. O Navāʾī!: ımıtatıon, ınnovatıon, and the ınventıon of a Central Asıan lıterary ıcon, 1500–1900. Submitted to the faculty of the University Graduate School in partial fulfillment of the requirements for the degree Doctor of Philosophy. Indiana: Indiana University, 2016. – P. 345; Имомназаров М. XXI аср. Алишер Навоий лирик мероси матншунослиги муаммолари. – Тошкент, 2021. – 64 б.; Мадраимов А. Алишер Навоий бадиий асарларининг XV–XVI асрлардаги қўлёзмалари. – Тошкент: «Fan va texnologiyalar nashriyot matbaa uyi», 2021. – 382 б; Жўрабоев О. Навоий асарлари қўлёзма ва матнларини ўрганишнинг баъзи масалалари // Алишер Навоий ва XXI аср. – Тошкент, 2016. – Б. 32-38; Юсупова Д. «Наводир ун-ниҳоя» фақат ғазаллардан иборат девонми? // Алишер Навоий ва XXI аср. – Тошкент: Tamaddun, 2017. – Б. 54-60.

[26] Алишер Навоий. Илк девон. 1466 йили кўчирилган қўлёзманинг факсимиле нашри. Нашрга тайёрловчи: филол.ф.д., проф. Ҳ.Сулаймон. – Тошкент: Фан, 1968; Навоий дастхати (Наводир ун-ниҳоя). Нашрга тайёрловчи, сўз боши муаллифи: филол.ф.н. С.Ғаниева. – Тошкент: Фан, 1991; Алишер Навоий Оққуюнли мухлислар девони (1471). Нашрга тайёрловчи: А.Эркинов. – Tokyo: «Research Institute for lanuages and cultures of Asia and Africa», 2015; Алишер Навоий. Ғазалиёт девони (898/1492–1493 йил). Масъул муҳаррир: т.ф.д., проф. Б.Абдуҳалимов. Тадқиқот қисми муаллифлари: филол.ф.д. А.Эркинов, PhD О.Мадалиева. Нашрга тайёрловчи: О.Мадалиева. – Тошкент: Фан, 2021.

[27] Алишер Навоий: қомусий луғат. Масъул муҳаррир: ф.ф.д., проф. Ш.Сирожиддинов. Ижодий гуруҳ: С.Ғаниева, А.Эркинов, О.Давлатов, Э.Очилов, К.Муллахўжаева, Д.Юсупова, З.Мамадалиева, И.Исмоилов, А.Маликов, Л.Жўраева. II том. – Тошкент: Шарқ, 2016.– Б. 95.

[28] Eslatma: H.Sulaymonov yuqoridagi fikrini dalillash maqsadida bir nechta qo‘lyozma devonlarni misol qiladi: birinchi guruhga mansub qo‘lyozma sifatida «Ilk devon» – Rossiya Milliy kutubxonasi, № 564; ikkinchi guruhga tegishli (28 (avvalgi ilova davomi) qo‘lyozmalar sifatida Terma devonlar – O‘zR FA Sharqshunoslik instituti №№ 790, 3984; Nyu-York Metropoliten san’at muzeyi, № 21; Oksford universiteti Bodlean kutubxonasi, № 283. Biz PhD ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyamizda H.Sulaymonning mazkur fikriga biroz mulohaza bildirib, *terma devon* atamasini «Xazoyinu-l-ma’oniy»dan saralab olingan she’rlardan iborat qo‘lyozma devonlarga nisbatan qo‘llash taklifini berganmiz. *Qarang*: Madalieva O. Navoiy devonlari qo‘lyozmalarining tarkibiy-qiyosiy tadqiqi (O‘zR FA Sharqshunoslik instituti fondi qo‘lyozmalari asosida). Filologiya fanlari bo‘yicha PhD ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Тошкент, 2021. – Б. 22

davridan keyingi asrlarda uning she’rlaridan terma devonlar tuzish adabiyotimiz tarixida ma’lum bir an’ana tusini olib qolganini yozadi[29]. H.Sulaymonovning mazkur fikrlariga to‘liq qo‘shilgan holda ushbu maqolada mana shu an’ananing yuzaga kelishi sabablarini o‘rganmoqchimiz.

M.Hakimov Navoiy «Terma devon»larining O‘zR FAShI Hamid Sulaymon fondiga oid qo‘lyozmalari xususida shunday yozadi: «... g‘azallar miqdori 1500 dan kam bo‘lgan qo‘lyozmalar terma devon nusxalari qatoriga qo‘yildi. Terma devonlar hajm jihatidan turlichadir. 1000–1500 g‘azalni o‘z ichiga olgan nusxalar juda kam uchraydi»[30]. Darhaqiqat, Navoiy «Terma devon»larining O‘zR FAShI asosiy fondiga oid qo‘lyozmalarning tarkibi bilan tanishib chiqish natijasi ham olimning mazkur fikrlarini tasdiqlaydi. Shuningdek, mazkur fondda saqlanayotgan «Terma devon» qo‘lyozmalari tarkibidagi g‘azallarning miqdori bilangina emas, she’rlarning tartibi va mundarijasi bilan ham bir-biridan farq qiladi. Balki bu ulardan biri boshqasidan ko‘chirilgan bo‘lishi mumkinligi ehtimoldan yiroq ekanini bildiradi. Shuning uchun, biz avvalgi tadqiqotlarimizda o‘z oldimizga «Terma devon»larni tuzishda qanday devon manba vazifasini o‘tagan? “Terma devon” tuzuvchilarda «Xazoyin ul-ma’oniy»ning to‘liq nusxasi bor bo‘lganmi yoki bir terma devondan boshqasi yuzaga kelaverganmi?” kabi savollarni qo‘ygan va bunga dastlabki javoblarni aniqlagan edik[31].

Masalaga juda oddiy nazar bilan boqqanda, 3132 ta she’rdan iborat «Xazoyin ul-ma’oniy» devonlar majmuasini to‘liq holda ko‘chirish katta mablag‘ va mehnat talab etgan bo‘lishi, ammo Navoiy she’rlari devon holida o‘zlarining shaxsiy kolleksiyasida saqlanishini istagan uning muxlislari she’rlardan ma’lum bir qisminigina (hatto duch kelgan qismini) ko‘chirgan yoki ko‘chirtirgan, deyish mumkin. Ammo terma devonlar nusxalari tarkibining sinchiklab o‘rganilishi ushbu xulosaning haqiqatan primitiv ekanini oydinlashtiradi. Bunday yondashuvimizning eng birinchi sababi sifatida deyarli har bir terma devon qo‘lyozmasining original tarkibda tuzilganini keltirish mumkin. Zero, Navoiy she’rlaridan ma’lum bir qismi devon holida xonadonida saqlanishini istagan kitobxon avval tuzilgan biror terma devondan yana bir nusxani ko‘chirish yoki ko‘chirtirish bilan kifoyalanishi ham mumkin edi. Terma devonlarning faqat shu nusxaga xos tarkib va tartibda kitobat qilingani shoir she’rlariga nisbatan alohida didning va bo‘lak maqsadlarning bor bo‘lganidan darak beradi, bizningcha. Qolaversa, ularning orasida ma’lum bir saroy kutubxonasi uchun maxsus kitobat qilingan nusxalar ham mavjud.

---

[29] Сулаймонов Ҳ. «Хазойинул-маоний» текстларини ўрганиш ва нашрга тайёрлашнинг асосий масалалари // Алишер Навоий. Хазойинул-маоний. I том: Ғаройибус-сиғар. – Тошкент, 1959. – Б. 18.

[30] Ҳакимов М. Навоий асарлари қўлёзмалари тавсифи. – Тошкент: Фан, 1983. – Б. 8.

[31] Мадалиева О. Навоий девонлари қўлёзмаларининг таркибий-қиёсий тадқиқи. – Тошкент: Donishmand ziyosi, 2021. – Б. 120-128.

Shu ma’noda, «Xazoyin ul-ma’oniy» she’rlaridan saylanma tarzida tuzilgan «Terma devon» qo‘lyozmalarining vujudga kelishi ildizi adabiyot ixlosmandlari didlarining o‘zgaruviga borib taqalishi mumkin. «Masalan, «XVI asr o‘rtalaridan boshlab kishilarning o‘zgargan didlari ehtiyoji hisobga olinib, ko‘pincha, katta asarlarning ayrim bo‘laklaridan tarkib topgan to‘plamlar tuzila boshlangan». Ushbu fikr Jomiyning «Tuhfatul-ahror» dostoni haqida aytilgan bo‘lib, olimlar XVI asrdayoq didning o‘zgarishi oqibatida bu asardan ehtiyoj va didga mos qismlargina olinganligiga diqqatni jalb etmoqdalar»[32]. Alisher Navoiy «Xamsa»si misolida ham shu kabi fikrlar yozilgan[33]. Shuningdek, adabiyotning, kitobat ishining saroydan chekka hududlarda sekin-asta rivojlanib borgani ham bu hodisaning sabablaridan bo‘lishi mumkin.

Navoiy she’rlaridan 898/1492–1493-yil «G‘azaliyot devoni» (shartli nomi) tarzida Sultonali Mashhadiy tomonidan kitobat qilingan qo‘lyozma tarkibidan o‘rin olgan g‘azallarning vaznlari bo‘yicha ko‘rsatkich tuzish natijasida ushbu she’rlarning barchasi aruzning bir xil vaznida (ramal) ekani ayon bo‘ldi[34]. Bu hodisa ma’lum ma’noda, terma devon qo‘lyozmalari tarkibidagi she’rlarning ham vazni va musiqiyligi, radif va qofiyalariga ko‘ra tanlab ko‘chirilgan bo‘lishi mumkinligini bildiradi.

90-yillarda adabiyotshunoslikda «ontologik poetika» atamasi ilmiy muomalaga kiritila boshladi[35]. Unga ko‘ra, ijodkor butun mahsulining kishilar (o‘quvchilar) ongida ma’lum bir assotsiatsiyalashgan qismi bo‘ladi. Adabiyotshunoslikda bu hodisaga ijod alomati – ma’lum tushuncha yoki g‘oyaning simvolik belgisi deyiladi. Kitobxon nazdida o‘sha simvolik belgi asarning asl ma’nosi bo‘lib qoladi. Asl ma’no – bu bir matndan ikkinchisiga o‘tadigan va har safar tobora ko‘proq yangi shakllarga ega bo‘lgan buzilmas turtki yoki impuls. Har bir aniq asar doirasida asl ma’no alohida elementlarga yoki tarkibiy qismlarga parchalab bo‘lmaydigan yaxlitlik, matnning o‘ziga xos minimal birligidir[36]. Doktor L.V.Karasev bu adabiy jarayonni G‘arb ijodkorlari merosi asosida chorak asrdan buyon tadqiq qilib keladi. Olimning fikricha, badiiy matnning o‘quvchi nazdida markaziy va markazdan chetda qolgan jihati bo‘ladi. Shu ma’noda, Alisher Navoiy terma devonlari qo‘lyozmalaridagi she’rlar o‘sha nusxa ko‘chirilayotgan adabiy muhit kitobxonlari nazdidagi «Xazoyin ul-

[32] Эркинов А. Алишер Навоий «Хамса»си талқини манбалари (XV – XX асрлар). – Тошкент: Tamaddun, 2018. – Б. 182.
[33] Эркинов А. Алишер Навоий «Хамса»си талқини манбалари (XV–XX аср боши). – Тошкент: Tamaddun, 2018. – Б. 181-189.
[34] Алишер Навоий. Ғазалиёт девони (898/1492–1493 йил). Масъул муҳаррир: т.ф.д., проф. Б.Абдуҳалимов. Тадқиқот қисми муаллифлари: филол.ф.д. А.Эркинов, PhD О.Мадалиева. Нашрга тайёрловчи: О.Мадалиева. – Тошкент: Фан, 2021. – Б. 41-52.
[35] Карасев Л. Онтологическая поэтика // Интелрос – Интеллектуальная Россия. – С. 92.
[36] O‘sha manba. – C. 98.

ma’oniy» she’rlarining markaziy nuqtalari hisoblangan bo‘lishi mumkin. To‘g‘ri, L.V.Karasev o‘zining ontologik poetika haqidagi xulosalarini Shekspir (1564–1616), Gyote (1749–1832), Pushkin (1799–1837), Dostoevskiy (1821–1881), Tolstoy (1828–1910) kabi ijodkorlarning aniq bir asari va ularning kitobxonlar ongida shakllangan markaziy va markazdan chetda qolgan qismlari asosida ifoda etadi[37]. Bu borada Navoiy she’rlarining har biri alohida asar va ularning har birida kishilar ongida markaziy ma’no sifatida saqlangan qismi mavjudligi haqida e’tiroz bo‘lishi mumkin[38]. Ammo bir ijodkor she’riyatini yaxlit hodisa sifatida olib qarash va uning tarkibiga kiruvchi ayrim she’rlar kishilar ongida shu ijod mahsulini yaxlitlovchi assotsiatsiyasi ham bo‘lishi mumkin, bizningcha. Masalan, zamonaviy o‘zbek adabiyoti namoyandalari ijodi misolida Erkin Vohidov (1936–2016) she’riyatini umumiy olganda, kitobxon bu she’riyatni «O‘zbegim» qasidasi yoki Abdulla Oripov (1941–2016) ijodini esa «Birinchi muhabbatim» she’ri orqali ko‘z o‘ngida gavdalantirishi, assotsiatsiyalashtirishi mumkin. Ya’ni «O‘zbegim» qasidasi Erkin Vohidov, «Birinchi muhabbatim» she’ri esa Abdulla Oripov she’riyatining timsoli bo‘lishi mumkin. Tabiiyki, ushbu vazifani bajaruvchi she’rlarni nomi tilga olingan har ikki ijodkor merosida o‘nlab davom ettirsa bo‘ladi. Bu jihatdan, Alisher Navoiy she’riyatining har bir «Terma devon»da aks etgan ko‘rinishi o‘sha adabiy muhit uchun bu ijodning timsoli vazifasini o‘tagan bo‘lishi mumkin.

Alisher Navoiy devonlari qo‘lyozmalarining shoir hayotligidan to XX asrning 1-choragigacha ko‘chirilgan nusxalarini o‘rganish natijasi «Terma devon»larning XVI asrdan XIX asrgacha bo‘lgan muddatda eng ko‘p ko‘chirilgani haqidagi faktni o‘rtaga chiqardi[39]. Xo‘sh, bunday turdagi devonlarni ko‘chirishdan maqsad nima edi? Ularning turli xil tarkib va mundarijasi nimalarga asoslangan? Nega Navoiy vafotidan bir oz muddat o‘tar-o‘tmas «Xazoyin ul-ma’oniy» to‘liq holda emas, uning tarkibidan ba’zi she’rlarni tanlab, yangi turdagi devonlar tuzilmoqda? Bu hodisani ontologik poetika nazariyasi asosida o‘rganish, shu asosda terma devonlarning tuzilishi borasidagi qonuniyatlarni chiqarish mumkinmi? Ushbu maqolada Navoiy «Terma devon»larining O‘zR FASHI asosiy fondida saqlanayotgan XVI asrga oid qo‘lyozmalari, xususan, ular tarkibidagi g‘azaldan boshqa she’riy janrlarning tadqiqi asnosida yuqoridagi savollarga javob izlashni maqsad qildik.

---

[37] O‘sha manba. – C. 91-98.

[38] Bizningcha, masalaga bu yo‘nalishda yondashish ham mumkin. Zero, Navoiy «Terma devon»i qo‘lyozmalaridan bir nusxasi (O‘zR FAShI, Inv.№ HS. 2687) g‘azallarning noto‘liq, qisqartirilgan shaklda berilishi bilan xarakterlidir. Ya’ni bunda o‘sha «Terma devon» nusxasining o‘quvchisi bo‘lgan Navoiy she’riyati ixlosmandlari uchun g‘azallarning ayni qo‘lyozmada keltirilgan qismi markaziy ma’no anglatuvchi qismi hisoblangan bo‘lishi mumkin.

[39] Мадалиева О. Навоий девонлари қўлёзмаларининг таркибий-қиёсий тадқиқи. – Тошкент: Donishmand ziyosi, 2021. – Б. 183-193.

Navoiy devonlarining O‘zR FAShI asosiy fondiga tegishli XVI asr nusxalari Darvesh Muhammad Toqiy, Pirahmad ibn Iskandar va Abdurrahim kotib kabi zamonasining mashhur xattotlari tomonidan ko‘chirilgan. Mazkur fondda ushbu davrga oid jami 9 ta terma devon nusxasi aniqlandi[40]. Ulardan bir nechtasining ko‘chiruvchisi va sanasi aniq emas (№№ 1973, 7200, 1976, 4007)[41]. Kotibi noma’lum bo‘lgan 2197 raqamli “Terma devon” qo‘lyozmasiga esa 954/1547–1548 yil sanasi mavjud, ammo bu qayd keyinchalik boshqa shaxsning qo‘li bilan yozilganga o‘xshaydi[42]. Mazkur qo‘lyozma nodir nusxalar sirasiga kiradi. Unga tilla suvi va boshqa ranglar uyg‘unligida 9 ta unvon (1b, 135b, 136a, 137b, 138b, 143b, 148b, 154b i 167b) va Hirot miniatyura maktabiga oid 5 ta mo‘jaz rasm ishlangan (35b, 56a, 84a, 99a, 122a).

Qolgan 4 ta «Terma devon» nusxalarining ko‘chirilgan yili yoki kotibi ma’lum. Shu ma’noda biz aynan mana shu qo‘lyozmalarni ushbu tadqiqotga tortdik. Bular 9672, 2790, 5802 va 7701 raqamli qo‘lyozma devonlardir.

1-jadval

Alisher Navoiy «Terma devon»larining O‘zRFASHI asosiy fondida saqlanayotgan 9672, 2790, 5802, 7701 raqamli nusxalari

№	«Terma devon» qo‘lyozmalarining saqlanish raqamlari	Ko‘chirilgan yili	Ko‘chiruvchi
1.	9672	940/1533–34	Pirahmad ibn Iskandar
2.	2790	rajab 959/iyun–iyul 1552	Abdurrahim
3.	5802	991/1583–84	–
4.	7701	–	Darvesh Muhammad Toqiy

Shuningdek, mazkur «Terma devon»larda «Xazoyin ul-ma’oniy»da mavjud bo‘lmagan she’rlar ham borligi aniqlandi. Ular, asosan, g‘azal va qit’alar bo‘lib, ba’zilari «Badoe ul-bidoya» yoki «Navodir un-nihoya»da kelgan, ammo «Xazoyin ul-ma’oniy» tarkibiga o‘tmagan. Ayrimlari esa MATning[43] 20-tomida

[40] Алишер Навоий. Терма девонлар қўлёзмалари. №№ 1973, 7200, 1976, 4007, 2197, 9672, 2790, 5802, 7701. ЎзР ФАШИ асосий фонди.
[41] Собрание восточных рукописей академии наук Республики Узбекистан. Литература (Диваны). Том. I. Отвественный редактор академик АН РУз Д.Юсупова. Подготовка к изданию: канд. ист. наук. Х.Лутфиллаев, канд. филол. наук. С.Файзиева, О.Мадалиева. – Ташкент: Наврўз, 2017. – Б. 186-190.
[42] O‘sha manba. – Б. 189.
[43] MAT – Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик.

«Rasmiy devonlarga kirmagan she’rlar» sarlavhasi ostida taqdim qilingan she’rlar orasida mavjud[44]. Maqolada ushbu qit’alar ham taqdim etildi. Quyida ular bilan tanishishingiz mumkin.

«Badoe ul-bidoya»da mavjud, «Xazoyin ul-ma’oniy»ga o‘tmagan qit’alar:

№ 9672. 10-qit’a. 4 bayt. 521a; № 2790. 30-qit’a. 4 bayt. 137a:
Ṣāḥib a’zam Niẓāmu-l-mulk čun-kim boldï ğazal
Hajvlar qïldï ‘Uṭārud čarḫ-i kajraftārni (BB, 41-qit’a).
№ 9672. 18-qit’a. 2 bayt. 522a; № 2790. 33-qit’a. 2 bayt. 137b:
Sadr kātib yoq meniŋ še’rim-ki har kim še’rini
Yāzğalï āldïm qalam barïn ğalaṭ qïldïm raqam (BB, 46-qit’a).
№ 9672. 17-qit’a. 2 bayt. 521b-522a:
Falān bāy-kim qoyï beš miŋdin ötmiš
Yana ham miŋdin ārtuq sağliğ oč-ku (BB, 40-qit’a).
№ 9672. 20-qit’a. 2 bayt. 522a:
Birävniŋ ḫavfi köpräk šah qāšïda
Ki, šahnïŋ bar aŋa ta’żimi köpräk (BB, 31-qit’a).

«Navodir un-nihoya»da mavjud, «Xazoyin ul-ma’oniy»ga o‘tmagan qit’alar:

№ 9672. 2-qit’a. 3 bayt. 520b:
Asālat gavharï Noyān-u barlās
Saḫāvat mulkïnïŋ masnadnišini[45].

MAT 20-tomida «Rasmiy devonlarga kirmagan she’rlar» sifatida berilgan qit’alar:

№ 2790. 32-qit’a. 2 bayt. 137b:
Riyāyi šayḥimizniŋ masjidida,
Ču derlär ẕikr äylärlä ‘alālā (MAT, 20-t., 441-bet).
№ 9672. 1-qit’a. 2 bayt. 520a:
Barur erdim čiqarğa gāh-gāhï,
Šahïmnïŋ sözi köŋlümgä yaqardïn (MAT, 20-t., 441-442-bet).
№ 9672. 19-qit’a. 2 bayt. 522a:

[44] Алишер Навоий. Девони Фоний (давоми). Қасидалар. Муфрадот. Иловалар. Нашрга тайёрловчи ва масъул муҳаррир: Сайфиддин Рафиддинов. MAT, 20-том. – Тошкент: Фан, 2003. – Б. 439-467.
[45] Ushbu qit’a MAT 20-tomida «Rasmiy devonlarga kirmagan she’rlar» sarlavhasi ostida berilgan. Ammo bu qit’a «Navodiru-n-iihoya»ning Sultonali Mashhadiy tomonida ko‘chirilgan O‘zR FA Sharqshunoslik instituti asosiy fondiga tegishli 1995 raqamli qo‘lyozmasida mavjud. Qarang: № 1995. 4-qit’a. 2 bayt. 199 b.

Dedi maŋa Bāqiybek albatta sipāhiy bol
Āzurdadur ul sözdin bu ḫāṭir-i ğamnākim (MAT, 20-t., 442-bet).

Navoiy «Terma devon»larining 9672, 2790, 5802 va 7701 raqamlari bilan O‘zR FASHI asosiy fondida saqlanayotgan qo‘lyozmalari tarkibidagi she’riy janrlarning mavjud yoki yo‘qligini «Xazoyin ul-ma’oniy» she’rlari bo‘yicha jadvallarda aks ettiramiz.

2-jadval

Navoiy «Terma devon»lari O‘zR FASHI asosiy fondiga oid 9672, 2790, 5802 va 7701 raqamli qo‘lyozmalari tarkibining «G‘aroyib us-sig‘ar» devoni bilan qiyosi

№	Janr nomlari	G‘aroyib us-sig‘ar			
		9672	**2790**	**5802**	**7701**
1.	G‘azal	+ (616 ta)	+ (395 ta)	+ (293 ta)	+ (446 ta)
2.	Mustazod	+ (1 ta)	-	+ (1 ta)	-
3.	Muxammas	+ (3 ta)	+ (2 ta)	+ (2 ta)	-
4.	Musaddas	+ (1 ta)	-	-	-
5.	Tarji’band	+ (1 ta)	+ (1 ta)	+ (1 ta)	-
6.	Masnaviy	+ (1 ta)	-	-	-
7.	Qit’a	+ (39 ta)	+ (32 ta)	+ (34 ta)	-
8.	Ruboiy	+ (114 ta)	+ (20 ta)	+ (74 ta)	+ (71 ta)

3-jadval

Navoiy «Terma devon»lari O‘zR FASHI asosiy fondiga oid 9672, 2790, 5802 va 7701 raqamli qo‘lyozmalari tarkibining «Navodir ush-shabob» devoni bilan qiyosi

№	Janr nomlari	Navodir ush-shabob			
		9672	**2790**	**5802**	**7701**
1.	G‘azal	+ (589 ta)	+ (53 ta)	+ (143 ta)	+ (55 ta)
2.	Mustazod	+ (1 ta)	-	+ (1 ta)	-
3.	Muxammas	+ (3 ta)	+ (2 ta)	+ (1 ta)	-
4.	Musaddas	+ (1 ta)	-	-	-

5.	Tarji’band	+ (1 ta)	+ (1 ta)	-	-
6.	Tarkibband	+ (1 ta)	-	-	-
7.	Qit’a	-	-	-	-
8.	Muammo	+ (52 ta)	+ (51 ta)	+ (50 ta)	-

4-jadval

Navoiy «Terma devon»lari O‘zR FASHI asosiy fondiga oid 9672, 2790, 5802 va 7701 raqamli qo‘lyozmalari tarkibining «Badoe ul-vasat» devoni bilan qiyosi

№	Janr nomlari	Badoe ul-vasat			
		9672	2790	5802	7701
1.	G‘azal	+ (569 ta)	+ (32 ta)	+ (80 ta)	+ (34 ta)
2.	Mustazod	+ (1 ta)	-	+ (1 ta)	-
3.	Muxammas	+ (2 ta)	+ (1 ta)	+ (1 ta)	-
4.	Musaddas	+ (2 ta)	+ (1 ta)	+ (1 ta)	-
5.	Tarji’band	+ (1 ta)	-	-	-
6.	Qasida	+ (1 ta)	-	-	-
7.	Qit’a	-	-	-	-
8.	Chiston	+ (9 ta)	+ (10 ta)	+ (10 ta)	-
9.	Tuyuq	+ (13 ta)	+ (10 ta)	+ (10 ta)	-

5-jadval

Navoiy «Terma devon»lari O‘zR FASHI asosiy fondiga oid 9672, 2790, 5802 va 7701 raqamli qo‘lyozmalari tarkibining «Favoyid ul-kibar» devoni bilan qiyosi

№	Janr nomlari	Favoyid ul-kibar			
		9672	2790	5802	7701
1.	G‘azal	+ (335 ta)	+ (33 ta)	+ (64 ta)	+ (43 ta)
2.	Mustazod	+ (1 ta)	-	-	-
3.	Muxammas	+ (2 ta)	-	-	-
4.	Musaddas	+ (1 ta)	-	+ (1 ta)	
5.	Musamman	-	-	-	-
6.	Tarji’band	-	-	-	-
7.	Soqiynoma	-	-	-	-
8.	Qit’a	-	-	-	-
9.	Fard	+ (43 ta)	+ (48 ta)	+ (40 ta)	+ (10 ta)

6-jadval

Navoiy «Terma devon»lari O‘zR FASHI asosiy fondiga oid 9672, 2790, 5802 va 7701 raqamli qo‘lyozmalari tarkibidagi umumiy she’rlar soni

№	Janr nomlari				
		9672	**2790**	**5802**	**7701**
1.	G‘azal	2121 ta	515 ta	580 ta	582 ta
2.	Mustazod	4 ta	-	3 ta	-
3.	Muxammas	10 ta	5 ta	4 ta	-
4.	Musaddas	5 ta	1 ta	2 ta	-
5.	Musamman	-	-	-	-
6.	Tarji’band	3 ta	2 ta	1 ta	-
7.	Tarkibband	1 ta	-	-	-
8.	Masnaviy	1 ta	-	-	-
9.	Soqiynoma	-	-	-	-
10.	Qasida	1 ta	-	-	-
11.	Muammo	52 ta	51 ta	50 ta	-
12.	Qit’a	46 ta	35 ta	34 ta	-
13.	Ruboiy	114 ta	20 ta	74 ta	71 ta
14.	Fard	43 ta	48 ta	40 ta	10 ta
15.	Chiston	9 ta	10 ta	10 ta	-
16.	Tuyuq	13 ta	10 ta	10 ta	-
Jami:		2423	697	808	663

Ma’lum bo‘lganidek, 9672 raqamli «Terma devon» qo‘lyozmasida 2423 ta she’r mavjud. Bu esa uning «Terma devon» emas, balki «Xazoyin ul-ma’oniy»ning she’rlari umumiy alifbo tartibiga solingan noto‘liq nusxasi bo‘lishi mumkin kabi fikrlarni uyg‘otadi. Sababi M.Hakimovning «Terma devon» qo‘lyozmalarida 1500 mingtagacha she’r mavjud bo‘ladi» mazmunidagi xulosasiga biz ham qo‘shilgan edik. Ammo tajribalar ba’zan istisno hollar ham uchrab turishini ko‘rsatmoqda. Zero, yaxlit alifbo tizimli «Xazoyin ul-ma’oniy» qo‘lyozmalari va «Terma devon» nusxalarini ajratib turuvchi farq faqat ular tarkibidan o‘rin olgan she’rlarning miqdorida emas. Sababi shu paytga qadar ko‘rib o‘tganimiz «Xazoyin ul-ma’oniy»ning umumiy alifboga solingan qo‘lyozmalarida she’rlarning tarkibiy devonlardan qay biriga mansubligi kotib tomonidan ko‘rsatib borilgan. Bu kabi ko‘rsatkichlarga ega «Terma devon» nusxalari esa hozircha uchramadi. 9672 raqamli qo‘lyozma ana shunday qo‘lyozma devonlar sirasiga kirib, bu holat uni «Xazoyin ul-ma’oniy»dan ko‘ra

«Terma devon»ga moyillashtiradi. Nusxaning ko‘chirilgan yilidan (940/1533–34) kelib chiqsak, bu «Xazoyin ul-ma’oniy» she’rlaridan saralangan yangi tarkibdagi devonlar «Terma devon»lar) tuzishning boshlanish pallasi bo‘lib, an’ana endi shakllana boshlaganiga ishora etishi mumkin. Ehtimol, dastlab tartib berilgan «Terma devon»lar she’rlari miqdori jihatidan originaldan keskin farq qilmagandir.

Yuqoridagi ko‘rsatkichlar asosida «Terma devon»lar qo‘lyozmalari tarkibidan o‘rin olgan she’rlar misolida quyidagi natijalar yuzaga keldi.

– Tadqiqotga jalb etilgan «Terma devon» nusxalarining barchasida she’rlarning soni «G‘aroyib us-sig‘ar»dan «Favoyid ul-kibar»ga qarab kamayib boradi. Ya’ni barcha qo‘lyozmalar tarkibidagi she’rlarning eng ko‘p hissasi «G‘aroyib us-sig‘ar»ga, eng kami esa «Favoyid ul-kibar»ga to‘g‘ri kelmoqda. Bu hodisa navoiyxonlar orasida aynan «G‘aroyib us-sig‘ar» devonidan joy olgan she’rlarning boshqalariga nisbatan urfda bo‘lganini ifoda etishi mumkin. Ehtimol, Navoiy she’riy merosining katta qismini o‘zida jamlagan «Xazoyin ul-ma’oniy» XVI asr Xuroson adabiy muhitida ko‘proq uning birinchi devoni «G‘aroyib us-sig‘ar» tarkibidagi she’rlar timsolida namoyon etgan bo‘lsa kerak. Ma’lumki, Alisher Navoiyning o‘zi tomonidan tartib berilgan «Badoe ul-bidoya» g‘azallarining katta miqdori «G‘aroyib us-sig‘ar»ga, «Navodir un-nihoya» g‘azallarining katta qismi «Navodir ush-shabob»ga o‘tkazilgan. «Badoe ul-bidoya» shoirning asosan, 40 (45 bo‘lishi ham mumkin) yoshigacha yozilgan she’rlaridan tuzilgan. Shu ma’noda, «Terma devon» tuzuvchilarini shoirning yoshlik lirikasi ko‘proq qiziqtirgan bo‘lishi mumkin[46]. Bu holat san’at ixlosmandlari orasida hozirgacha saqlanib qolgan, deyish mumkin. Sababi bugungi kunimizda ham ayrim shoir yoki hofizlar haqida muxlislari o‘rtasida bo‘lgan suhbat jarayonida «baribir, yoshlik payti yozgan she’rlari, aytgan qo‘shiqlari zo‘r edi-da» kabi e’tiroflar tez-tez uchrab turadi. Shu ma’noda, Navoiy lirikasining ayni yoshlik pallasida yaratilgan namunalari ishq-muhabbat hissi bilan to‘lib-toshgan yurak nolalari bo‘lib, ishqiy mazmundagi she’rlarning muxlislarini ko‘proq o‘ziga tortgan ko‘rinadi. Tabiiyki, inson yoshi ulg‘aygan sari ishq-muhabbatni jilovlashga, hissiyot-ehtirosdan ko‘ra aql bilan ish tutishga moyil bo‘ladi. Shuningdek, shoirlarning yozganlari ham yoshi keksaygani sari mavzu doirasini kengaytirib, yetishib kelayotgan avlodni «hayotda to‘g‘ri yo‘l topishga, hayotning qadriga yetishga chaqiriq» mazmunini kasb etib boraveradi. Bizningcha, Navoiy she’riyati ham shoir kamolga yetgani sari falsafiylashib boradi va mushohadaga, o‘ylashga, fikrlashga undovchi she’rlar ma’lum bir

[46] Ushbu masalada professorlar M.Imomnazarov va Q.Sodiqov bilan suhbatlashganimizda fikrlarimiz deyarli mos tushishi ma’lum bo‘ldi.

toifadagi muxlislargagina tushunarli va manzur bo‘ladi. Ayniqsa, adabiyot saroydan uzoqlashgan, kishilarning she’rga bo‘lgan didlari tobora o‘zgarib borayotgan jarayonlarda bu hodisa tabiiydek ko‘rinadi.

– Masnaviy, tarkibband, soqiynoma kabi katta hajmli she’rlar «Terma devon»larga tobora kiritilmayapti. Bu esa ushbu she’riy janrlarning adabiy jarayonlardagi ahamiyati biroz susaygan bo‘lishi mumkinligini anglata oladi.

– Ruboiy, tuyuq, fard kabi she’riy janrlar ushbu «Terma devon»larning deyarli barchasida aks ettirilmoqda. Bu hodisa adabiyotda yoki umuman devonlar kitobatida kichik janrlarning ahamiyati ortib borgani va jarayonning tobora ixchamlashishga qarab ketganini ifoda etishi mumkin.

– Qo‘lyozmalar ko‘chirilish davriga qarab (№9672 – 940/1533–1534; №2790 – rajab 959/iyun–iyul, 1552; №5802 – 991/1583–1584) ularning tarkibidagi she’rlarning janr xilma-xilligi pasayib bormoqda. Bu jarayon agar Navoiy devonlarining muallif tirikligi chog‘i kitobati (aynan «Xazoyin ul-ma’oniy» yaratilgan va undan nusxa ko‘chirila boshlagan davr nazarda tutilmoqda) va mazkur «Terma devon»lar ko‘chirilgan vaqtdan kelib chiqilsa, 30-85 yillar oralig‘ida janrlarga nisbatan munosabatning qanchalik o‘zgarib borganligini namoyish eta oladi.

– «Badoe ul-vasat»dan o‘rin olgan «Hiloliya» qasidasi 940/1533–1534 ((№9672) yilda ko‘chirilgan «Terma devon»dagina mavjud. Ko‘chirilish sanasi keyingi yillarga to‘g‘ri keladigan qo‘lyozma devonlarda uchramasligi ayon bo‘ldi. Bu hodisa nusxalar ko‘chirilayotgan davr siyosiy jarayonlari bilan bog‘liq ravishda yuz bergan bo‘lishi mumkin. Ya’ni keyingi yillarga kelib siyosiy vaziyat Husayn Boyqaroga bag‘ishlangan madhlarni qayta-qayta ko‘chirilishiga yo‘l bermagan bo‘lishi mumkin.

– Har to‘rt «Terma devon» nusxasida ko‘rib o‘tganimiz janrlarning hajmida deyarli o‘zgarish yo‘q. Bu jihatdan faqat tarji’bandlardagina turli xillik mavjud.

– «Terma devon»lar kim tomonidan tuzilmasin, she’rlarning joylashuvida deyarli alifbo tizimiga amal qilingan. Ularda arab alifbosining ma’lum bir harfiga yakunlanuvchi g‘azallar orasiga boshqa harf bilan tugallanadigan g‘azallarni qo‘shib ko‘chirish hollari kam kuzatiladi.

Xulosa qilib aytganda, «Terma devon»lar tarkibini qiyosiy o‘rganish natijasida ulardagi she’rlarning miqdori «Xazoyin ul-ma’oniy» devonlaridan biriga nisbatan ko‘proq, boshqasiga nisbatan kamroq to‘g‘ri kelishi ma’lum bo‘ldi. Bu holat tarkibidagi she’rlar «Xazoyin ul-ma’oniy»ning har bir devoniga nisbatan teng ulushli terma devonlar mavjudligiga shubha uyg‘otadi.

Shuningdek, «Terma devon»larda bir-biridan nusxa ko‘chirilish holati deyarli uchramadi. Tarkibidagi she’rlarning mundarijasi o‘zidan avval

ko‘chirilgan qo‘lyozmani aynan takrorlovchi terma devon hozircha topilmadi. Bizningcha, bu hodisa har bir terma devon qo‘lyozmasini tuzuvchi (u ko‘chiruvchining o‘zi bo‘lishi ham mumkin) yoki uni buyurtma beruvchining didi va istaklaridan kelib chiqqan holda amalga oshganligini bildira oladi. Ayni paytda, bu jarayon bir terma devon qo‘lyozmasining yuzaga kelishida boshqa bir terma devonning manba bo‘lib xizmat qilgan bo‘lishi mumkinligi haqidagi farazni inkor etadi. Shuningdek, tadqiqotchini har bir terma devon tuzuvchisida «Xazoyin ul-ma’oniy» qo‘lyozmasi mavjud bo‘lganligiga ishontirishga undaydi.

O‘rta asrlar musulmon sharqida she’rning qadri baland bo‘lgani ma’lum. Tabiiyki, she’r yod olish, bu an’anani avlodlar orasida davom ettirishga alohida e’tibor mavjud bo‘lgan. Bu jihatdan qaraganda, Navoiy she’riyati ixlosmandlari uning she’rlaridan o‘zlari yod olgan qismini devon holida kitobat qilinishi va bu qo‘lyozma avlodlari uchun meros bo‘lib qolishini istagan bo‘lishlari, shu tariqa har biri original tarkibdagi terma devon nusxalari yuzaga kelgan bo‘lishi ham ehtimoldan xoli emas. Aynan qaysi she’rlarni saralab olish esa tuzuvchi yo buyurtmachining qaysi ijtimoiy guruhga mansubligi, tasavvufiy dunyoqarashidan kelib chiqqan bo‘lishi mumkin. Mashshoqlar o‘zlari uchun tuzayotgan yoki tuzdirayotgan terma devonlari she’rlarining aynan musiqiyligi, qo‘shiq qilib kuylash va xotirada oson saqlash imkoniyati yuqori bo‘lishi talabidan kelib chiqqan bo‘lishlari; diniy-tasavvufiy faoliyatidagi kishilarni ko‘proq hamd, na’t va munojot mazmunidagi, ayni muhabbat yoshidagi kishilar guruhiga esa dunyoviy ishqni tarannum etuvchi she’rlar qiziqtirgan bo‘lishi mumkin. Hatto mazkur saralanish erkaklar va ayollarning o‘zlarigagina xos didlaridan kelib chiqib yuzaga kelgan bo‘lishi, ya’ni ayollar yig‘ilib, kitobxonlik, she’rxonlik, navoiyxonlik qilishlarini ko‘zda tutib, maxsus terma devonlar tuzdirgan bo‘lishlari ham mumkin.

Shu o‘rinda, «Terma devon» nusxalarining saroy kitobat ustaxonalarida, maxsus farmonlar asosida ko‘chirtirilganini ham unutmaslik lozim. Ular ba’zan saroy kutubxonasi uchun ko‘chirilsa, ba’zida chet mamlakatlarning sultonlariga hadya qilish maqsadida kitobat qilingan bo‘lishi mumkin. Bunday qo‘lyozma devonlarning ko‘piga betakror unvonlar, nafis miniatyuralarning ishlangani ular tarkibidagi she’rlarning kibor qatlam vakillari didlaridan kelib chiqib tanlanganini anglata oladi. Bu esa qo‘lyozma ko‘chirilgan davr saroy adabiyotida umuman, qaysi she’riy janrlarning ahamiyati balandligini, xususan, Navoiy she’rlaridan qaysilarining urfda bo‘lganini ifoda etishi mumkin. Ehtimol, kotiblarga saroy she’riy majlislarida tez-tez o‘qib turilgan she’rlardan maxsus terma devon tuzish,

san’atkorlarga esa ushbu she’rlarning syujetiga mos tarzda miniatyuralar ishlash vazifasi yuklatilgan bo‘lishi ham mumkin.[47]

Tadqiqotga tortilgan «Terma devon»lar qo‘lyozmalari tarkibi Navoiy vafotidan keyingi 30-85 yil orasida bir shoir ijodi misolida devonlar kitobatining, umuman olganda, adabiyotning o‘zgarib borish jarayonlarini aks ettirishga xizmat qiladi. Ushbu jarayon kishilarning did va xohishlari tobora ixchamlashtirishga qarab ketgani, endi ular uchun klassik asarlarning mukammal holati emas, o‘zlarini qiziqtirgan qismigina muhimlik qilganini ifoda etadi. Muhimi shundaki, bu qism aynan qaysi she’rlardan tashkil topishi har adabiy muhit, ba’zan har bir ixlosmand-kitobxon, hatto davrlarga ko‘ra o‘zgarib borgan. Bu esa Navoiy terma devonlarini tuzuvchi yoki tuzdiruvchi muxlislarning yaxlit she’riyatni qaysi bo‘laklariga ko‘ra markaziylashtirish an’anasi yuzaga kelgani bilan bog‘liq holda amalga oshgan.

Kuzatuvlar natijasida «Terma devon»lar nusxalarining barchasida alifbo tizimi amal qiladi. Bu esa tarkibi va mundarijasi turlicha bo‘lishi bilan birga ularning devon tuzish an’analaridan butkul uzoqlashmaganini ifoda eta oladi. Shuningdek, ularning katta qismi «G‘aroyibus-sig‘ar»ning birinchi g‘azali «Ashraqat min aksi ... » bilan boshlanadi, “Xazoyin ul-ma’oniy»ning boshqa devonlaridan tanlangan g‘azal bilan boshlanuvchi terma devon qo‘lyozmalari juda ozchilikni tashkil etadi. Bu hodisa, qaysidir ma’noda, «Ashraqat min aksi ... » g‘azalining devonlarni ochib beruvchi maqomi saqlanib qolishi oqibatida Navoiy she’rlarining boshqalar tomonidan tanlab tuzilgan devonlarida steriotiplarni batamom buzish mumkin bo‘lmaganini oydinlashtira oladi. Shuningdek, «Ashraqat min aksi ... » deb boshlanuvchi g‘azal Navoiy lirikasini umumiy hodisa deb qaralganda butunning kitobxon ongidagi markazlashgan bir qismi, ya’ni timsoli bo‘lishda barqarorligini ko‘rsatishi mumkin.

Biz Navoiy «Terma devon»larining O‘zR FAShI fondi asosiy fondiga oid XVI asrda ko‘chirilgan to‘rtta nusxasining tarkibini qiyosiy o‘rgandik. Xulosalarimiz ham faqat shu nusxalar asosiga qurilgan. Bizningcha, mazkur turdagi qo‘lyozma devonlarning boshqa fondlarga va XVI asrdan keyingi davrlarga tegishli turli nusxalarining tarkibini ham jiddiy o‘rganish, o‘zaro chog‘ishtirish natijasidagina «Terma devon»lar qo‘lyozmalariga doir umumiy manzarani namoyon ettirish va yakuniy xulosalarni berish mumkin.

[47] Qorayev Sh. Temuriylar davri adabiy majlislari (Alisher Navoiy qarashlari asosida). Filologiya fanlari bo‘yicha PhD ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Qarshi, 2021. – B. 50.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar:

1. Birnbaum E. Ottoman Turkish and Chaghatay literature. An Early 16th Century Manuscript of Nava'is Divan in Ottoman Orthography // Central Asiatic Journal. 1976, XX. – P. 157-190.

2. Eckmann J. Nevai'nin ilk divanları üzerine // Türk dili araştirmalari yilliği. Belleten, 13. – Ankara, 1970. – S. 253-262.

3. Lale U. Türkmen valiler Şirazlı ustalar Osmanlı okurlar / XVI. Yüzyıl Şiraz elyazmaları. İstanbul: Türkiye İş Bankası Kültür Yayınları, 2006. – S. 531.

4. Levend A. Türkiye kitapliklarindaki Nevai Yazmalari // Türk dili araştirmalari yilliği. Belleten. – Ankara, 1958. – S.127-209.

5. Walmsley N. O Navāʾī!: ımıtatıon, ınnovatıon, and the ınventıon of a Central Asıan lıterary ıcon, 1500–1900. Submitted to the faculty of the University Graduate School in partial fulfillment of the requirements for the degree Doctor of Philosophy. Indiana: Indiana University, 2016.

6. Алишер Навоий. Оққуюнли мухлислар девони (1471). Нашрга тайёрловчи: А.Эркинов. – Tokyo: Research Institute for laŋuages and cultures of Asia and Africa, 2015.

7. Алишер Навоий. Девони Фоний (давоми). Қасидалар. Муфрадот. Иловалар. Нашрга тайёрловчи ва масъул муҳаррир: Сайфиддин Рафиддинов. МАТ, 20-том. – Тошкент: Фан, 2003.

8. Алишер Навоий. Илк девон. 1466 йили кўчирилган қўлёзманинг факсимиле нашри. Нашрга тайёрловчи: филол.ф.д., проф. Ҳ. Сулаймон. Тошкент: Фан, 1968.

9. Алишер Навоий. Наводир ун-ниҳоя. Котиб: Султонали Машҳадий. ЎзР ФА ШИ асосий фонди, №1995.

10. Алишер Навоий. Наводир ун-ниҳоя. Текстни тузувчи: М.Раҳматуллаева. МАТ, 2-том. – Тошкент: Фан, 1987.

11. Алишер Навоий. Терма девонлар қўлёзмалари. №№ 1973, 7200, 1976, 4007, 2197, 9672, 2790, 5802, 7701. ЎзР ФАШИ асосий фонди.

12. Алишер Навоий. Ғазалиёт девони (898/1492–1493 йил). Масъул муҳаррир: т.ф.д., проф. Б.Абдуҳалимов. Тадқиқот қисми муаллифлари: филол.ф.д. А.Эркинов, PhD О.Мадалиева. Нашрга тайёрловчи: О.Мадалиева. – Тошкент: Фан, 2021.

13. Алишер Навоий: қомусий луғат. Масъул муҳаррир: ф.ф.д., проф. Ш.Сирожиддинов. Ижодий гуруҳ: С.Ғаниева, А.Эркинов, О.Давлатов, Э.Очилов, К.Муллахўжаева, Д.Юсупова, З.Мамадалиева, И.Исмоилов, А.Маликов, Л.Жўраева. II том. – Тошкент: Шарқ, 2016.

14. Волин С. «Описание рукописей произведений Навои в ленинградских собраниях» // Алишер Наваи. Под ред. К. Боровкова. – Москва–Ленинград: Издательство АН СССР, 1946. – С. 203-235.

15. Додхудоева, Зиёвиддинова. Неизвестный список поэмы Джами «Тухфат ал-ахрор» с миниатюрами // Жоми ва робитаҳои адаби, китоби аввал. – Душанбе, 1991.

16. Жўрабоев О. Навоий асарлари қўлёзма ва матнларини ўрганишнинг баъзи масалалари // Алишер Навоий ва XXI аср. – Тошкент, 2016. – Б. 32-38.

17. Имомназаров М. XXI аср. Алишер Навоий лирик мероси матншунослиги муаммолари. – Тошкент, 2021.

18. Карасев Л. Онтологическая поэтика // Интелрос – Интеллектуальная Россия. – С. 91–114.

19. Мадалиева О. Навоий девонлари қўлёзмаларининг таркибий-қиёсий тадқиқи (ЎзР ФА Шарқшунослик институти фонди қўлёзмалари асосида). Филология фанлари бўйича PhD илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Тошкент, 2021.

20. Мадалиева О. Навоий девонлари қўлёзмаларининг таркибий-қиёсий тадқиқи. – Тошкент: Donishmand ziyosi, 2021.

21. Мадраимов А. Алишер Навоий бадиий асарларининг XV–XVI асрлардаги қўлёзмалари. – Тошкент: Fan va texnologiyalar nashriyot matbaa uyi, 2021.

22. Максудов Б. Кодикологическое описание списка «Навадир ан-нихайа» Наваи, хранящегося в библиотеке Таджикского национального университета // Алишер Навоий ва XXI аср. – Тошкент: Mashhur-press, 2020. – Б. 9-18.

23. Қ.Муниров, А.Носиров. Алишер Навоий қўлёзма асарлари каталоги. – Тошкент: Фан, 1970.

24. Навоий дастхати (Наводир ун-ниҳоя). Нашрга тайёрловчи, сўз боши муаллифи: филол.ф.н. С.Ғаниева. – Тошкент: Фан, 1991.

25. Нагиева Ж. Бакинские рукописи Алишера Навои. – Баку: Элм, 1986.

26. Раҳматуллаева М. Алишер Навоий лирикасида синонимлар масаласи (XV асрда Султон Али Машҳадий томонидан кўчирилган «Наводирун-ниҳоя» девонининг уникал қўлёзмаси асосида). Филол. ф. номз. дисс. – Тошкент, 1965.

27. Семенов А. Описание персидских, арабских и турецких рукописей. – Ташкент: Издательство среднеазиатского государственного университета, 1935.

28. Собрание восточных рукописей академии наук Республики Узбекистан. Литература (Диваны). Том. I. Ответственный редактор академик АН РУз Д.Юсупова. Подготовка к изданию: канд. ист. наук. Х.Лутфиллаев, канд. филол. наук. С.Файзиева, О.Мадалиева. – Ташкент: Навруз, 2017. Сулаймонов Ҳ. «Хазойинул-маоний» текстларини ўрганиш ва нашрга тайёрлашнинг асосий масалалари // Алишер Навоий. Хазойинул-маоний. I том: Ғаройибус-сиғар. – Тошкент: Ўз ССР ФА, 1959.

29. Сулейманов Х. Текстологическое исследование лирики Алишера Навои / В трех томах / том первый. – Ташкент–Москва, 1955-1961.

30. А.Турдиалиев, А.Эркинов. «Бадоеъ ул-бидоя»нинг Навоий даврида кўчирилган ва янги аниқланган санали олтинчи қўлёзмаси (Султонали Машҳадий, Ҳирот, 889/1484-1485 йил) // Алишер Навоий ва XXI аср (Республика илмий-назарий анжумани материаллари). – Тошкент: Turon iqbol, 2018. – Б. 57-62.

31. Эркинов А. «Бадоеъ ул-бидоя»нинг Навоий даврида кўчирилган ва янги аниқланган санали бешинчи қўлёзмаси (888 йил, сафар ойи/1483 йил, март-апрель) // Алишер Навоий ва XXI аср. – Тошкент: Turon iqbol, 2018. – Б. 51-57.

32. Эркинов. Алишер Навоий “Хамса”си талқини манбалари (XV – XX аср боши). – Тошкент: Tamaddun, 2018.

33. Юсупова Д. «Наводир ун-ниҳоя» фақат ғазаллардан иборат девонми? // Алишер Навоий ва XXI аср. – Тошкент: Tamaddun, 2017. – Б. 54-60.

34. Ҳакимов М. Навоий асарлари қўлёзмалари тавсифи. – Тошкент: Фан, 1983.

ARAB VA O‘ZBEK XALQ MAQOLLARI LINGVOKULTUROLOGIYANING OBYEKTI SIFATIDA

Umida TADJIYEVA,
Oriental universiteti
“Sharq tillari” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada lingvokulturologiya yo‘nalishi, va ushbu yo‘nalish asosida har ikki xalqning o‘z maqollarini o‘rganilishi va tahlil qilinishi yoritilgan. Shuningdek, arab va o‘zbek xalq maqollarining ba’zilarini qiyosiy metod asosida o‘rganib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *lingvokulturologiya, lisoniy me’yor, mentalitet, lakunalar, Vatan tuyg‘usi.*

Аннотация: Данная статья посвящена области лингвокультурологии, а также изучению и анализу статей обоих народов на основе этого направления. Некоторые арабские и узбекские пословицы также были изучены на сравнительной основе.

Ключевые слова: *лингвокультурология, языковые нормы, менталитет, лакуны, чувство родины.*

Annotation: This article deals with the field of linguoculturology, and the study and analysis of the articles of both peoples on the basis of this direction. Some of the Arabic and Uzbek proverbs have also been studied on a comparative basis.

Keywords: *lingvoculturology, linguistic norms, mentality, lacunae, sense of homeland.*

Lingvokulturologiya yo‘nalishi, nutqiy muomala, so‘z tanlash, madaniy to‘siq, lisoniy me’yor, buyruq mayli, shaxs formalari, ko‘plik, hurmat tushunchasi, buyurish ma’nosini kuchaytirish hisoblanadi. Bir-biridan farq qiladigan turfa yo‘nalishlarning mavjud bo‘lishiga qaramay, zamonaviy tilshunoslikda lingvokulturologiyaning o‘rni baland soha hisoblanadi. Lingvokulturologiya – «til va madaniyat»ning uzviy aloqadorligini, uning shakllanishi va rivojlanishini o‘zida aks ettirgan hodisalar – til va madaniyatni

birgalikda o‘rganadigan alohida ilmiy soha sanaladi. Hozirgi kunda lingvokulturologiyaning qator muammolaridan biri – bu tildagi «lakunalar»dir. Ya’ni bir tilda mavjud bo‘lgan so‘z yoki tushuncha boshqa tilda bo‘lmasligi mumkin. Shunda tildagi lakunalar (bo‘shliqlar) bo‘ladi. Mana shu madaniy to‘siqlarni (lakunalarni) ya’niki tildagi nomutanosiblikni bartaraf qilish lingvokulturologiyaning muammolaridan biri sanaladi[48]. Bu borada lingvokulturologik obyekt bo‘la oladigan bir necha o‘zbek maqollarini quyidagicha talqin qilamiz:

Onasini ko‘rib qizini ol – o‘zbek xalqida odatda to‘y bo‘lishidan oldin sovchilikka boriladi. Qizning xonadonida avval ona bilan ko‘rishiladi. Ma’qul bo‘lsa, yoshlarni uchrashtiriladi.Shuning uchun ham ushbu maqol keng qo‘llanilib kelinadi.

Bir mayizni qirq kishi bo‘lib yeydi – o‘zbek xalqi odatda ahil-inoqlikda turmush kechiruvchi millatdir. Ushbu fazilat ajdodlarimizdan meros bo‘lib qolgan. Bir mayizni qirqqa bo‘lib yeyish, o‘zi yemasa ham birovga yedirishlikni anglatadi.

Yosh kelsa ishga, qari kelsa oshga – odatda o‘zbek xalqida uyda ham, katta tadbirlarda ham katta yoshli insonlar izzatda, yoshlar esa xizmatda bo‘ladilar. Yoshlar turganda kattalarning biror yumush bilan shug‘ullanishi o‘zbek xalqi uchun yot hisoblanadi. Shu o‘rinda hazilomuz bo‘lgan «O‘zbekning kichigi bo‘lguncha, qozoqning kuchugi bo‘l» maqolini ham keltirib o‘tish joiz. Ushbu maqolda oilada kichik bo‘lgan farzandlar kattalarining xizmatini qilish bilan birga, ularga bo‘ysunishi kerakligi, bu narsa mushkul ekanligi aytib o‘tiladi.

Yaxshi mehmon osh ustiga – ma’lumki o‘zbek xalqi azal-azaldan mehmondo‘st xalq hisoblanadi. Har qanday vaziyatda kirib kelgan mehmonni birdek e’zozlanadi. Agar mehmon, mezbonlarning endi ovqat suzganida kirib kelsa, ushbu maqol ishlatiladi. Shuningdek, ushbu vaziyatda «Qaynonasi suygan» degan ibora ham ishlatiladi.

Bugungi kunda dunyo tilshunosligida til birliklarining lingvomadaniy xususiyatlarini o‘rganishga jiddiy e’tibor qaratilmoqda. Bu yo‘nalishda ko‘plab izlanishlar olib borilayotgan bo‘lsa-da, o‘z yechimini kutayotgan muammolar ham mavjud. Xususan, arab va o‘zbek tillaridagi maqollarning lingvomadaniy xususiyatlarini o‘rganish chog‘ishtirma tilshunoslikning dolzarb muammolaridan biridir. Arab va o‘zbek maqollarining lingvistik tahlili shuni ko‘rsatadiki, bu ikki xalq maqollarida mushtarak va farqli lingvomadaniy xususiyatlar mavjud.

[48] Ohunova N. Lingvokulturologik tadqiqotning buyruq maylidagi maqsadi va vazifalari // «Chet tillarni o‘qitishda innovatsion usullardan foydalanishning ahamiyati va tarjimashunoslik muammolari» mavzusidagi xalqaro online ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami. – Toshkent, 2018. – B.193.

المودة شجرة والزيارة ثمرته – Mehr bir daraxtdir, ziyorat esa uning mevasidir, o‘zbekchada shunga yaqinroq: «obod qilgan, obod bo‘ladi» ma’nosida ishlatiladi.

عز الدنيا بالمال – Foniy dunyo boylik bilan azizdir, «dunyo aldamchi matohdir», degan falsafiy mazmunni anglatadi.

الكتب بساتين العلماء – Kitoblar olimlarning bo‘stonidir, o‘zbekchada «olim aytgani olam aytgani» tarzida ishlatiladi.

العجلة اخت الندامة – Shoshqaloqlik nadomat keltiruvchidir, o‘zbekchada esa «shoshgan qiz erga yolchimas» muqobilida qo‘llaniladi.

الكسل بنت الغنا وام الفقير – Dangasalik kambag‘allik onasi, xursandchilikka oshnodir, o‘zbekchada «dangasaning ishi bitmas, yoz kelsa ham qishi bitmas» tarzida ishlatiladi[49].

Turli tillarning maqollariga to‘xtalar ekanmiz, ular o‘sha til egasi bo‘lmish xalqning tarixiy, ma’naviy va moddiy madaniyati ko‘zgusi ekaniga guvoh bo‘lamiz. Shu sababli, turli til maqollarini qiyosiy o‘rganish millatning o‘ziga xos madaniy va milliy qirralarini ochishga yordam beradi, boshqacha qilib aytganda, o‘sha xalqning mentalitetini ko‘rsatadi. *«Mentalitet»* tushunchasi tilshunoslik paradigmasiga kiritilganiga hali ko‘p bo‘lmagan bo‘lsa-da, hozirda juda keng doirada qo‘llanilmoqda. Tor ma’noda mentalitet «fikrlash doirasi, dunyoqarash» mazmunida foydalanilsa, keng ma’noda esa «xalqning axloqi, tarbiyasi va tasavvuri tushuniladi». Mentalitet tushunchasini tilshunos V.Gumboldt qarashlarida ham ko‘rishimiz mumkin. Uning fikricha, mentalitet – bu «xalqning nafaqat tilida, balki adabiyoti, dini va boshqa ma’naviy jabhalarida ham o‘z aksini topgan xarakteridir». Shunday ekan, yuqorida aytib o‘tilganidek, bu «milliy xarakter» xalqning dini, siyosati, urf – odatlari, ijtimoiy qatlami, turmush tarzi, tarixi va hatto geografik o‘rni bilan ham chambarchas bog‘liq[50]. O‘zbek xalq maqollari ham, arab xalq maqollari ham turli tillar bilan chog‘ishtirma metod orqali o‘ziga xos bo‘lgan lingvomadaniy xususiyati chuqur o‘rganilgan. Quyida uning o‘zbek va ingliz maqollarining chog‘ishtirish orqali lingvomadaniy xususiyati aks etgan namunani ko‘rib chiqamiz:

Inglizcha: «The nearer the Church, the farther from God» maqolini o‘zbek tiliga tarjima qilsak «cherkovga yaqinlashgan sari Xudodan uzoqlashar», ma’nosini beradi. Bu o‘zbek tilida: «Besh vaqt namozini tark etmas, Harom-harishni farq etmas» maqoli orqali ifodalanadi. Inglizcha maqoldagi «Church» so‘zi o‘zbekcha tarjimada «cherkov» so‘zini beradi. «Cherkov» so‘zi asli o‘zbekcha so‘z emas, lekin o‘zbek tilida boshqa tillardan o‘zlashgan termin

[49] Islomova S. Arab maqollarining o‘zbek tilidagi semantik tahlili // «Chet tillarni o‘qitishda innovatsion usullardan foydalanishning ahamiyati va tarjimashunoslik muammolari» mavzusidagi xalqaro online ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami. – Toshkent, 2018. – B. 235.

[50] K.Karamatova, H.Karamatov. Proverbs – Maqollar – Пословицы. – Toshkent: Mehnat, 2000. – B. 62.

sifatida mavjud. «Cherkov» xristian diniga mansub bo‘lgan insonlarning shu dinga xos bo‘lgan rasm-rusumlarini bajaradigan joy hisoblanadi. O‘zbek tilida bu so‘zga nisbatan ekvivalent sifatida «masjid» so‘zini keltirsak bo‘ladi. Agar ikki xalqning dinidan kelib chiqadigan bo‘lsak, o‘zbek xalqining ko‘pchilik qismi islom diniga, ingliz xalqi deyarli xristian diniga sig‘inadi. Xristian dinida cherkov xristianlar uchun eng muqaddas joy sanaladi va yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, xristian diniga xos urf-odatlar, an’analar o‘sha joyda o‘tkaziladi. Islom dinida musulmonlar uchun islom diniga oid rasm-rusumlarni o‘tkazish uchun cherkovni aytolmaymiz. Chunki musulmonlar islom diniga xos urf-odatlarni bajarish maqsadida masjid, madrasa kabi ulug‘ va muqaddas dargohlarga tashrif buyurishadi. «Cherkov» va «masjid» so‘zlari har ikki tilda xalq uchun bir xil vazifani bajaruvchi so‘zlar bo‘lishiga qaramasdan, ular o‘ziga xos foydalanish funksiyalariga egadir. Bu o‘rinda xalq o‘ziga xos va mos bo‘lgan termindan foydalanadi. Shuning uchun ham maqolning o‘zbekcha variantida «cherkov» so‘zi ishlatilmadi[51].

Arab mamlakatlarida xalq maqollarining lingvomadaniy jihatdan o‘rganilishiga kelsak, shuni aytib o‘tish kerakki, insonlarning maqol va matallarga munosabati qiziqish va hurmatga to‘la. Misr yozuvchisi Xanna al-Faxuri arab aforizmlariga bag‘ishlangan «Dono so‘zlar va maqollar» kitobida shunday yozadi: «Arablar, umuman boshqa sharqiy xalqlar doimo o‘zlarida mavjud bo‘lgan dono so‘zlar va maqollarga moyil xalq hisoblanadi. Ular so‘zlarini o‘zlari bilan zaxiralashadi, qilmishlarini tushuntiradilar, sochib yuborishadi, qayg‘u va xursandchilikda ularni hayotidagi barcha voqealar to‘g‘risida maqollar orqali so‘zlaydilar. Shuning uchun maqollar va matallar kundalik tajribaning o‘ziga xos zaxirasi, hayot qonuni, keksalikning bezagi, uy ishlarini, qabilaviy ishlarni tashkil qilishda barcha insonlar uchun qo‘llanma bo‘ladi. O‘tgan asrning boshlarida P.Dixon ta’kidlaganidek, «Arablar har doim shoirlarning va boshqa «so‘z odamlari»ning maqollari va so‘zlarini nutqlarida keltirganlar, bundan ko‘rinadiki, ular hikoya qilishni yoqtirganlar va bundan zavq olganlar»[52].

Quyida arab va o‘zbek xalq maqollarining o‘ziga xos va mushtarak jihatlarini aks ettiruvchi ba’zi maqollardan namunalar keltirib o‘tiladi:

Arab xalqi o‘zbek xalqi kabi Vatanini e’zozlaydi, unga yuksak ehtirom ko‘rsatadi. Bu holat ularning maqollarida ham bevosita aks etgan:

[51] K.Karamatova, H.Karamatov. Proverbs – Maqollar – Пословицы. – Toshkent: Mehnat, 2000. – B. 62.
[52] Макудов У. Арабские пословицы и поговорки: Возникновение и развитие паремиологических словарей в арабской литературы]. Вестник Санкт-Петербургского Университета, 2012. – С. 107.

حب الوطن من الايمان[53] – ya’ni «Vatanni sevmoq iymondandir». Ushbu maqol o‘zbek xalqida ham mashhur. Zero, musulmon xalqlari uchun iymon Islom dinining birinchi sharti sifatida e’tiqodning belgisi hisoblanadi. Vatanni sevmoqlikning iymon bilan bog‘lanishi musulmon xalqi uchun Vatanning Islom dini kabi muqaddas ekanligini anglatadi. Quyidagi maqolga e’tibor qaratamiz:

Bu جميل أن يموت الانسان من اجل وطنه, و لكن الاجمل أن يحيا من اجل هذا الوطن.[54] maqolda inson Vatani uchun jonini fido qilsa qanday ham yaxshi, lekin u o‘sha Vatan uchun yashasa undan ham yaxshi ekanligi ta’kidlangan. Maqol orqali inson o‘z Vatani uchun jonini-da ayamasligi, u uchun hattoki o‘limni bo‘yniga olishi yaxshi fazilatdir, Vatani uchun kurashish har bir fuqaroning burchi ekanligini anglab yetishi lozimligi ta’kidlanadi, lekin bundan ham afzalroq narsa Vatan uchun yashashdir, ya’ni yashab turgan o‘lkaning gullab yashnashiga hissa qo‘shish, u yerdagi qonun-qoidalarga bo‘ysunish va qadriyatlarni hurmat qilish, Vatan uchun munosib farzand bo‘lib yetishish ko‘zda tutiladi.

Arab tilida Vatan va din tushunchalari yonma-yon qo‘llangan maqollar ko‘p uchraydi. Masalan:

عندما تسمع من يقول: سوف أضحي ووطني من أجل ديني...فإعلم أنه لم يفهمم معني الدين و لا معني الوطن.[55] Ushbu maqol quyidagi ma’noni anglatadi: Agar biror bir kimsaning dinim uchun Vatanimni qurbon qilaman degan gapini eshitsang, bilginki u din nimaligini ham, Vatan nimaligini ham bilmas ekan. Ushbu maqolda Vatanning naqadar muqaddas ekanligini, u insonning dini bilan bir pog‘onada turishini, ularning biri-biridan ustun qo‘yilmasligini ifoda etiladi. Shuningdek, din yo‘lida vatanga xiyonat qilish ham joiz emas.

Arab va o‘zbek xalqining Vatanga bo‘lgan yuksak e’tiqodi aks etgan maqollarda ham mushtarak jihatlar ko‘zga tashlanadi. Masalan:

خبز الوطن خير من كعكة الغربة [56] – Ushbu maqol quyidagi ma’noni anglatadi: O‘z Vataningdagi non o‘zga yurtdagi shirinlikdan afzaldir. Mazkur maqolda inson o‘z yurtida yeydigan oddiy non ham, o‘zga yurtlarda musofirlikda yeyishi mumkin bo‘ladigan shirinlikdan afzalroq bo‘lishi mumkinligi ifodalanadi.

Shu kabi maqollar o‘zbek tilida ham mavjud: «O‘zga yurtda shoh bo‘lguncha o‘z yurtingda gado bo‘l». Har ikki maqol semantik-sintaktik jihatdan turlicha shakllangan bo‘lsa-da, ularda umumiy g‘oya ifodalangan. Yurtga shoh bo‘lish, bu tuganmas boylik, dunyoning barcha noz-ne’matlariga ega bo‘lishdir. Lekin inson shunday baxtga erishsa ham uni vatan sog‘inchi tark etmaydi. O‘z

[53] حكم و أمثال عن الوطن.www.mashdoo3.com.
[54] تعلم لتطور www.intwersd.com
[55] حكم و أمثال عن الوطن.www.mashdoo3.com.
[56] حكم و أمثال عن الوطن.www.mashdoo3.com.

yurtidagi oddiy bir non barcha noz-ne’matlardan afzal bo‘lib qoladi. Shuning uchun o‘z vataningda gado bo‘l deb bejizga aytilmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Jo‘rayeva B. O‘zbek xalq maqollari shakllanishining lingvistik asoslari va pragmatik xususiyatlari. Fil.f.d… dissertatsiyasi. – Buxoro, 2020.
2. K.Karamatova, H.Karamatov. Proverbs – Maqollar – Пословицы. – Toshkent: Mehnat, 2000.
3. Максудова У. Арабские пословицы и поговорки: Возникновение и развитие паремиологических словарей в арабской литературы]. Вестник Санкт-Петербургского Университета, 2012.
4. T.Mirzayev, Sh.Turdimov. O‘zbek folklori. – Toshkent, 2020.
5. Mirzayev T. O‘zbek xalq maqollari. – Toshkent: Sharq, 2012.
6. Ohunova N. Lingvokulturologik Tadqiqotning buyruq maylidagi maqsadi va vazifalari // «Chet tillarni o‘qitishda innovatsion usullardan foydalanishning ahamiyati va tarjimashunoslik muammolari» mavzusidagi xalqaro online ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami. – Toshkent, 2018.
7. Rahmatov Y. Maqol va uning o‘zbek mumtoz adabiyotidagi evolyutsiyasi. Fil.f.d… dissertatsiyasi. – Toshkent, 2023.
8. Sh.Shomaqsudov, Sh.Shorahmedov. Ma’nolar maxzani. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2001.

XORIJIY DAVLATLARDA SHAXSNI TARBIYALASHDAGI MUHIM OMILLAR

Muhiddin TOSHOV,
Oriental universiteti
«Pedagogika va psixologiya»
kafedrasi dotsenti v.b.

Annotatsiya. Mazkur maqolada iqtisodiyoti rivojlangan Amerika Qo‘shma Shtatlari, Yaponiya hamda Xitoy davlatlarining shaxsni vatanparvar, yurt taqdiriga befarq bo‘lmaslik, o‘z xalqining qadriyatlariga sodiqlik, mas’uliyat, zamon bilan hamnafas bo‘lishi, shuningdek, kasb-hunar va ilmga bo‘lgan munosabatlarini shakllantirishdagi asosiy vazifalari yoritilgan.

Tayanch iboralar: *ikudzi, munosabat, konstruktor, davlat ramzlari, yaxshilik, to‘g‘rilik, poklik, donolik, ishonchlilik, vatanparvarlik, g‘urur.*

Аннотация. В данной статье развитые экономики США, Японии и Китая демонстрируют патриотизм, безразличие к судьбе страны, верность ценностям своего народа, ответственность, идущую в ногу со временем, а также профессионализм Описаны основные задачи в формировании отношения к науке.

Ключевые слова: *икудзи, отношение, строитель, государственные символы, добро, честность, чистота, мудрость, благонадежность, патриотизм, гордость.*

Annotation: In this article, the developed economies of the United States, Japan and China show patriotism, indifference to the fate of the country, loyalty to the values of their people, responsibility, keeping pace with the times, as well as professionalism and The main tasks in the formation of attitudes to science are described.

Key words: *ikudzi, attitude, constructor, state symbols, goodness, honesty, purity, wisdom, trustworthiness, patriotism, pride.*

Milliy pedagogikamiz asoschilaridan biri Abdurauf Fitrat «Agar saodat, izzat, osoyishtalik, rohat, sharaf, nomus va e’tibor kerak bo‘lsa, tezroq avlod tarbiyasi

usullarini bilib olib, bolalarimizni shu usul va qoidalar asosida tarbiyalashimiz lozim», – degan edi[57]. Bugun shiddat bilan o‘zgarayotgan zamonda bo‘lajak pedagog va psixologlarga ta’lim jarayonida xorijiy tajribalarni o‘rgatish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Pedagogika nazariyasi va tarixi fanidan jahon xalqlarining maktab, tarbiya va pedagogik fikrlar rivojida iqtisodiyoti rivojlangan davlatlarning tajribalaridan foydalanib o‘zimizning milliy urf-odatlar, qadriyatlarga taqqoslagan holda amalga oshirish muhimdir.

«Bola huquqlari to‘g‘risida»gi Konvensiya asosiy qoidalarining qisqacha norasmiy bayonida «Ta’lim bolaning shaxsi, iste’dodi, aqliy va jismoniy qobiliyatlari eng to‘la hajmda rivojlanishiga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. Ta’lim bolani erkin jamiyatda kattalar qatori faol yashashga tayyorlashi, o‘z ota-onasiga, madaniy o‘ziga xosligiga, til va qadriyatlariga, o‘zgalarning madaniy an’analariga hurmat ruhida tarbiyalamog‘i shart»ligi belgilab qo‘yilgan.

Yevropa Ittifoqining ta’lim tizimini yangilash, ijtimoiy buyurtmaga yaqinlashtirishga qaratilgan tavsiyalarida ta’lim muassasalari bitiruvchilarining mustaqil hayotga, konstruktiv amaliy faoliyatga tayyorlik sifatini baholashga kompetentli yondashuvni ishlab chiqish zarurligi ta’kidlandi. Rossiya Federatsiyasida kompetentlilikka yo‘naltirilgan ta’limga o‘tish 2001-yildan amalga oshirildi.

Ijtimoiy kompetensiyalar bu – har bir insonning kundalik hayotda duch keladigan yoshiga mos vazifalari bilan shu vazifalarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan malakalarining tengligidir (V.Slot, X.Spaniyard).

Jahonning rivojlangan mamlakatlari tarixi maqsadli, uzluksiz ma’naviy tarbiya taraqqiyotning insoniy kapitali bo‘lib xizmat qilishini ko‘rsatmoqda. Ya’ni tarbiyaviy qadriyatlardagi umumiylik xalq ma’naviyatini harakatlantiruvchi kuchga aylanib, ularni yagona maqsad yo‘lida xizmat qilishga tayyorlaydi[58].

Fuqarolarda zamon talablariga mos fazilatlarni qaror toptirishda AQShda fuqaro tarbiyasida shaxs nimagaki erishsa, qanday maqomni egallasa, bunga faqat o‘z aqli va iste’dodi bilangina yetishadi, kimgadir va nimagadir orqa qilish emas, balki o‘z kuchiga tayanish, «amerika orzusi»ga ishonch kabi fazilatlar yetakchilik qilganini ko‘ramiz.

Yaponiyada fuqaroni tarbiyalash – «axloqiy tarbiya» tizimi «xarakterni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim», «davlat uchun maqbul axloqiy sifatlarni

---

[57] Абдурауф Фитрат. Юрт қайғуси // «Ҳуррият», 1917. – № 31. Manba: https://tafakkur.net/abdurauf-fitrat.haqida

[58] “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiya. 1989-yil 20-noyabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyaining 44/25-sessiyasida qabul qilingan; O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning «O‘qituvchi va murabbiylar kuni» umumxalq bayrami munosabati bilan so‘zlagan nutqi. – Toshkent, 2021.

tarbiyalashga qaratilgan faoliyat», «fuqarolik axloqi asoslarini tarbiyalash» tizimi vazifasini o‘taydi.

Maktablarda guruhiy birdamlikni tarbiyalashga alohida e’tibor qaratiladi. Muhimi, boladan umumiy ishda o‘z rolini aniq bilish va shunga yarasha mas’uliyatni his qilish talab etiladi. Bunday tarbiya ko‘rgan fuqaro jamoa muammolarini o‘zining shaxsiy muammolari sifatida qabul qiladi.

Besh yoshgacha farzand – poshsho, o‘n besh yoshgacha – qul, o‘n besh yoshdan keyin – do‘st! Yaponlardan juda ko‘p narsani o‘rganish mumkin. Ayniqsa, bu kunchiqar davlatning farzandlariga tarbiya berish usullari ko‘pchilikni hayratga solib keladi. Ularning tarbiya berish usuli «ikudzi» deb nomlanib, bu faqat pedagogik ta’lim berish majmui bo‘libgina qolmay, yangi avlod ta’lim olishiga yo‘naltirilgan falsafadir!

Yaponiyada ona «amae» deb nomlanadi. Bu so‘zni to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjima qilib, uning chuqur ma’nosini yetkazib berish juda qiyin. Lekin bu so‘z «amaeru» so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, «erkalash», «homiylik qilmoq» ma’nolarini anglatadi. Yaponiya oilalarida bola tarbiyasi – ayol kishining mas’uliyati hisoblanib keladi. Albatta, XXI asr tarbiya berish taomillari nihoyatda farqlidir. Masalan, avvallari ayollar faqat xonadon ishlari bilan shug‘ullanishgan bo‘lsa, zamonaviy yapon ayollari ta’lim olishadi, ishlashadi va sayohat qilishadi.Shunga qaramay, agar ayol ona bo‘lishga qaror qilsa, u o‘zini butunlay oilaga bag‘ishlashi kerak. Farzand 3 yoshga to‘lmaguniga qadar ona bolasini o‘zi o‘stirishi va ishga chiqmasligi lozim. Ayolning asosiy majburiyati ona bo‘lishdir, zero, Yaponiyada o‘z majburiyatlarini birovning zimmasiga yuklab qo‘yish tartibi mavjud emas. Bundan tashqari, kichkintoy bir yoshga to‘lmaguniga qadar ona va bola – bu bir butunni tashkil qiladi. Ona qayerga bormasin, nima ish qilmasin, chaqaloq doim ona bilan bo‘lishi zarur! Oxirgi paytlarda «Baby-sling»lar, ya’ni bolalarni kenguru qopchasiga o‘xshash qopchalarda ko‘tarib yurish Yaponiyada juda ilgaridan mavjud bo‘lib, uning hozirgi kundagi shakli mukammallashgan zamonaviy ko‘rinishidir[59].

«Amae» – o‘z farzandining soyasidir. Muntazam jismoniy va ruhiy munosabat – onaga bo‘lgan mustahkam obro‘-e’tibor negizidir. Yapon ayollari uchun o‘z bolasini xafa qilish va ranjitishdan-da og‘irroq narsa yo‘q dunyoda.

Ikudzi nuqtayi-nazarlariga ko‘ra besh yoshgacha bola – farishtadir. U uchun man qilingan narsaning o‘zi yo‘q, unga hech kim baland gapirmaydi va hech qachon jazolamaydi. U uchun «mumkin emas», «yomon», «zararli» degan so‘zlar mavjud emas. Bolalar o‘zining bilim orttirish dunyosida erkin hayot kechiradi.

[59] Toshov M. Professional ta’lim tizimida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish. – Toshkent, 2022.

Pedagogik usullarning sezilarli farqini Azuma ota-onalikning «tushuntiruvchanlik» turi deya sharhladi. Ya'ni yaponiyalik ayollar o'z farzandlariga muomala va ish-harakatlari orqali «tushuntirishadi». Shu bilan birga farzandlariga yoshligidanoq o'z hissiyotlariga, yaqinlari va hatto buyumlariga ham e'tiborli bo'lishni o'rgatishadi. Sho'x kichkintoyni hech qachon issiq choynak oldidan haylashmaydi, bolakay kuyib qolsa, «amae» undan uzr so'ragan holda ish-harakatlari unga og'riq yetkazganini eslatib qo'yadi.

Boshqa misol: erkalanib ketgan bolakay hamma o'yinchoqlarini sindirib tashlaganda amerikalik yoki yevropalik onalar qanday yo'l tutadilar? Taxmin qilish mumkinki, qo'lidan o'yinchoqni tortib olib, uni sotib olish uchun qancha mehnat qilganligi haqida «ma'ruza» o'qib beradi… Yaponiyalik ayol esa hech qanday chora qo'llamaydi. Shunchaki «Sen uning jonini og'rityapsan», deydi. Shunday qilib, rasmiy jihatdan yaponiyalik bolakaylarga 5 yoshgacha hamma narsa mumkin. Bu bilan birga bolada «Men» timsoli hamda «yaxshi» – tarbiyali va chin dildan sevuvchi ota-ona fikri shakllanadi. Besh yoshida bola "shafqatsiz haqiqat" bilan yuzlanadi, ular rioya qilishi shart bo'lgan berahm qoida va cheklanishlar nimaligini ko'radi. Bola uchun bunday keskin o'zgarish og'irlik qilsa kerak, deb o'ylashingiz ham mumkin, albatta. Tabiat va ob-havo hamda iqtisodiy sharoitlar odamlarni bir-biri bilan jamuljam bo'lib ishlash va yashashga majburlaydi. Faqat bir-birini qo'llash va fidokorlik guruhning umumiy hosiliga ega bo'lishni ta'minlaydi, ya'ni mo'l-ko'lchilikni olib keladi. Bu bilan biz "syudan isiki", ya'ni jamoaviy ongni kuchli rivojlanganligini hamda "ie" tizimi, ya'ni patriarxal oilaviy tuzumni ko'rishimiz mumkin. Yaponlar uchun jamoaviy qiziqishlar barcha narsadan ustun. Odamzod esa og'ir mexanizmning bir bo'lakchasi bo'lib, agar bir inson jamoada o'z o'rnini topa olmasa, demak, u e'tibordan qolgan odam! Aynan shu sabablarga ko'ra bolalarga 5 yoshgacha ushbu guruh a'zosi bo'lishni o'rgatishadi. Ularga «Agar shunday yo'l tutsang, ustingdan hamma kuladi» nutqi juda tanish. Zero, yaponlar uchun jamoadan chetlanishdan-da qo'rqinchli narsaning o'zi yo'q va bolalar ham shaxsiy egoistik qiziqishlarini qurbon qilishga tez o'rganishadi. Doim o'zgaruvchi tarbiyachi yoki maxsus tayyorlovchi maktab o'qituvchisi ham murabbiy yoki tarbiyasi rolini emas, yo'naltiruvchi vazifasini bajarishadi. Uning pedagogik uslub xazinasida «Tarbiyasini kuzatuvchilarni vakil qilish»ini ko'rish mumkin. Masalan, qo'l ostidagi tarbiya beruvchisiga vazifa berish bilan birga tarbiyalanuvchilarni guruhlarga bo'lib, o'z guruhidagilar ishini kuzatish vazifasi yuklatiladi[60].

Yapon bolakaylarining sevimli mashg'uloti – guruhda bajariladigan sport o'yinlari, estafeta va xor qo'shiqlarini kuylashdir. Guruh qoidalariga rioya qilish

[60] Toshov M. Professional ta'lim tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish. – Toshkent, 2022.

ham onaga bog‘lanib qolishda yordam beradi. Axir, jamoa tartibini buzsa, “amae” juda qattiq ranjiydi, bu esa onasiga emas, shu bolaning o‘ziga isnod degani. Shunday qilib, bolakayning keyingi 10 yil hayotida guruhning bir qismi bo‘lishga, jamoada kelishib ishlashga o‘rgatiladi. Bunga ko‘ra unda guruhiy ongi hamda jamoaviy javobgarligi shakllanadi.

15 yoshga kirgan bola to‘laqonli shakllanib voyaga yetgan shaxs sanaladi. Endi asosida avvalgi ikki bosqich yotuvchi qarshilik ko‘rsatish va teng huquqlik bosqichi kirib keladi. «Ikudzi – bizning tushunchamizga ko‘ra tarbiya berishning mantiqqa zid shaklidir». Biroq bu usul asrlar mobaynida tekshirilgan va vataniga sodiq, qonunlarga rioya qiluvchi tarbiyali fuqaroni katta qilishda yordam beradi. Bolalar bizning kelajagimiz va ularning tarbiyasi masalasi juda jiddiy. Turli mamlakatlarda bolalarni tarbiyalashning o‘ziga xos xususiyatlari va an’analari ustunlik qiladi. O‘zini o‘zi qoniqtiradigan, xudbin bo‘lgan bolalarning yaxshi va munosib oilalarda bo‘lishi to‘g‘ridan to‘g‘ri isbotdir. Ushbu maqolada biz Yaponiyada bolalarning oilaviy maktabgacha ta’limini qisqacha ko‘rib chiqamiz, chunki bu mamlakatda bolalarning tarbiyalanishi xarakterli xususiyatlarga ega.

Yaponiyadagi ichki voqeliklarda dolzarbligi va samaradorligi haqida turli fikr-mulohazalar mavjud. Axir u Yaponiyada bir asr mobaynida rivojlanib, madaniyati bilan uzviy bog‘liqdir. Bu siz uchun faqatgina samarali va dolzarb bo‘ladimi?

«Ideal yaponning fazilatlari» deb nomlangan hujjatda yapon yoshlarida 16 fazilat 4 ta guruhga bo‘lib tarbiyalanadi. Bular:

1) shaxsiy sifatlar: erkinlik, o‘ziga xoslikni rivojlantirish, mustaqil bo‘lish, o‘z xohishlarini idora qila olish, pietet tuyg‘usiga egalik;

2) oila boshlig‘iga xos sifatlar: o‘z uyini mehr-muhabbat, halovat va tarbiya maskaniga aylantira olish;

3) ijtimoiy sifatlar: o‘z ishiga sadoqat, jamiyat farovonligiga hissa qo‘shish, ijodkorlik, milliy (ijtimoiy) qadriyatlarni hurmat qilish;

4) fuqarolik sifatlari: Vatanga sodiq bo‘lish, davlat ramzlarini qadrlash, ijtimoiy faollik, eng yaxshi milliy fazilatlar sohibi bo‘lishni o‘rgatadi.

Xitoyda Konfutsiylik axloqining besh asosiy ustuni etib yaxshilik, to‘g‘rilik, poklik, donolik va ishonchlilik kabi fazilatlar belgilab olinadi va amal qilinadi. Yoshlar tarbiyasi «Ona Vatanga xizmat qilish va sodiq bo‘lish» g‘oyasi asosida tashkil etildi. Yoshlar shaxsiy va milliy manfaatlarni uyg‘un tutishga o‘rgatib borildi. Qadimgi Xitoy falsafasida turli xil yo‘nalish va oqimlar mavjud. Ularda falsafiy tafakkur qadriyatlarini ishlab chiqishga uringan mashhur kishilar, o‘z davrining ko‘zga ko‘ringan donishmandlari tabiat, jamiyat va inson hayotiga taalluqli bo‘lgan ko‘pgina muammolarning real yechimini izlaganlar. Bunday

muammolarni o‘z ijtimoiy ideallaridan kelib chiqqan holda hal etishga uringanlar. Tabiiyki, muammolarning yechimi bir xil emas, chunki olam cheksiz va benihoyadir. Ularni chegaralangan nazariy tamoyillar tizimi vositasida qamrab olish mumkin emas. Falsafiy maktablar, yo‘nalishlarning turli-tumanligini, shu bilan izohlash mumkin. Xitoy mifologiyalarida butun koinot - osmon, er va tabiat hodisalari ilohiylashtirilgan bo‘lib, inson hayot kechirish muhitini tashkil qiladi. Aynan shu afsonalashtirilgan muhitdan narsalar, hodisalar mavjudligini ta’minlaydigan, ularni boshqarib turadigan oliy bir tamoyil keltirib chiqariladi. Bu tamoyil ko‘pincha oliy hukmdor (shandi), ba’zan esa oddiy osmon (tyan) sifatida ishlatib kelingan. Qadimgi Xitoy falsafasi konservativ sivilizatsiyaning bir qismi bo‘lib, u diniy matnlar madaniyatiga tayanardi. Hindistonda bo‘lgani kabi, ozod bo‘lish yoki xalos bo‘lishga nisbatan qiziqish unchalik kuchli bo‘lmagan.

Aksincha, u ko‘proq amaliy va pragmatik yo‘nalishga ega edi. Xitoy faylasuflari asosan kambag‘al a’yonlarga mansub bo‘lgan. Ular ko‘pincha g‘oyat ulkan imperatorlik saroylari qoshida amal qilgan ma’muriy tizim sektorlarida faoliyat yuritishgan. Ko‘pgina buyuk xitoy mutafakkirlari ana shu ijtimoiy muhitning samarasi sifatida dunyoga kelgan. Ko‘pchilik tomonidan hurmat-ehtirom ila tan olingan donishmandlar ta’sirida asta-sekin Xitoy falsafiy tafakkuri shakllana borgan. Ko‘p hollarda ularning ismlari aniq bo‘lmasa-da, aynan ular asotirlar, afsonalar ma’naviy ta’siridan ozod bo‘la borganlar va olam to‘g‘risidagi ilk dunyoqarashni o‘zlarida shakllantirib, rivojlantirganlar.

An’anaviy konfutsiychilikning asosiy tushunchalari quyidagilar: «Li» – urf-odat va marosimlarga rioya etish, udum; «Si» – axloqiy me’yorlarni amalga oshirish; «In» – ijobiy ibtido, «Yan» – salbiy ibtido, «Dao» – osmon, koinot yo‘li bo‘lib, muayyan tartib va qonunga binoan mavjud, uning ifodasi esa insonning xulq-atvori bo‘lishi lozim, «Chjen» – insonparvarlik, «I» – burch, «Sin» – samimiylik va ba’zi boshqalar.

AQShda milliy g‘oya vazifasini «amerika orzusi» (american dream) bajarmoqda. U amerika davlatining oliy qadriyatlari yig‘indisi, millatning ma’naviy onasi deb tushuniladi. «Amerika orzusi»ning asosiy tushunchalarini shaxs erkinligi, erkin tadbirkorlik, demokratiya, muvaffaqiyatga erishishga qaratilgan mehnat tashkil qiladi.

Vatanparvarlik – shaxs ma’naviyatining ajralmas qismidir. Yurt kelajagi, vatanimiz taraqqiyoti va xalqimizning ertangi kuni qanday bo‘lishi farzandlarimiz va yoshlarimizning qay darajada vatanparvar ekanliklariga bog‘liq. Hozirgi kunda ta’lim muassasalarida vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishga yagona ilmiy asoslangan yondashuvni ishlab chiqish kam sonli olimlar guruhining emas, balki butun boshli siyosiy-tadqiqot va fuqarolik jamiyati institutlarining ham muhim

vazifasi hisoblanadi. Vatanarvarlik hissini singdirishda ham xorijiy davlatlar tajribasi va yutuqlarini o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Shu o‘rinda O‘zbekistondagi tarbiyaviy va vatanparvarlik yo‘nalishi bo‘yicha olib borilayotgan ishlar fonida dunyoning qudratli davlatlaridan biri – AQSh vatanparvarlik tarbiyasi tajribasiga murojaat qilamiz. AQShda vatanparvarlikni shakllantirish tarixiy, madaniy, axloqiy, mafkuraviy va hayotiy qadriyatlarni rivojlantirish asosida amalga oshiriladi: «Novus Ordo Seclorum» («Yangi dunyo tartibi»).Bugungi kunda AQShning dunyodagi roli juda ziddiyatli. Bir tomondan, bu davlat tashqi siyosatida turli usullar bilan dunyodagi yetakchilik mavqeyini saqlab qolishga intilsa, boshqa tomondan esa, dunyodagi eng katta, qudratli iqtisodiyotlardan biri bo‘lib, o‘z fuqarolarining farovonligini juda yaxshi ta’minlaydi. AQSh qudratining asosi fuqarolarning vatanparvarligidir. Ko‘pchilik Amerika vatanparvarligi noyob hodisa ekanligini ta’kidlamoqda. Amerikacha vatanparvarlikning etnik, milliy yoki lingvistik asoslari yo‘q. Amerika vatanparvarligining mohiyati – «Novus Ordo Seclorum»da (so‘zma-so‘z «asrlarning yangi tartibi») – Amerika demokratik qadriyatlarining ustunligiga bo‘lgan ishonch. U o‘tmishdagi ideallarga intilmasdan, kelajakka qaratilgan.

AQShda o‘tkazilgan so‘rovlar shuni ko‘rsatadiki, amerikaliklarning to‘rtdan uch qismi o‘z mamlakati bilan faxrlanadi. Yarmi o‘z uylarini milliy bayroq bilan bezashadi. Haydovchilarning 15-20 foizi avtomobillariga Amerika bayrog‘ini osib qo‘yishadi. AQShda vatanparvarlik namoyishlari dunyoning aksariyat mamlakatlaridan farqli o‘laroq, rasmiylar tomonidan emas, balki amerikaliklarning o‘zlari tomonidan uyushtirilmoqda.

Vatanparvarlikning markaziy g‘oyalari erkinlik, tenglik va adolat tamoyillaridir. AQSh jamiyatining hayoti ana shu uch g‘oyaga asoslanadi. Ular insoniyat hozirgi paytda erishmoqchi bo‘lgan va kelajakda avlodlariga berishni istagan g‘oyalarni o‘zida mujassam etadi. Vatanparvar xarakterining fazilatlari jasorat, mas’uliyat, ta’sischilarga minnatdorchilik va umumiy manfaatlar uchun fidoyilikdir. Amerika xalqining o‘z-o‘zini anglashi Amerika milliy g‘oyasining adolatning maxsus shakli sifatida o‘ziga xosligini anglatadi.

Vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda AQSh universitetlari alohida o‘rin tutadi. Qo‘shma Shtatlarda 1350 dan ortiq jamoat kollejlari va 2000 ga yaqin kollej va universitetlar mavjud. Xususiy o‘quv yurtlarining umumiy soni 65 foizni tashkil qiladi. Amerika oliy ta’lim tizimi boshqalardan farqli o‘laroq muhim iqtisodiy, ijtimoiy va mafkuraviy funksiyalarni bajaradigan, shu jumladan, talabalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalaydigan yagona ijtimoiy institutni tashkil etadigan o‘quv rejalari, kurslari va fanlari mavjud.

AQShda vatanparvarlikning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi: AQSh Konstitutsiyasiga muvofiq axloq va erkinliklarning amalga oshirilishi. Ushbu tarkibiy qism AQShda vatanparvarlikning asosini tashkil qiladi. Amerikaliklar o‘z huquqlaridan foydalanishni vatanparvarlik deb hisoblashadi. Bu hukumatni ochiq tanqid qilish, siyosatdagi o‘zgarishlarni izlash va umumiy muammolarni hal qilish uchun boshqa fuqarolarni jalb qilish imkonini beradi. 1791-yilda qabul qilingan Konstitutsiya so‘z, matbuot, yig‘ilish va din erkinligini cheklashi mumkin bo‘lgan qonunlarni qabul qilishga imkon bermaydigan qilib ishlab chiqilgan.

Barcha amerikaliklar tomonidan qadrlanadigan va tan olingan davlat ramzlari (madhiya va bayroq). AQSh madhiyasi 1812-yilda yozilgan va faqat 1931-yilda rasmiy davlat madhiyasi sifatida tan olingan. Madhiya an’anaviy ravishda, ko‘pincha jonli ijro etiladi, bu esa tantanani kuchaytiradi. Aksariyat amerikaliklar madhiya so‘zlarini bilishadi. Har bir shtatning ham o‘z bayrog‘i bor va shtat aholisi ko‘pincha uni davlat bayrog‘i yonida osib qo‘yishadi. Kongressmenlar va senatorlar har doim o‘zlarining bayroqlari manfaatlariga sodiqligini ta’kidlab, idoralarida AQSh bayrog‘i yoniga o‘zlarining bayrog‘ini qo‘yadilar. Keyingi ramz (bu asosiy kalitlardan biri) qanotlarini yoygan burgut AQShning ramzi. Ushbu gerb 1782-yilning yozida qabul qilingan va unda chizilgan rasm buyuk intilishlarni, millat mustaqilligini anglatadi va yaxshi kelajakka umid belgisidir. AQShda vatanparvarlik yuqori darajada. Amerika o‘z vatanparvarligi bilan nafas oladi, u bilan faxrlanadi va turli xil mashhur guruhlar aynan vatanparvarlik tuyg‘usi sababli birlashadi. Amerika maktablarining har bir sinfida davlat bayrog‘i osilgan. Jarayonlarning tanqidiy talqiniga xalaqit bermaslik uchun ilmiy soha vatanparvarlikdan xoli. Yoshlar doimo haqiqatni izlash, tanqidiy tahlil qilish bilan ajralib turadi. Ilmiy sohaning tizimli vatanparvarlik ta’limidan ozodligi yoshlarning tashqi va ichki siyosat masalalariga, shu jumladan, amaldagi prezidentga va barcha hokimiyat organlariga tanqidiy munosabatini ta’minlashga qaratilgan.

AQShda Prezident – davlatning va vatanparvarlikning tirik timsoli hamda g‘ururi. Prezidentlik instituti vatanparvarlikning tarkibiy qismi sifatida davlatning tirik belgisi va vatanparvarlik manbai bo‘lib xizmat qiladi. Amerika xalqi ishidagi xato va kamchiliklariga qaramay, o‘z prezidentlari bilan faxrlanadilar. AQSh hukumatining siyosati qanchalik to‘g‘ri bo‘lishidan qat’i nazar, harbiy xizmatchilarni qo‘llab-quvvatlash. 87% amerikaliklar harbiy xizmatni individual vatanparvarlikning yorqin namoyishi deb bilishadi. 2001-yil 11-sentabr xurujlaridan so‘ng mamlakatda vatanparvarlik tuyg‘usi ko‘tarildi, qurolli kuchlarga qo‘shilishni istaganlar oqimi sezilarli darajada o‘sdi.Ta’kidlash joizki,

Amerika vatanparvarligi bu mamlakatga yangi hayot izlab kelgan millionlab Amerika fuqarolarini, turli mamlakatlardan kelgan muhojirlarni to‘playdigan makondir. Agar vatanparvarlik tarbiyasining puxta o‘ylangan va samarali dasturi bo‘lmaganida edi, AQSh eng qudratli davlatlardan biriga aylanmagan bo‘lardi.

Yuqorida qayd etilganidek, yaxshilik, to‘g‘rilik, poklik, donolik, ishchanlik, vatanparvarlik, g‘urur, samimiylik kabi tushunchalar VII asrdan to bugungi kungacha o‘zbek xalqining qon-qoniga singib ketganligini juda yaxshi bilamiz. Shunday bo‘lsa-da, yoshlar tarbiyasi davlat siyosati darajasida ekanligini anglab, ularning qalbida yurt manfaatlari yo‘lida xizmat qilishida dasturi-amal bo‘lishi zarur. Ana shunday yuksak vazifalarni amalga oshirishda biz pedagoglar xorijiy davlatlarning farzand tarbiyasi haqidagi qarashlarni o‘rganish muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. «Bola huquqlari to‘g‘risida»gi Konvensiya. 1989-yil 20-noyabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 44/25-sessiyasida qabul qilgan.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning «O‘qituvchi va murabbiylar kuni» umumxalq bayrami munosabati bilan so‘zlagan nutqi. 2021-yil.

3. Toshov M. Professional ta’lim tizimida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish. – Toshkent, 2022.

4. Абдурауф Фитрат. Юрт қайғуси // Ҳуррият. – Тошкент, 1917. – № 31. Manba: https://tafakkur.net/abdurauf-fitrat.haqida

TARBIYAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING TA'LIM JARAYONIDAGI AHAMIYATI

Nargiza MIRSAGATOVA,
Oriental universiteti «Pedagogika va psixologiya» kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada ta'lim jarayonini tashkil etishda tarbiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari, vazifalari hamda pedagogning tarbiyaviy ishlarni tashkil etishga nisbatan kompleks yondashuvi borasidagi masalalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: *tarbiya jarayoni, tarbiya texnologiyalari, kompleks yondashuv, tarbiyaviy ish rejasi.*

Аннотация. В статье истолковываются возможности применения технологий воспитания в формировании учебного процесса и задачи комплексного подхода педагога относительно организации воспитательных работ.

Ключевые слова: *процесс воспитания, технологии воспитания, комплексный подход, план воспитания.*

Annotation. In the article there are infrpreted the possibilities, duties of using the technologies of nurture in the Formation of educational process as well as the tasks of educators concerning a complex approach in the or ganization of educaive proceedings.

Keywords: *educative proceedings, nurturing technologies, complex approach, nurturing plan.*

«Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar samarasi avvalambor yuksak ma'naviyatli, mustaqil fikrlaydigan, Vatanimiz taqdiri va istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir yosh kadrlar safini kengaytirishga bevosita bog'liq»[61] *...*

[61] «Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir» – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. – «Xalq so'zi» gazetasi. 2017-yil, 8-dekabr.

Mamlakatimiz insonparvar va demokratik jamiyat qurish yo‘lidan borar ekan, o‘z fuqarolarining, ayniqsa yangi jamiyat barpo etishga bel bog‘lagan, o‘sib kelayotgan avlod va bo‘lajak mutaxassislarning ma’naviy shakllanishiga alohida e’tibor qaratmoqda. Bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri o‘sib kelayotgan yosh avlodni ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, intellektual umuman har bir sohada rivojlangan davlatlar kadrlari bilan bemalol raqobatga kirisha oladigan, jahon hamjamiyati safidan munosib o‘rin egallashga qodir bo‘lgan, o‘z kuchini ezgu maqsadlarga safarbar eta oladigan kadrlar qilib tayyorlashdan iborat.

Bu harakatlar natijasi ta’lim muassasalarida yosh avlodga zamonaviy bilimlarni puxta o‘rgatish, ularda keng dunyoqarash hamda tafakkur ko‘lamini hosil qilish, ma’naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishda ta’limiy-tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etishga bog‘liqdir. Zero, yurtning porloq istiqbolini yaratish, uning nomini jahonga keng yoyish, ulug‘ ajdodlar tomonidan yaratilgan ilmiy madaniy merosni jamiyatga namoyish etish, ularni boyitish, mustaqil O‘zbekistonning barcha sohalarda rivojlangan mamlakatlar qatoridan joy egallashini ta’minlash yosh avlodni barkamol shaxs hamda yetuk mutaxassis qilib tarbiyalashga bog‘liq.

Mazkur masalaning mazmun-mohiyati, yoshlarda yuksak ma’naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish masalalari tarbiya texnologiyalari orqali singdirishga bo‘lgan ehtiyojlarni qondirishga xizmat qiluvchi manbalarda o‘z aksini topgan.

Ta’lim jarayonida tarbiyaviy texnologiyalardan foydalanishning xususiyatlari to‘g‘risidagi qarashlar qator pedagog va psixolog olimlar M.Saidaxmedov, N.Almetov, Z.N.Nishonova, N.N.Azizxodjayeva, J.Tolipova, M.T.Mirsoliyeva, B.Xodjayev va boshqalar tomonidan yaratilgan manbalarda o‘z aksini topgan.

Ta’lim muassasalarida tarbiyaviy texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-amaliy imkoniyatlarini tadqiq qilish ikki muhim holatni yuzaga keltiradi:

- birinchidan, ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya jarayoni sifat ko‘rsatkichiga ega bo‘lish ta’minlansa;

- ikkinchidan, ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan o‘rganuvchilar ma’naviy-axloqiy rivojlanib, ma’lum ko‘nikma, malaka va tajribaga ega bo‘lishlariga xizmat qiladi.

Tarbiyaviy jarayonga texnologik yondashuv zamonaviy pedagogika sohasining eng dolzarb masalalaridan biridir. «Tarbiya – ma’naviy manbalar va hozirgi zamon talablari va ehtiyojlarini nazarda tutgan holda o‘qituvchining ta’lim oluvchi bilan aniq bir maqsadga qaratilgan o‘zaro ommaviy va nazariy muloqotidir»[62].

[62] Абдулла Авлоний. Туркий Гулистон ёхуд ахлоқ. – Тошкент: Ўқитувчи, 1967. – Б. 25.

Ta’lim va tarbiya bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan jarayon bo‘lib, o‘qituvchi ta’lim oluvchilarga faqat nazariy bilim berib qolmasdan, balki ularni yaxshi odob-axloqli, imonli, e’tiqodli, ma’naviyatli shaxs sifatida tarbiyalashga mas’uldir.

Abdulla Avloniy o‘zining «Turkiy guliston yoxud axloq» asarida inson kamolotida tarbiyaning rolini alohida ta’kidlab yozadi: «Janobi haq insonlarning asl xilqatda iste’dod va qobiliyatli, yaxshi ila yomonni, foyda ila zararni, oq ila qorani ayiradigan qilib yaratgan. Lekin bu insondagi qobiliyatni kamolga yetkazmoq tarbiya vositasida bo‘ladi. Agar bola yaxshi tarbiya topib, buzuq xulqlardan saqlanib, go‘zal xulqlarga odatlanib katta bo‘lsa, har kim qoshida maqbul, baxtiyor bir inson bo‘lib chiqadi. Agar tarbiyasiz, axloqi buzilib o‘ssa, nasihatni qulog‘iga olmaydigan, har xil buzuq ishlarni qiladigan, nodon, johil bir rasvoyi olam bo‘lib qoladi. Tarbiya qiluvchilar tabib kabidurki, tabib xastaning badanidagi kasaliga davo qilgani kabi tarbiyani bolaning vujudidagi johil maraziga «yaxshi xulq» degan davoni ichidan, «poklik» degan davoni ustidan berib, katta qilmog‘i lozimdir. Zeroki, amri sharifi uzra xulqimizni tuzatmoqqa amr qilinganmiz. Lekin xulqimizning yaxshi bo‘lishining asosiy panjasi tarbiyadir.

Axloqimiz binosining go‘zal va chiroyli bo‘lishiga tarbiyaning zo‘r ta’siri bordir»[63].

Tarbiya jarayoni – bu shaxsning shakllanishiga maqsadli yo‘naltirilgan, pedagog va ta’lim oluvchilar hamkorligi uchun maxsus tashkil etilgan, boshqariladigan va nazorat qilinadigan, o‘zining pirovard maqsadi sifatida shaxsni shakllantiradigan jarayondir.

Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar belgilangan:

– yoshlarning ma’naviy-ma’rifiy qarashlarini, axloqiy bilim va tasavvurlarini, ma’naviy savodxonligini yanada o‘stirish;

– milliy-ma’naviy qadriyatlar, ularning mazmuni, mohiyatiga doir bilim, ko‘nikma va malakalarini takomillashtirish;

– yoshlarning ma’naviy-ma’rifiy va axloqiy madaniyatini oshirish;

– axloqiy fazilatlarning milliy mustaqillik, yuksak insoniy fazilatlar bilan chambarchas bog‘liq ekani ongli va puxta o‘zlashtirilishiga erishish;

– yoshlar ma’naviyatiga xavf tug‘diruvchi ichki omillar: mahalliychilik, tanish-bilishchilik, urug‘-aymoqchilik, poraxo‘rlik, bilimsizlik, madaniyatsizlik, milliy qadriyatlarni mensimaslik singari illatlarga qarshi kurasha olish xususiyatlarini shakllantirish;

– mustaqillikka xavf tug‘diruvchi tashqi omillar: diniy ekstremizm,

[63] O‘sha joy.

aqidaparastlik, vahhobiylik, akromiylik, hizb ut-tahrir, missionerlik, kosmopolitizm oqimlarining tahdididan o‘zini himoya eta olish va ularga qarshi kurasha olish ko‘nikmalarini hosil qilish;

– milliy-madaniy merosimizni, buyuk allomalarimizning hayotiy va ilmiy faoliyatini, milliy qadriyatlarimizni muntazam o‘rganib borish uchun shaxsiy qiziqishlarni shakllantirish;

– madaniyatimiz, adabiyotimiz va san’atimiz tarixidagi yodgorliklarning asl mohiyatini to‘g‘ri anglash, talqin qilish va izohlay olishga doir ko‘nikma va malakalarni shakllantirish;

– adabiyot va san’atga doir masalalarni, milliy-ma’naviy qadriyatlar mazmuni va mohiyatini ilmiy-mantiqiy jihatdan bilish, ulardagi yuksak insoniy tushuncha va tamoyillarni his etish, bahs yurita olishlariga erishish;

– har bir shaxsda munozaraga kirisha olish malakasini shakllantirish;

– ma’naviyat va yuksak axloqiy fazilatlar targ‘ibotiga bag‘ishlangan tadbirlarni tashkil qilish.

Tarbiya jarayoni mas’uliyat talab etadigan uzluksiz jarayon bo‘lib, u nafaqat auditoriyada, balki auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarda, tarbiyaviy va axborot soatlarida, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda amalga oshiriladi. Buning uchun esa auditoriyada va auditoriyadan tashqari faoliyat tizimining muvaffaqiyatli loyihasini yaratish hamda shaxsiy yondashuvni talab etadi.

Ta’lim jarayonida tarbiyaviy texnologiyalardan foydalanishda pedagogik jarayondagi har bir faoliyatni alohida loyihalash, pedagogik hamkorlik va pedagogik jihatdan to‘g‘ri yondashuv talab etiladi.

Tarbiya texnologiyalaridan foydalanish quyidagi majburiy talablarni bajargan holda kompleks yondashuvni amalga oshiradi:

– tarbiyalanuvchilarga uch yo‘nalish – ongi, hissi va axloqi bo‘yicha ta’sir ko‘rsatiladi;

– tarbiya (tashqi pedagogik ta’sir) va shaxsning o‘zini-o‘zi tarbiyalashi tabiiy ravishda o‘zaro qo‘shilib ijobiy natijalarga erishiladi.

Ta’lim jarayonida tarbiya texnologiyasining vazifalari quyidagilardan iborat:

– Vatanparvar shaxsni tarbiyalash;
– Shaxsning ma’naviyatini shakllantirish;
– Mehnatkash insonning iqtisodiy tafakkurini tarbiyalash;
– Ruhiy-jismoniy sog‘lomlikni tarbiyalash;
– Kishining tabiat bilan munosabatini uyg‘unlashtirish;
– Shaxsda individuallik va jamoaviylikni tarbiyalash.

Ta’lim muassasalarida tashkil etilgan tarbiyaviy jarayon ish reja tuzishni talab etadi. Tarbiyaviy ish rejani tuzish qoidalarini quyidagicha ifodalash mumkin:

– diagnostik asos;

– ta’lim oluvchilarning o‘ziga xos xususiyatlarini, jamoaning mahorat darajasi va shakllanganligini hisobga olish;

– tarbiyaviy jarayonda asosiy mazmuniy komponentlarga muvofiq faoliyat aniq yo‘nalishining ifodalanishi;

– muddatlarini, tadbirlarni o‘tkazish shakllarini, ishtirokchilarini aniq belgilash;

– rejaning qulayligi, realligi va aniqligi.

Shu bilan birga, pedagogdan chuqur bilim, malaka, tajriba, xohish talab etgani kabi ta’lim oluvchilardan ham intilish, mas’uliyat, shu narsaga nisbatan ehtiyojni talab etadi.

Hozirgi kunda «Barkamol shaxsni shakllantirish muammosining ijtimoiy zarurat sifatida e’tirof etilayotganligini nazarda tutadigan bo‘lsak, tarbiya jarayonini tashkil etishga nisbatan yangicha yondashuvni qaror toptirish, mazkur jarayonni texnologiyalashtirishga erishish muhim pedagogik vazifalardan biri ekanligini yanada chuqurroq anglaymiz»[64].

«Tarbiyaviy tadbirlar – turli xil moddiy va ma’naviy ehtiyojlarga javob beruvchi, tarbiyaviy maqsadlarning yagona majmuasiga bo‘ysundirilgan, bir-biri bilan o‘zaro hamkorlik qiluvchi, o‘zida bir butun ta’limni ko‘zda tutgan tarbiyaviy ta’sir majmuasidir. Ta’lim jarayoni alohida darslardan tashkil topgani kabi tarbiyaviy tadbirlardan tarbiya jarayoni vujudga keladi»[65].

Ana shunday maqsadlarga to‘liq javob beradigan tarbiya jarayonini tashkil etishda pedagog tomonidan yo‘l qo‘yiladigan e’tiborsizlik, mas’uliyatsizlik, bu ishga chin dildan yondashmaslik turlicha salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Kompleks yondashuvning zarur sharti – tarbiyaga aloqador bo‘lgan barcha ijtimoiy institutlar va muassasalar, birinchi navbatda, ommaviy axborot vositalari, adabiyot, san’at, oilalar, maktablar, huquq-tartibot organlari, jamoalar va guruhlarning harakatlarini birlashtirish va muvofiqlashtirishdir. Shaxsga berilgan xislatlar aniq tarbiyaviy ishlar sistemasi orqali shakllantiriladi. Bu ishlar alohida kompleks xarakterga ega bo‘lib, ayni vaqtda aqliy, jismoniy, axloqiy, estetik va mehnat tarbiyasining tabiiy qo‘shilgan jarayonini amalga oshirishni talab etadi,

[64] O‘.Tolipov, M. Usmonboyeva. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006. – B. 236.
[65] R.Ishmuhamedov va boshqalar. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. – Toshkent, 2010. – B. 7.

ya’ni axloqiy tarbiya mehnat va estetik tarbiya bilan, aqliy tarbiya jismoniy va axloqiy tarbiya bilan, mehnat tarbiyasi aqliy tarbiya bilan bog‘liq.

Tarbiya nazariyasi bo‘limi ham tarbiyaviy vazifalarni kompleks hal etish lozimligini tatbiq etadi va amaliyotga soddalashtirilgan yondashuv maqsadini taklif etadi. Kompleks yondashuv tarbiya jarayoni va uni boshqarishga tizimli yondashuvni ko‘zda tutadi. Agar tarbiyada ishtirok etuvchi ichki va tashqi omillar hamda ular orasida aloqaning mavjudligi hisobga olingan bo‘lsa, shundagina boshqaruv samarali bo‘lishi mumkin. Buning uchun mazkur omillar va ularning ta’sir etish xarakteri haqida aniq tasavvurga ega bo‘lish kerak.

Tarbiyaviy ishlar asosida ikki: faol va kompleks yondashuv yotadi.

Birinchisi faoliyatning turli ko‘rinishlarini tashkil etishni talab etadi: bilish, mehnat, ijtimoiy, badiiy, sport va erkin muloqot.

Ikkinchisi esa, yuqorida ta’kidlanganidek, faoliyat barcha ko‘rinishlarining yagona jarayonga ta’siri bilan tabiiy “qo‘shilib” ketishida ko‘rinadi.

Tarbiyaviy ishlar ayni paytda o‘ziga axloqiy, estetik, siyosiy va intellektual ta’sirni qamrab oladi. Faoliyatga oid yondashuv tarbiya yo‘nalishiga ishora qilsa, kompleks yondashuv uning mazmun xarakterini belgilaydi.

1) pedagogik maqsad – vaziyat, tarbiyaviy maqsadning asosiy va bog‘liq tomonlarini shakllantirish;

2) rejalashtirish;

3) tashkil etish va tayyorlash;

4) ishni bevosita amalga oshirish;

5) erishilgan natijalar tahlili.

Shunday qilib, kompleks yondashuv – bu tarbiyaviy ta’sir va o‘zaro hamkorlik maqsadlari, vazifalari, mazmuni, metodi va shakllarining birligidan iborat.

Tarbiya texnologiyasi asosida tarbiyaviy jarayon yotadi. Ta’lim oluvchilar faoliyatini tashkil etish ular tomonidan erishiladigan natijalarni rejalashtirish va unga erishish usullari, bu usullarni modellashtirish, ishlab chiqilgan reja va modellarni ro‘yobga chiqarish, bu rejalarni amalga oshiruvchi shaxsning faoliyati va axloqini boshqarish kabilar hisoblanadi.

Ta’lim jarayonida tarbiyaviy texnologiyalardan foydalanish tarbiya natijalariga asoslanib, tarbiyaning maqsad va vazifalarini oydinlashtirish, tarbiya jarayonining har bir bosqichini alohida-alohida loyihalash, tarbiyaning shakl, metod va vositalarini aniq belgilab olishga qaratilgan tizimli jarayon.

Texnologik yondashuv imkoniyati tarbiya jarayonining o‘zida uning ko‘p omilliligi – ko‘plab omillar ta’siriga uchrashi, natijalarning tezda namoyon bo‘lmasligi, tarbiyachi faoliyatining (bevosita yoki bilvosita) yo‘naltirilganligi, ko‘p

bosqichlilik bilan bog‘liq ravishda mujassamdir.

Demak, ta’lim muassasalaridagi tarbiyaviy jarayonni tashkillashtirish birinchidan, tarbiya tizimining milliy xususiyatlaridan kelib chiqib, amalga oshirilishi; ikkinchidan, mazkur muassasalarda tarbiyaviy texnologiyalarning nazariy va amaliy asoslari aniq belgilab olinishi – tarbiyaviy texnologiyalardan amalda foydalanishda ta’lim oluvchilarning individual o‘ziga xosligi va tarbiya mazmunining yosh davrlari uchun mosligi tamoyiliga amal qilinishi tarbiyaviy texnologiyalarning asosiy mohiyatini tashkil etadi.

Hozirgi zamon pedagogikasida tarbiya pedagogning ta’lim oluvchi shaxsiga oddiy ta’sir ko‘rsatishi emas, balki pedagoglar va ta’lim oluvchilarni aniq bir maqsadga qaratilgan, bir-biri bilan hamkorlikda qiladigan munosabatlari va o‘zaro ta’sir ko‘rsatishi ekanligi alohida ta’kidlash mumkin. Bugungi kunda shunchaki bilim egasi bo‘lgan insonni emas, balki ijodkor, o‘z iste’dodi bilan ajralib turuvchi ishbilarmon, tashabbuskor shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazish zamon talabidir.

Buning uchun o‘qituvchi pedagogik faoliyatini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Maqsadga erishish uchun bir necha yo‘lni bosib o‘tish lozim:

– birinchi yo‘l – o‘quv-pedagogik faoliyat yo‘li bo‘lib, u o‘z o‘quv predmetini, pedagogika, psixologiya, metodika fanlarini ilmiy texnikaviy taraqqiyot va davr talablari darajasida bilishni nazarda tutadi.

– ikkinchi yo‘l – shaxsiy faoliyat yo‘li bo‘lib, u o‘ziga, o‘z ishiga, hamkasblariga, o‘quvchilarga, ularning ota-onalariga bo‘lgan munosabatini bildirib, o‘z mavqeyini tushunishi, o‘z-o‘ziga baho berish, o‘z-o‘zini anglash, mustaqil ravishda bilimini oshirishga intilish, o‘zini-o‘zi kamolotga yetkazish, bunyodkorlikka, ijodkorlikka, tadbirkorlikka layoqatini, yangilikka muntazam intilishini anglatadi.

– uchinchi yo‘l – ijtimoiy-pedagogik faoliyat yo‘li bo‘lib, u o‘qituvchi-tarbiyachining o‘quvchilarni, jamoani “ko‘ra bilishini”, o‘quvchi yoshlarning qiziqishi va talablarini, ular duch keladigan qiyinchiliklarni oldindan anglay olishini; har bir o‘quvchi-tarbiyalanuvchining individual-psixologik xususiyatlarini ilg‘ay olishini; darsda va darsdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarni tashkil qilish bo‘yicha bilim, ko‘nikma, malakalarning shakllanganligini; turli ijtimoiy – foydali ishlarga o‘quvchilarni jalb eta olishini; fanga, hayotga, san’atga, ijtimoiy-foydali mehnatga havas uyg‘ota olish kabi qobiliyati qirralarining mavjudligini anglatadi;

– to‘rtinchi yo‘l – axborot-kommunikativ faoliyat yo‘li bo‘lib, u o‘qituvchi – tarbiyachining ma’lumot-axborotga ega ekanligini; voqelik, pedagogik olamdagi voqea-hodisalar to‘g‘risidagi ma’lumotlar bilan qurollanganligini; axborot va

kommunikativ texnologiyalardan ma’lumotlar ola bilishini, uni o‘z tafakkur elagidan o‘tkazib, hamkasblari, o‘rtoqlari, o‘quvchilariga yetkaza olish qobiliyatiga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. «Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir» – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi. – «Xalq so‘zi» gazetasi. 2017-yil, 8-dekabr.
2. R. Ishmuhamedov va boshqalar. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar. – Toshkent, 2010.
3. O‘.Tolipov, M.Usmonboyeva. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006.
4. Абдулла Авлоний. Туркий Гулистон ёхуд ахлоқ. – Тошкент: Ўқитувчи, 1967.

TALABALARDA INSONPARVARLIK TUYG‘USINI SHAKLLANTIRISH

Barno RUSTAMOVA,
Oriental universiteti
«Pedagogika va psixologiya»
kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Insonparvarlik bu, eng avvalo, insonning insoniyligini anglatadi: odamlarga mehr-muhabbat, yuksak psixologik bag‘rikenglik, insoniy munosabatlarda yumshoqlik, shaxs va uning qadr-qimmatini hurmat qilish. Oxir-oqibat, insonparvarlik tushunchasi qadriyatlar tashkilotlari tizimi sifatida shakllanadi, uning markazida insonni eng oliy qadriyat sifatida tan olish yotadi. Insonparvarlik umuman inson va alohida shaxs mavjudligining umuminsoniy ahamiyatini tasdiqlovchi g‘oyalar va qadriyatlar to‘plamidir. Bunday talqin bilan shaxs ijtimoiy taraqqiyotning oliy maqsadi sifatida qaraladi, bu jarayonda uning barcha imkoniyatlarini to‘la ro‘yobga chiqarish, hayotning ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy sohalarida uyg‘unlikka erishish, buning uchun zarur shart-sharoitlar yaratiladi. Ma’lum bir inson shaxsiyatining eng yuqori gullashi. Demak, insonparvarlik nuqtayi-nazaridan ta’limning pirovard maqsadi har bir shaxsning to‘laqonli faoliyat, bilish va muloqot subyektiga, ya’ni dunyoda sodir bo‘layotgan hamma narsa uchun javobgar, erkin, mustaqil mavjudotga aylanishi mumkinligidan iborat. Maqolada ham aynan talabalarda insonparvarlik xususiyatlarini shakllantirish va uning jihatlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: *insonparvarlik, ta’lim va tarbiya, talabalar, gumanizm, shaxslararo munosabat, ijobiy fazilatlar.*

Аннотация. Гуманизм, прежде всего, выражает человечность человека: любовь к людям, высокий уровень терпимости, совершенство в человеческих отношениях, уважение к личности и ее достоинству. Ведь гуманистические черты формируются гуманистической системой, в центре которой человек воспринимается как высшая ценность. Гуманизм — это совокупность идей и ценностей, которые подтверждают общечеловеческую значимость человека в целом и отдельной личности. При такой трактовке это рассматривается как высшая цель социального развития личности, в этом процессе полная реализация всего своего развития, достижение гармонии в социально-экономической и духовной сферах жизни, необходимых условий для этого. Наивысший расцвет определенной

личности. Итак, с точки зрения гуманизма, конечная цель образования состоит в том, чтобы каждый человек мог достичь полной активности, знаний и общения, то есть свободного, независимого существования для всего, что происходит в мире. В статье также раскрывается уровень гуманизма у студентов и его использование.

Ключевые слова: *гуманизм, образование и воспитание, студенты, гуманизм, межличностные отношения, положительные качества.*

Annotation. Humanitarianism, first of all, expresses the humanity of a person: love for people, high level of tolerance, excellence in human relations, respect for the individual and his dignity. After all, humanistic features are formed by the humanistic system, in the center of which man is perceived as the highest value. Humanism is a set of ideas and values that confirm the universal importance of a person in general and a separate person. With such an interpretation, it is considered as the highest goal of personal social development, in this process, the full realization of all its development, achieving harmony in the socio-economic and spiritual spheres of life, necessary conditions for this. The highest flourish of a certain personality. So, from the point of view of humanism, the ultimate goal of education is that every person can reach full activity, knowledge and communication, that is, free, independent existence for everything that happens in the world. The article also reveals the level of humanitarianism in students and its use.

Key words: *humanitarianism, education and upbringing, students, humanism, interpersonal relations, positive qualities.*

Talaba shaxsining ma’naviy-axloqiy munosabatlarini shakllantirish muammosi zamonaviy jamiyat uchun dolzarbdir. G‘arb qadriyatlari va ommaviy madaniyat hukmronligining murakkab davrida jamiyatni mustahkamlash va vatanparvarlik tuyg‘ularini rivojlantirish uchun samarali vositani topish muhimdir.

Ma’naviy-axloqiy munosabatlar va ularning shakllanishi pedagogik tushuncha sifatida mazmunan quyidagi xususiyatlarni ta’minlaydi: maqsadga muvofiqlik; ijtimoiy-madaniy yodgorlik sifatida ba’zi namunalarning, hatto eng keng tarqalganining mavjudligi; jamiyatning tarixiy taraqqiyotida ijtimoiy-madaniy qadriyatlar rivojlanish jarayonining muvofiqligi; uyushgan ta’sirlarga taalluqli ma’lum bir tizimning mavjudligi.

Ta’limning insonparvarlik g‘oyasi muhim tushuncha bo‘lib, unda inson yoki shaxsning taqdiri yotadi. Insonparvarlik g‘oyasi har bir xalqning azaliy qadriyati, umumiy qadriyatidir. Masalan, Ikkinchi jahon urushi yillarida o‘zbek xalqining turli millat vakillariga nisbatan insonparvarligi bolalik davridagi vatanparvarlik tuyg‘usining natijasidir. Inson tarbiya markazida ekan, har bir shaxs komil shaxs bo‘lishga intilishi kerak, shundagina biz ko‘zlagan natijaga erisha olamiz.

Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy va boshqalar ijodida insonparvarlik, inson erkinligi, uning qadr-qimmati g‘oyalari targ‘ib qilindi. Forobiy mamlakatda odamlarning tinch va osoyishta yashashi xalqlarga katta foyda keltirishini isbotlashga harakat qildi va tinchlikni qat’iy qo‘llab-quvvatladi, butun faoliyatini xalq xizmatiga qaratdi. Navoiy inson taqdiri, el-yurt manfaati haqida qayg‘urishni asosiy masala qilib qo‘ygan. U dunyodagi eng qimmatli narsa bu – inson, degan g‘oyani ilgari surdi. Uning fikricha, butun borliq inson va uning baxtiga xizmat qilishi kerak. Jahon dinlari, jumladan, islom dini ham insonparvarlik g‘oyalarini ifodalagan. Unda kambag‘alga, musofirga, muhtojlarga yordam berishga, saxovatli va halol bo‘lishga chaqiriladi[66].

Jamiyatda yashash va uning bir qismi bo‘lish uchun inson o‘zida bir qator fazilatlarga ega bo‘lishi kerak. Bu fazilatlar kundalik hayotimizni hech qanday muammoga duch kelmasdan davom ettirishimizga yordam beradi. Boshqalar uchun muammo tug‘dirish imkoniyatidan qochish kabi.

Bunday xususiyatlardan biri insonparvarlik deb nomlanadi. Insonparvarlikning ahamiyati keng qamrovli va ijtimoiy hayotga ega bo‘lishni o‘zlashtirish eng muhim ko‘nikmalardan biridir.

Shuning uchun bu xususiyatni odamlarga o‘rgatishni imkon qadar erta boshlash zaruriy amaliyotdir. Yana bir muhim sabab shundaki, yosh aql egalarini shakllantirish oson. Demak, ularga insonparvarlik va uning ahamiyatini yoshligidan o‘rgatish kerak.

Yuqorida aytib o‘tilganidek, insonparvarlik hayotning har bir bosqichida muhim ahamiyatga ega. Talabalarda insonparvarlikni shakllantirish esa ta’lim jarayoni bilan bog‘langan usullarda amalga oshiriladi.

L.M.Popov tomonidan ishlab chiqilgan shaxsning rivojlanish va o‘z-o‘zini rivojlantirish subyekti sifatidagi konsepsiyasida tizimli yondashuv (B.F.Lomov) va shaxsni subyekt sifatida tushunish (A.V.Bryushlinskiy, A.L.Juravlev, S.L.Rubinshteyn , V.D.Shadrikov va boshqalar), axloqiy va axloqiy qatlam motivatsion va shaxsiy polisferaning bir qismidir. Bu polisfera inson xulq-atvorining ichki belgilanishiga ishora qiladi va subyektning tashqaridagi harakatlarining

[66] Nizomov F. Markaziy Osiyo mutafakkirlari ta’lim-tarbiya va inson kamoloti haqida. – Toshkent: Moziydan sado, 2005.

xususiyatlarini belgilaydi, shuningdek, doimiy o‘zini o‘zgartirish uchun sharoit yaratadi. Ichki belgilanish tashqi (faoliyatning tashqi stimullari) bilan birgalikda rivojlanish va o‘z-o‘zini rivojlantirish subyekti sifatida shaxsning tizimli-tuzilmaviy tashkil etilishi modelida determinant yoki shaxsiy kompleksni tashkil qiladi. Shuningdek, ushbu model insonning tizimli-tuzilmaviy tashkil etilishini, uning insonning dunyo va o‘zi bilan o‘zaro munosabati jarayonlarida ishtirokini tashkil etuvchi fazoviy-vaqt kompleksini taqdim etadi. Fazoviy-vaqt kompleksi ikkita komponentni o‘z ichiga oladi: mahsulot-fazoviy yoki statik va protsessual-vaqt yoki dinamik. Statik komponent, birinchi navbatda, insonning tanasi, psixikasi va ijtimoiy parametrlari bilan ifodalanadi. Dinamik komponent insonning tashabbuskor harakatlarini tashqi va ichki rejalar obyektlari bilan uzluksiz o‘zaro ta’sir qilish aktlari shaklida aks ettiradi: tashqi va ichki harakatlar.

Mavzuni rivojlantirish mexanizmi sifatida «psixologik mayatnik» g‘oyasi ko‘rib chiqiladi, bu tashqi harakatlarning doimiy o‘zaro o‘tishi, g‘oyalarning ichki harakatlarga aylanishini anglatadi va aksincha. Bunday o‘zaro o‘tishlar tufayli tebranishlar amplitudasi «proksimal rivojlanish zonalari»ga (L.S.Vygotskiyga ko‘ra) kirib borishi tufayli kengayadi, bu esa subyektning doimiy rivojlanishi va o‘zini o‘zi rivojlantirishi uchun sharoit yaratadi.

Shunday qilib, axloqiy sohaning rivojlanishi ham ushbu mexanizmga bo‘ysunadi deb taxmin qilish mumkin, ya’ni shaxs tomonidan jamiyatda qabul qilingan axloq normalarining o‘zlashtirilishi (tashqi reja) va axloqiy g‘oyalarini o‘z-o‘zini rivojlantirish (ichki reja) asosida shakllantirishi tufayli yuzaga keladi. Bunday rivojlanishning ko‘rsatkichi nafaqat insonning axloqiy me’yorlarga rioya qilish istagi, balki ko‘proq darajada professional va kundalik hayotda boshqa odamlar bilan munosabatlarni o‘rnatish usulidir. Rivojlanish subyekti[67] sifatida shaxsni psixologik tashkil etishning konseptual modeliga muvofiq, axloqiy tamoyil insoniyat kabi asosiy mulkni ifodalash darajasi bilan belgilanadigan subyektning axloqiy komponentini o‘rganish zarurati oqlanadi. Insoniyat turli xil axloqiy konstruktiv (halollik, insonparvarlik, mas’uliyat, ishonch, bag‘rikenglik, xushmuomalalik, o‘z-o‘zini tarbiyalash, fidoyilik va boshqalar) bilan ifodalangan ikkita asosiy axloqiy toifaning – yaxshilik va yomonlikning uzluksizligida yotgan ta’lim sifatida harakat qiladi) va axloqiy jihatdan halokatli (shafqatsizlik, kinizm, xudbinlik, qo‘pollik, vijdonsizlik, makkorlik va boshqalar) har birida turli darajadagi vakillik xususiyatlari. Ushbu xususiyatlarning noyob uyg‘unligi insonning axloqiy rivojlanish darajasini aks ettiradi.

Insonparvarlik tamoyillarini ta’lim jarayoniga tatbiq etish umuminsoniy tamoyillarning namoyon bo‘lishini anglatadi. Bir tomondan, umuminsoniy

[67] Advances in Social Science, Education and Humanities Research (ASSEHR). – Volume 184.

qadriyatlar butun insoniyat uchun muhimdir. Ular garchi hammasi bir xil tarzda ifodalanmasa ham, ma’lum darajada barcha ijtimoiy jamoalarga, ijtimoiy guruhlarga, xalqlarga xosdir. Ularni ifodalash xususiyatlari ma’lum bir mamlakatning madaniy va tarixiy rivojlanishining xususiyatlariga, uning diniy an’analariga va sivilizatsiya turiga bog‘liq. Shu sababli ta’lim jarayoniga umuminsoniy qadriyatlar nuqtayi-nazaridan yondashish insoniyat tomonidan to‘plangan barcha madaniy boyliklarni rivojlantirish asosida shaxsning ma’naviy, axloqiy, intellektual va estetik rivojlanishiga qaratilgan.

Falsafiy nuqtayi-nazardan bu transsendental qadriyatlar mutlaq, abadiy qadriyatlardir. Ular Xudoning yaxshilik, haqiqat, adolat, go‘zallik va boshqalarning mutlaq timsoli sifatidagi g‘oyalariga asoslanadi.

Umumjahon insoniy qadriyatlarning manbayi va kafolatiga turlicha yondashish bilan dindorlar va e’tiqodsizlar umuminsoniy qadriyatlar doimiy, bardavom xususiyatga ega ekanligini anglaydilar va shuning uchun umuminsoniy qadriyatlar ideal, tartibga soluvchi g‘oya, barcha odamlar uchun xulq-atvor modeli sifatida ishlaydi. Barcha davrlarda va barcha xalqlarda yoshlarni ana shu qadriyat yo‘nalishlari ruhida tarbiyalash uni ijtimoiylashtirishning ajralmas sharti hisoblangan.

